

Forish tuman axborot-kutubxona markazi axborot-bibliografiya xizmati



**Qatag'on qurbonlari va jadidlik harakati
ishtirokchilari xotiralarini abadiylashtirish va
ularning merosini chuqur o'rganish va keng omma
o'rtasida targ'ib qilish maqsadida "Armonli yillar
ko'zgusi" mavzusida tayyorlangan bibliografik
qo'llanma**

Forish-2025-yil

Mundarija:

1. Kirish qismi: Jadidlar haqida
2. Jadidlar ismlari
3. Qatag'on qurbonlari yod etildi
4. Milliy tarixni qayta tiklash oson kechmagan...
Oqlanganlarning aksariyati Turkistondagi jadidchilik namo
5. Ma'rifatparvar bobolarimiz orzulari
6. Qatag'on qurbonlari haqida nimalarni bilasiz?
7. Abdulla Qodiriy
8. Abdulla Qodiriy asarlari
9. Abdulhamid Cho'lpon
10. Abdurauf Fitrat
11. Mahmudxo'ja Behbudiy
12. Usmon Nosir hayoti va ijodi
13. Munavvar qori Abdurashidxonov
14. Fayzulla Xo'jayev
15. Hamza Hakimzoda Niyoziy
16. Abduqodir Shakuriy
17. Foydalanilgan adabiyotlar

Tayyorladi: Forish TAKM axborot-bibliografiya xizmati N. Artikova

Jadidlar haqida

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari

Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.

Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlaridan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Jadidlar ismlari

Jadidlar kimlar? degan savolga Jadidlar ismlari ro'yxati bilan tanishtiramiz

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev (Ubaydulla Xo'jayev), Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O'sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) turardi.



Qatag'on qurbonlari yod etildi

31 avgust kuni erta tongda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Shahidlar xotirasi xiyoboniga tashrif buyurdi. U yerda jamoatchilik vatan fidoyilari, milliy istiqlol yo'lida qurbon bo'lgan ajdodlar xotirasini yod etish uchun yig'ildi. Qur'on tilovat etilib, o'tganlar haqiga duo qilindi. Elga osh tortildi.

"Mustabid tuzum davrida yurtimiz ozodligi uchun kurashgan 100 mingdan ortiq vatandoshlarimiz qatag'onga uchragan. Ularning qanchasi "xalq dushmani" degan tuhmat bilan shafqatsiz otib tashlangan. Yana qanchasi surgun qilinib, azob-uqubatlarga duchor etilgan. Oilalari parokanda bo'lib, mol-mulklari tortib olingan. Bu mudhish jinoyatdan mushtipar momolarimiz, onalarimiz ham omon qolmagan. Minglab ayollar beva, bolalar yetim qolgan.

Bu nafaqat ularning avlodlari, balki butun xalqimiz yuragidagi og'riqdir. Shu bois oradan shuncha vaqt o'tsa-da, barchamiz o'sha mudhish davrni iztirob bilan eslaymiz", deyiladi Prezident Matbuot xizmati xabarida.

2001 yildan buyon 31 avgust – "Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni" sifatida nishonlab kelinmoqda. Vatan fidoyilarining hayoti va merosini o'rganish, xotirasini abadiylashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yil Shahidlar xotirasi xiyobonida bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi binosi rekonstruksiya qilindi.

Davlat rahbari ushbu muzeyni kirib ko'rdi. U yerda yaratilgan sharoitlar, tarixiy hujjatlar bilan tanishdi.

"Ko'rinib turibdiki, katta salohiyatga ega yetakchilar, olimlar, adiblar, shifokorlar, o'qituvchilar qatag'on qilingan. Ular xalqimizning eng sara vakillari edi. Mustabid tuzumga millat ko'zini ochadigan, unga o'zligini tanitadigan ziyoli insonlar kerak emas edi. Ularning aybi - buyuk bo'lgani", dedi Shavkat Mirziyoyev.

Afsuski, shu paytgacha qatag'on qurbonlarining to'liq ro'yxati shakllantirilmagan edi. 2020 yil 8 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilindi.

Tarixchi olimlar jalb etilib, zulm qurboni bo'lgan barcha insonlarni aniqlash va nomlarini tiklash bo'yicha katta ishlar boshlandi. Chet ellardagi arxiv va muzeylar, kutubxona va fondlar bilan ham hamkorlik yo'lga qo'yilib, ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilmoqda. Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Fanlar akademiyasi va boshqa tashkilotlarning arxivlaridan yangi-yangi ma'lumotlar topilmoqda.



Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda qatag'on qurbonlariga bag'ishlangan muzeylar tashkil etildi. Ularda rasmiy materiallar bilan birga oilaviy arxivlarda saqlanib qolgan ko'plab tarixiy hujjatlar, noyob suratlar to'planmoqda. Qatag'on qurbonlarining nomlari, ularning hayoti va faoliyati viloyatlar, tumanlar kesimida aniqlanmoqda. Bu ma'lumotlar asosida ko'p jildlik "Qatag'on qurbonlari" kitobi nashrga

tayyorlanayapti.

Prezident bunday katta, ilmiy asarlar bilan birga maktab o'quvchilari uchun sodda tilda, kichik-kichik kitoblar chiqarish zarurligini ta'kidladi. Buning uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarga Tarix institutining ilmiy xodimlarini biriktirib, har bir hududdagi jadid bobolar, qatag'on qurbonlari nomini tiklab borish bo'yicha ko'rsatma berildi. Davlat rahbari tarixni o'rganish va o'rgatish vazifalari haqida gapirdi.

"Biz shu vaqtgacha tarixning o'zimizga yoqqan joylarini olib, yoqmagan tomonini yashirib o'tdik. Birovga yoqadimi-yoqmaydimi, g'ururimizmi-armonimizmi, muvaffaqiyatmi yo xiyonatmi - hammasini haqqoniy yozish kerak", deya ta'kidladi Prezident.

Haqiqatni tiklash borasidagi yana bir qadam - shu yil 25 avgust kuni O'zbekiston Oliy sudi tomonidan 115 nafar qatag'on qurboni oqlandi. Prezident bu qarorni olqishladi.

"Oradan qariyb yuz yil o'tib adolat qaror topdi. Milliy istiqbolimiz uchun kurash olib borgan, lekin rehabilitatsiya qilinmay qolgan 115 nafar bobomizning pok nomlari oqlandi. Hali bundaylar qancha? Vatanparvar insonlarning sha'nini tiklashga qaratilgan ezgu ishlarni davom ettirish kerak", dedi Shavkat Mirziyoyev.

Xiyobondagi ramziy qabr yonida nuroniylar, ulamo va ziyolilar bilan muloqot bo'ldi. Davlat rahbari ajdodlar xotirasi, bugungi mustaqillik va tinchlik qadri haqida gapirdi.

"Jadid bobolarimiz yurtimizni ozod etishga, qoloqlikdan olib chiqib, hamma sohalarni rivojlantirishga borini bag'ishlagan. Buning badalini o'z jonlari bilan to'lagan. Biz bugungi mustaqillik, tinchlik, erkinlik sharoitida ularni eslashimiz, e'zozlashimiz ham qarz, ham farz", dedi Shavkat Mirziyoyev.

Dunyoda bo'layotgan voqealarga ogoh ko'z bilan qarash, tinchlik-osoyishtalikning qadriga yetish muhimligi ta'kidlandi.

"Hamma natijalar, mana shunday bayramlarimiz tinchlik tufayli. Ishlarimiz, ibodatlarimiz tagida ilm-ma'rifat bo'lishi kerak. Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom



akademiyasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etdik. Buyuk muhaddis va islom dini ulamolarimiz asarlari nashr etilmoqda. Yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun shu masalalarga qaratilgan. Imom-xatiblar, diniy jamoatchilik ma'naviyatni yuksaltirish, mehr-oqibatni mustahkamlash, yoshlarga to'g'ri tarbiya berishga bundan buyon hissa qo'shadilar, deb ishonaman", dedi Prezident.

Allohdan o'tganlarga rahmat, mamlakatga tinchlik va farovonlik tilab duo qilindi.



Milliy tarixni qayta tiklash oson kechmagan... Oqlanganlarning aksariyati Turkistondagi jadidchilik namoyandalaridir

31-avgust – Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan uning ma'naviy hayotida yangi – uyg'onish, o'zlikni anglash davri boshlandi. Avvalgi ma'muriy buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo'ysundirilgan

tarixni soxtalashtirish, noto'g'ri talqin etishga barham berildi. Milliy mafkuramizning asosi bo'lmish milliy tarixni qayta tiklash imkoniyati tug'ildi. Tabiiyki, bu jarayon oson kechmadi...

NKVD qamoqxonasi muzeyga aylantirildi

Bu borada qilingan eng xayrli va savobli ishlardan biri sovet hokimiyati yillarida "xalq dushmani", "aksil inqilobchi", "millatchi", "quloq" sifatida qatag'on etilgan yurtdoshlarimizning pok nomlari oqlanishi bo'ldi. Tarixiy haqiqat va adolatni tiklash bo'yicha ishlar, eng avvalo, hurriyat yo'lida jon fido qilgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirishga qaratildi. Toshkentda "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi barpo etilib, uning hududida Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tashkil etildi.

2017-yil 31-avgust – Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni munosabati bilan Prezidentimiz "ushbu muzey – muzeylarning muzeyi" deb yuksak baho berar ekan, viloyatlarda ham uning bo'limlarini tashkil etish taklifini kiritib, ular xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun muqaddas ziyoratgoh, ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i bo'lib qolishi kerakligini ta'kidladi.

Bildirilgan taklif va mulohazalar asosida 2017-yil 22-noyabrda Vazirlar Mahkamasi qarori bilan muzey faoliyati yanada takomillashtirildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi 13 ta oliy ta'lim muassasasi tuzilmasida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari tashkil etildi. 2021-yilda Qarshi shahridagi Odina masjidida Qashqadaryo viloyati Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi yangidan yaratildi. Sovetlar davrida NKVD qamoqxonasiga aylantirilgan ushbu tarixiy obidada tashkil etilgan muzey 2021-yilning 11-oktabrida tantanali ravishda ochildi.

Sensor kiosklar va monitorlar tarix sinoatlaridan so'zlaydi

2020-yil 8-oktabrda Prezidentimizning "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasi abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilinishi esa tarixiy adolat tiklanishi va shahidlar xotirasini abadiylashtirilishi borasidagi ishlarni yangi sifat bosqichiga ko'tardi. Farmoyish asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida jami 14 ta "Qatag'on qurbonlari" xotira kitoblari tayyorlandi. Ularga qatag'on qurboni bo'lgan 40 mingga yaqin vatandoshimizga oid ma'lumotlar kiritildi.

Shuningdek, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi ekspozitsiyasi "Yangi O'zbekiston: Uchinchi Renessans asoslari" konsepsiyasi asosida tubdan yangilandi. Zamonaviy sensor kiosklar va monitorlar bilan jihozlandi.

Muzey hamda hududiy muzeylarning asosiy vazifasi tashrifchilarni qatag'on siyosati tarixi bilan tanishtirish, qatag'on qurbonlarini yod olish, yoshlarni ularning eng yaxshi an'analari asnosida tarbiyalashdan iborat. Ularning ilmiy-ma'rifiy maqsadi esa mustamlaka davridagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarni o'rganish, anglash, qatag'on siyosatining fojiali oqibatlarini tadqiq qilish, yoshlarni Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashdir.

Bu borada Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tomonidan Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro muzeylar kuni, Xotira va qadrlash kuni, Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni, Mustaqillik

bayrami munosabati bilan muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar alohida ahamiyatga ega. Xususan, muzey tomonidan turli mahalliy va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda 2002-2022-yillar mobaynida 50 ga yaqin konferensiya, 700 dan ortiq ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbir, seminar o'tkazildi. Albatta, bu tadbirlar hisobot uchun emas, yurt, millat sha'ni, qimmatli tiklanayotgan muhim davrda o'tkazilgani bois ham katta taassurot qoldirdi.

"Kindik qoning to'kilgan yurt sharafini himoya qila olmaslik – bu o'limdir!"

2022-yil 7-aprel kuni Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi bilan hamkorlikda "Ozarbayjon va O'zbekiston xalqlarining qatag'on fojiasi: bir tarix, bir taqdir" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Ushbu anjumanda mazkur ikki xalq ma'rifatparvarlari ko'tarib chiqqan olamshumul loyihalar borasida qizg'in muhokama ham bo'lib o'tdi.

"Shahidlar xotirasi" jamoat fondi bilan hamkorlikda tavalludining 120 yilligiga bag'ishlab "Mohir tarjimon, publitsist Sanjar Siddiq merosining yangi O'zbekiston davridagi ahamiyati" mavzusida respublika ilmiy anjumani ham o'ziga xos voqeliklarga va mulohazalarga boy bo'ldi. Mazkur anjuman sentabr oyidagi eng yaxshi anjuman sifatida tadqiqotchilar tomonidan ham e'tirof etildi.

Joriy yil 17-mayda "Yangi O'zbekiston tarixshunosligida Turkiston muxtoriyati tarixining o'rganilishi: yangicha yondashuv va tadqiqotlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida esa ishtirokchilarga ma'lumot va xulosalar taqdim etildi.

2022-yilda o'tkazilgan yana bir anjumanga to'xtalish o'rinli. Samarqand shahrida Turkistondagi jadidchilik harakatining yetuk vakillaridan biri, ma'rifatparvar, tilshunos olim Sayid Rizo Alizoda tavalludining 135 yilligiga bag'ishlab 11-oktabrda katta ilmiy anjuman o'tkazildi. 1937-yilda qatag'on qilingan ushbu shaxs ham o'z umri va jonini Vatan uchun, uning hur, ozod bo'lishi, xalqning farovon, tinch yashashi uchun fido qilgan inson hisoblanadi. Uning 1920-yil "Hurriyat" gazetasida e'lon qilgan "Turkiston bizning Vatanimiz" maqolasidagi quyidagi fikrlar bugungi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi: *"Shu yerning ob-havosidan bahramand bo'lib kamol topsang-u, uning sharafini himoya qilmasang, (ona diyoring) oyoqosti bo'lishi, qadrsizlanishiga yo'l qo'ysang, nobakor ajnabiy o'z vatani shon-shavkati uchun sening ota-bobolaring kindik qoni to'kilgan yeringni vahshiylarcha toptab, qoningni simirsa va uni axlatxonaga aylantirsa-yu, sen hissizlarcha qarab tursang yoki undan qochsang, o'zing uning g'oratlanishiga ko'maklashsang, unda sen bu Vatanning farzandi emassan"*. Aynan shu singari fikrlari uchun Sayid Rizo Alizoda sovet tuzumi tomonidan mahv etildi.

Muzey tashkil topgandan buyon fondni boyitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dastlabki yillarda fondga bor-yo'g'i 1000 dan ortiq material jamlangan bo'lsa, bugungi kunga kelib, eksponatlar soni 17 146 donaga yetdi va bu ko'rsatkich yildan-yilga oshib bormoqda.

Muzey fondi ilmiy xodimlar izlanishlari natijasida, qolaversa, qatag'on bo'lgan shaxslarning oilalaridan olingan ma'lumotlar, hujjatlar, foto, gazeta-jurnal, kitob va buyumlar bilan to'ldirilib, yangilab kelinmoqda.

"O'ttiz yettinchi yil turnalari"ning katta qirg'ini

Muzey tomonidan qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, nomlarini oqlash, jadidlar merosini o'rganish borasida qilinayotgan ishlar turli ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, telekanallarda yoritilishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, 2019-yildan "O'zbekiston tarixi" telekanali bilan hamkorlikda muzey texnik bazasidan foydalangan holda qatag'on qurbonlari bo'lgan 200 dan ziyod vatandoshimiz hayoti, faoliyati va fojiali taqdiriga bag'ishlangan "Millat fidoyilari" turkum ko'rsatuvlari tayyorlandi va efirga uzatildi.

Muzey faoliyatida ilmiy tadqiqot hamda nashr ishlari alohida o'rin egallaydi. O'tgan davr mobaynida muzey ilmiy jamoasi tadqiqotlari natijasida 55 ta monografiya, 35 ta ilmiy maqolalar to'plami, 5 ta o'quv qo'llanma, gazeta va jurnallarda 850 dan ziyod ilmiy, ilmiy-ommabop maqola nashr etilgan.

Shuningdek, muzey tomonidan 2009-yildan buyon nashr etib kelinayotgan "Tarixning noma'lum sahifalari" to'plamini alohida qayd etib o'tish joiz. 2022-yilda mazkur to'plamning 10-kitobi nashrdan chiqdi. Prezident farmoyishi asosida esa birgina 2022-yilning o'zida qatag'on qurbonlari hamda o'sha davr tarixiga bag'ishlangan 10 ga yaqin kitob chop etildi. "Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi. Yo'lko'rsatkich" (o'zbek, rus, ingliz tillarida), "Millatimiz fidoyilari" kitoblari, "O'ttiz yettinchi yil turnalari. 1937-1938-yillardagi katta qirg'in qurbonlariga bag'ishlangan ocherk va maqolalar" to'plami, "Jadidchilik fenomeni" monografiyasi, J.Sultonmurodov va M.Sultonmurodova hayoti, faoliyati, ijodiy ishlari, maktublari va xotiralaridan iborat "Chiroq ko'targan ayol" kitobi, G'ozir Yunusning hali nashr yuzini ko'rmagan tanlangan asarlaridan iborat "G'ozir Yunus. Ko'z oching, Turon eli" kitobi shular jumlasidandir.

Yuqorida qayd etilgan farmoyishga binoan, mustabid sovet tuzumi davrida qatag'on qilingan va muayyan sabablarga ko'ra oqlanmay qolgan vatandoshlarimizni oqlash borasida ham muhim ishlar qilindi. Muzey tomonidan Bosh prokuratura va Oliy sudga yozilgan arizalar natijasida Oliy sud tomonidan 2021-yil 25-avgustda sovet davrida qatag'on qilingan 115 nafar, 2022-yil 6-yanvarda 105 nafar, 2022-yil 19-dekabrda 173 nafar 2023-yil 19-aprelda 208 nafar, jami 601 nafar shaxs oqlandi.

Oqlanganlarning aksariyati Turkistondagi jadidchilik harakati namoyandalari ekani bejiz emas. Binobarin, mustabid sovet davrida aynan ma'rifatparvar, taraqqiyparvar, ziyoli insonlar qatag'on qilingan.

Yana 240 nafar shaxs oqlandi

Prezidentimizning 2020-yil 8-oktabrdagi "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida qatag'on qurbonlari merosini yanada chuqur o'rganish, xotirasini abadiylashtirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika ishchi guruhi tashkil etilgan. Qatag'on qurbonlarining nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlangach, ularning nomlarini aniqlash borasida izlanishlar ko'lami kengaytirilib, mas'ullarga vazirlik va idoralar arxivlaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida aniqlangan, ayrim sabablarga ko'ra, rehabilitatsiya qilinmagan qatag'on qurbonlari nomlarini oqlash yuzasidan belgilangan tartibda takliflar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on

qurbonlari xotirasi davlat muzeyi rahbariyati tomonidan muzey ilmiy jamoasi, mamlakatimizning taniqli tarixchi olimlaridan iborat ishchi guruh tashkil etilgan.

Ishchi guruhning izchil faoliyati, ko'lamli sa'y-harakati tufayli keyingi yillarda sovet davrida qatag'on qilingan 616 nafar vatandoshimiz reabilitatsiya qilinib, oqlandi.

Kuni kecha Oliy sudga Uchlik Kengashining maxsus yig'ilish qarorlariga ko'ra, 1929-1931-yillarda hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari hududlarida "bosmachilik" harakati a'zolari bo'la turib, qurolli to'da tuzushib, sovet hukumatiga qarshi qurolli qo'zg'olon yoki aksilinqilobiy harakatlarni amalga oshirganlikda ayblangan O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSR fuqarolari bo'lgan 240 nafar shaxsga oid 5 ta jinoyat ishi kelib tushib, ishchi guruh tomonidan o'rganib chiqildi.

Bosh prokuror o'rinbosari tomonidan yuqorida ko'rsatilgan jinoyat ishlari yuzasidan Oliy sudning Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga apellyatsiya protestini berish muddatini tiklash haqidagi iltimosnomalar hamda apellyatsiya tartibida protestlar keltirildi.

2023-yil 24-avgust kuni ochiq sud majlislarida ushbu iltimosnomalar va protestlar ko'rib chiqilib, qanoatlantirildi hamda Jinoyat-prosessual kodeksining 83-moddasiga asosan, jami 5 ta jinoyat ishi bo'yicha 240 nafar shaxsga nisbatan Oliy sud Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati apellyatsiya instansiyasining oqlov hukmi chiqarildi.

Adolat qaror topdi, yillar mobaynida yuzaga chiqmay kelgan haqiqat tantana qildi. Mustaqillik yo'lida fidokorona kurash olib borgan, hatto o'z jonini fido qilgan qatag'on qurbonlarining pok nomlari xalqimiz qalbida mangu yashaydi.

Ma'rifatparvar bobolarimiz orzulari

Prezidentning 2020-yil 8-oktabrdagi "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi mustabid tuzum davrida nohaq qatag'on etilgan jadid taraqqiyparvarlari xotirasini abadiylashtirish borasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish imkonini berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbari 2022-yilda Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida ham jadidchilik harakatining ahamiyatiga yana bir bor e'tibor qaratib, "Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur", deya ta'kidladi. Zero, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining asosiy maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo'lgan barcha sohalarida innovasion g'oyalarni joriy qilish edi.

Jadid taraqqiyparvarlarining hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish va tadqiq etish to'g'risidagi mazkur da'vat bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari yanada jadallashishini taqozo etdi.

Ushbu vazifalar ijrosi o'laroq, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Turkiy davlatlar tashkiloti, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda boshqa tashkilot va muassasalar hamkorligida 2023-yil 6-7-mart kunlari Toshkentda "Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo'shgan hissasi" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Anjuman O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi raisligi doirasida o'tkazilgani uning nufuzini yanada oshirdi.

Konferensiyada AQSH, Turkiya, Ozarbayjon, Rossiya, Qozog'iston, Shvetsiya va Germaniya kabi mamlakatlardan 30 ga yaqin nufuzli jadidshunos olimlar ishtirok etdi.

O'zbekiston Prezidenti xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrik yo'llab, unda tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo'lgan mintaqamizda Uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishi mumkin bo'lgani, afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g'oya va amaliy harakatlarini ro'yobga chiqarishga imkon bermaganini qayd etdi. "Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz", dedi Prezident.

Tabrik nutqidagi "Farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyparvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Biz xalqaro ilmiy markazlar, dunyo olimlari bilan hamkorlikda jadidlar faoliyatini yanada chuqur o'rganishni dolzarb vazifa, deb hisoblaymiz. Bu noyob meros orqali bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topa olamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi" kabi fikrlar yangi O'zbekistonda haqqoniy tariximizni, jadid bobolarimizning merosini chuqur va atroflicha o'rganish, xalqimizga targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Tarixiy xotirasi bo'lmagan, tarixni unutgan, o'z ajdodlarining qadriga yetmaydigan millatning istiqboli yo'q. Buyuk kelajak sari intilayotgan ona Vatanimiz — yangi O'zbekistonda esa tarixiy an'analar ro'yobga chiqib, milliy an'analar, qadriyatlar qadr topdi, xalqimizning orzu-armonlari ushaldi.

Eng asosiysi, yurtimizda tinchlik va osoyishtalik barobarida, inson xotirasi va qadri shunday yuksak darajada ulug'lanayotgani farzandlarimiz uchun tengsiz saboq va munosib ibratdir.

Baxtiyor HASANOV,
Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori

Qatag'on qurbonlari haqida nimalarni bilasiz?

Sobiq Ittifoqning tarixiy sahifalarida millionlab fuqarolarning qonlari bilan yozilgan sahifalari mavjud bo'lib, bu mustabid sovet tuzumining qatag'onlik siyosatidir.

Stalincha totalitar-mustabid tuzum bedodligi va zulmning haddan ziyod kuchayib borishi davomida nafaqat yurtparvar milliy kadrlar, fidoyi ziyolilarning hayot tarzi, qismati

zavol topdi, balki shu bilan birga millionlab yurt fuqarolarining oddiy insoniy qadri-qimmatini, or-nomusini toptaldi, tahqirlandi. G'addor tuzum zulmkorlari o'z g'ayriqonuniy xatti-harakatlarini avj oldirib, bunda har bir insonning yurish-turishi, kundalik mashg'uloti, muomalasidan tortib to uning qanday tafakkur yuritishigacha bo'lgan hamma jarayonlarni ham o'z nazoratiga olishga intilganlar. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa insonlar erki, irodasini jilovlash, uni muayyan chegara doirasida ushlab turish va shu yo'l bilan badkirdor tuzum sha'niga dog' tushirmaslik, uning soxta obro'-nufuzini asrash, avaylash edi.

30-yillardagi qatag'onda o'zbek xalqining eng iste'dodli namoyandalari yo'q qilindi. Ularga turli ayblar qo'yilib, har xil bahonalar bilan qatl qilindi. Biroq, sho'ro tuzumini maqtab, "xalqlar otasi" ni kuylagan ayrim shoirlarga ham kun berilmadi. Sababi, ularning beqiyos iste'dod ekanligi, bir kun kelib baribir o'z xalqiga yon bosishini oldindan payqagan qizil imperiyachilar ularni ham otib tashlagan.

Sovetlar o'z siyosatidan sal og'ish, unga zid keluvchi hollarga shafqatsizlik bilan munosabatda bo'lardi. Buning oqibatida kishilar dunyoqarashi, e'tiqodini o'z izmiga bo'ysundirish, uni kommunistik axloq, ilmiy va ateistik tamoyillar ruhida shakllantirish uchun keskin kurash olib borgan sovet mafkurasining respublika mehnatkashlarining ma'naviy hayotiga etkazgan zarari behisob bo'ldi. Shu yo'l bilan xalq ma'naviy-ruhiy hayotiga asrlar osha muhim hissa qo'shib kelgan butun boshliq ruhoniylar tabaqasi yo'q qilindi. Din peshvolari qattiq ta'qibga olindi.

Bu davrda insonni qoralash, uning peshonasiga "xalq dushmani" tamg'asini bosish tuzum zolimlari uchun xuddi "xamirdan qil sug'urganday" gap bo'lgan. Hatto shunday hollarga duch kelindiki, respublikadagi ko'p xonadonlarda vaqti-vaqti bilan o'tkazilgan tintuv paytida mabodo arab yozuvida bosilgan biror kitob topilguday bo'lsa, uning nomi, mazmuni so'rab, surishtirilmasdan o'sha xonadon sohibiga jamiyatga yot unsur degan la'nat tamg'asi bosilib, u qamoq yoki surgun jazosiga hukm etilavergan.

XX asrning 30-yillariga kelib jahon xaritasida mutlaqo qayd etilmagan "Gulag" lagerlari tashkil topdi. Uning fuqarolari haq-huquqsiz Sovet Ittifoqi qahramonlari, mashhur fan arboblari, mohir diplomatlar, shoirlar, yozuvchilar, rassomlar yoki nomlari hech kimga ma'lum bo'lmagan ishchilar, kolxozchilar va boshqa kasb egallari edi. Bu albatta sovet davlatining qatag'onlik siyosati natijasi edi. Turkiston ozodligi uchun kurashganlarni "Bosmachi" tamg'asi bilan yo'q qilinib tashlandi. So'ng aholini mehnat qilib biror narsa orttirgan o'rta hol qismi bu baloga giriftor etildi.

Mustabid tuzum Markazda va joylarda o'z mutlaq hokimiyatini shakllantirib, mustahkamlab borar ekan, bunda u o'ziga sodiq muayyan siyosiy va ijtimoiy kuchlarga tayanib ish yuritardi. Shu maqsadda, Markaz hukumati yangi sotsialistik jamiyat qurilishi davomida O'zbekistonga o'zining ko'p sonli sadoqatli xodimlari, vakillarini rahbari Lavozimlarga yuborib turganligi bejiz emas. Xususan, ular yordamida o'lka hayotida kechayotgan barcha jarayonlar, o'zgarishlardan doimiy xabardor bo'lish, ularning yo'nalishlarini, maqsad, vazifalarini belgilash, mahalliy kadrlar faoliyatini kuzatish, nazorat qilish mumkin bo'lardi. Markaz O'zbekistonlik milliy kadrlarning kundalik

ishlariga “ko‘z-quloq” bo‘lish, ular faoliyatini tekshirish, taftish qilish barobarida sotsializm qurilishi yo‘lida sadoqat bildirganlarni tanlash, tarbiyalash, ularni yuqori mansablarga ko‘tarishni o‘z e‘tiboridan chetda tutmadi. Markaz ishonchini qozonib, uning nufuzli namoyandalari bilan yaqindan hamkorlik qilgan, kerak bo‘lganda-o‘z xalqining manfaati, qiziqishlarini ko‘zlab ish yuritgan bilimdon kadrlar soni ham ko‘payib borgan. Ammo Stalinning yakkahokimligi kuchayib, totalitar tuzum bedodligi avj olib borgan sari bunday kadrlarni arzimasa sabab va bahonalar bilan qiynoq-qistovga olish, vazifalaridan chetlatish odatiy tusga kirib bordi.

Rahbar kadrlar, ayniqsa, o‘z xalqi, yurtining milliy manfaatlarini himoya qilib, uning istiqbolini ko‘zlab, o‘zida kuch, iroda topib, bor haqiqatni aytishga jur‘at qilgan millat vakillari birinchi navbatda hukmron Markaz uyushtirgan qatag‘onga duchor bo‘ldi. Buning yorqin ifodasini Sovet mafkurachilari tomonidan o‘zbek milliy kadrlari sha‘nini bulg‘ashga qaratilgan, atayin ta‘qib chiqarilgan “18 lar guruhi”, “Inog‘omovchilar”, “Qosimovchilar” guruhlarini misolida ko‘rish mumkin. Ularning faoliyatiga oid tarixiy hujjatlarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, bu insonlar faoliyatida ularni ayblashga bois bo‘ladigan hech bir asosli ashyoviy dalillar bo‘lmaganligiga to‘la amin bo‘lamiz. Ularning yagona “gunohi” – bu o‘z millati dardi, tashvishi va manfaatini ko‘zlab ayrim muhim muammolarni ko‘targanligi va ularni hal etishga yuqorining e‘tiborini jalb etganligi xolos.

Respublikaning taniqli arboblardan iborat “18 lar guruhi”ga “yer-suv islohotiga qarshi chiqqan, boy-quloq va yer egalarining manfaatini himoya qilib chiqqanlar, mahalliychilik va millatchilik g‘oyalarini ilgari surgan” degan soxta aybnoma qo‘yildi. Aslida esa ular hukmron Markazning ulug‘ davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydligiga qarshi chiqib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilganlar. Shu sababli, rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralanadi va uning a‘zolari turli jazolarga giriftor etildilar. Bunday muxolifatchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan qolmasdi, albatta. Shu sababli, 1926-1927-yillarda bu guruh faoliyati partiya tashkilotlarida bir necha bor muhokama qilinib, og‘machi guruhbozlikda ayblandi. Inog‘omov tarafdorlari vazifalaridan olinib, nomlari qoralandi.

“Qosimovchilik” guruhi ham 1929-1930-yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag‘on qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma edi. O‘z SSR Oliy Sudining raisi lavozimida ishlagan S. Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari: N.Alimov, Musaboyev, Sharipov, Sirojiddinov va boshqajami 7 kishi 1929-yilning 2-yarmida “bosmachilik” harakatiga yordam berganlikda ayblanib qamoqqa olindilar. Ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog‘laganlikda ayblandilar. Bu guruhning 4 ta a‘zosi shunday asossiz ayblanib, otib tashlandi. Qolganlari esa ko‘p yillik qamoq jazosiga hukm qilindi.

Mustabid tuzum hukmdorlari uchun O‘zbekiston singari milliy Sovet Respublikasi rahbarlari, xodimlarini to‘la itoatda tutishning birdan bir sharti – bu ularning mustaqil faoliyatiga izn bermaslik, vaqti-vaqti bilan silkitib turish, mabodo xato, kamchiliklari topilguday bo‘lsa, shafqatsiz jazolash yo‘li edi. Milliy kadrlar faoliyatiga nisbatan bunday

noinsoniy, g'ayriqonuniy yondashuv oqibatida respublikada o'z ongli hayoti, jo'shqin faoliyatini sovetlarning yolg'on, soxta g'oyalari, sotsializm g'alabasi uchun bag'ishlagan, shu yo'lda jon fido etib kurashgan qancha yetuk partiya va davlat rahbarlari qatag'on domiga g'arq bo'ldilar. O'zbekiston ravnaqi, xalqining baxt-u saodati uchun fidoyilik ko'rsatgan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Rahimboyev, Isroil Ortiqov, Abdulla Karimov va boshqa o'nlab mahalliy rahbar kadrlarning qismati mana shunday fojia bilan tugadi.

Mustabid tuzum hukmdorlari va ularning chaqqon dastyorlarning yeng shimarib qilgan "sa'y-harakatlari" natijasida 1937-1938-yillar davomida O'zbekistonda bir qator yirik aksilinqilobiy tuzilmalar tuzilgan, faoliyat yuritmoqda, degan soxta ma'lumotlar to'plandi. Mana shunday soxta ma'lumotlar asosida respublika rahbarlari A.Ikromov va F.Xo'jayev boshchiligidagi "Burjua-millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi", Abdurauf Qoriyev rahbar bo'lgan "Musulmon ruhoniylarning millatchi-isyonkor tashkiloti", "Aksilinqilobiy o'ng trotskiychi josuslar tashkiloti markazi", "Buxoro va Turkiston baxt-saodati" nomli aksilinqilobiy tashkiloti, I.Ortiqov boshliq Yoshlarning aksilinqilobiy burjua-millatchilik tashkiloti", "Ingliz josuslik rezidenturasi", "Yapon josuslik-qo'poruvchilik rezidenturasi" kabi tashkilotlar Sovet hokimiyatiga qarshi faoliyat yuritmoqda deb e'lon qilindi, ularni tuzishda gumon qilinganlar qatag'on qilindi.

Eng so'nggi ma'lumotlar, tarixiy hujjatlarni har tomonlama o'rganish, tahlil qilishlar, surishtirishlar bunday tashkilotlarning respublikada umuman bo'lmaganligini to'la tasdiqlamoqda. Demak, bunday aksilinqilobiy tashkilotlar qatag'on tuzumi buyurtmasi asosida Markaz va uning jazo organlari tomonidan atayin to'qib chiqarilgan va hayotga izchil tatbiq etilgan. Buning orqasida ming-minglab begunoh insonlar shafqatsiz jazolangan, umrlari xazon bo'lgan. XX asr boshidan 40-yillargacha 450 ming vatandoshlarimizga nisbatan "jinoiy ish" ochilganligi, ularning hayoti ostin-ustun bo'lib ketganligi faktdir.

Faqat 1937-1939- yillarda O'zbekistonda hammasi bo'lib 43 mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan. Ulardan 6 ming 920 nafari otib tashlangan. 37 ming nafari esa turli muddatga qamoq va surgunlarga hukm etilgan.

Mustabid tuzum jallodlarining bu bedodligini hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Yaqin milliy tariximizning bu qorong'u zulmati xalqimiz dilida mangu o'chmas armon bo'lib qoldi. U faqat milliy istiqbol tufayligina to'la yuzaga chiqib, bundan yurtimiz fuqarolari chinakam ro'shnolik ko'rish baxtiga musharraf bo'ldilar.

Stalincha siyosiy qatag'ondan jamiyatning sog'lom kuchlari, milliy ziyolilar eng ko'p aziyat chekdi, mislsiz qurbonlar berdi. Negaki, totalitar rejim mutasaddilari o'zlari jaholatparast kimsalar bo'lganligidan, ilm-u ma'rifat, ziyo ahlini qadrlash, e'zozlash o'rniga ularni xo'rlash, tahqirlash, kerak bo'lsa, yo'q qilishni o'zlariga kasb qilib olgandilar. Masalan, butun hayoti va ijodini millat baxt-saodati, yurt istiqboli uchun bag'ishlagan Munavvar qori shu davrda avj olgan sovetlar ig'vosi va bo'htonining aybsiz qurboni bo'ldi. Uning rahnamoligida millat ravnaqi va istiqbolli yo'lida faoliyat yuritgan,

xalqqa ziyo taratib kelgan “Milliy istiqlol” tashkilotining 87 a’zosi ustidan sud uyushtirildi. Ularning 49 nafari “Xalq dushmani”, “burjua millatchisi” degan ayblar bilan qoralanib, og‘ir jazolarga hukm qilindi.

O‘zbek adabiyotining ustunlari bo‘lgan, noyob ijodlari xalq mehrini qozongan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir, Mahmud Botu (Xodiyev), Elbek (Mashriq Yunusov), G‘ozi Yunus kabi ajoyib iste’dodlar quruq bo‘hton-u tuhmatlar asosida “xalq dushmanlari” sifatida jismonan yo‘q qilinib, yorqin faoliyati so‘ndirildi.

Masalan, ulardan biri-professor G‘ozi Olim Yunusovni oladigan bo‘lsak, u 50 dan ziyod asarlar muallifi edi. Arab, fors, nemis, ingliz va barcha turkiy tillarni puxta bilardi. U hatto rus, arab va nemis tillarida Samarqand universiteti, Toshkent pedagogika instituti hamda Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot institutida umumiy tilshunoslik va til bilimiga kirish kabi maxsus kurslardan ma’ruzalar o‘qirdi. Biroq bunday iste’dodlar qatag‘on jallodlari uchun sariq chaqalik qadr-qimmatga ega bo‘lmagan. Mustabid tuzum farmonbardorlari, ayniqsa, bunda o‘zbek xalqining milliy ongi, tafakkurini yoritish, uning o‘zligini tanitishga fidoyilik qilgan, jadidizm namoyandalarini yo‘q qilishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Ming afsuslar bo‘lsinki, bunga erishdilar ham. O‘zbekiston hukumatining tashabbusi va sa’y-harakati bilan 20-yillarda xorijga o‘qishga yuborilib, yaxshi mutaxassislar, fan arboblari bo‘lib yetishgan kishilar atayin qatag‘on qurbonlari bo‘ldilar. Agar Germaniya yoki Turkiyada ta’lim olgan bo‘lsalar ularga o‘sha mamlakatlarning josuslari degan ayb qo‘yildi. Buning uchun ularning uyida tintuv paytida chet elda bosilgan kitob topilguday bo‘lsa, shuning o‘zi yetarli dalil edi. Axir ular chet el oliy o‘quv yurtlarida o‘qigan bo‘lsalar, ularda shunday kitoblar bo‘lishi tabiiy edi. Masalaning bunday mantiqiy jihatlari chalasavod jazo organlari vakillarini qiziqitirmagan. Xorijda ta’lim olib, professorlik unvoniga sazovor bo‘lgan Ahmadjon Ibrohimov, Majid Ibrohim, Ibrohim Yorqin, Tohir Shokir, Abduvahob Ishoq, Saida Shermuhammad qizi, Sattor Jabbor, Otajon Hoshim va boshqalar o‘sha davrlarda millat faxri bo‘lganlar. Ularga ham “xalq dushmani”, “chet el josusi” qabilidagi tavqi la’nat tamg‘asi bosilib, qatl etildilar.

Bu davrda insonni qoralash, uning peshonasiga “xalq dushmani” tamg‘asini bosish tuzum zolimlari uchun xuddi “xamirdan qil sug‘urganday” gap bo‘lgan. Hatto shunday hollarga duch kelindiki, respublikadagi ko‘p xonadonlarda vaqti-vaqti bilan o‘tkazilgan tintuv paytida mabodo arab yozuvida bosilgan biror kitob topilguday bo‘lsa, uning nomi, mazmuni so‘rab, surishtirilmasdan o‘sha xonadon sohibiga jamiyatga yot unsur degan la’nat tamg‘asi bosilib, u qamoq yoki surgun jazosiga hukm etilgan.

Shunday qilib, stalincha qatag‘on respublikamiz hayotining barcha sohalari uchun qonli fojialar, beadam yo‘qotishlar bilan to‘lib toshgan davr bo‘ldi. U millionlab odamlarning taqdir-qismatida asoratli iz qoldirdi va mislsiz xunuk oqibatlarni yuzaga keltirdi. Shunga qaramay, xalqimiz bukilmas irodasini, matonatini namoyon etib, yorug‘, charog‘on kunlar kelishiga intilib, kurashib yashadi. U stalincha har qanday shiddatiga dosh berib, o‘z asriy qadriyatlarini, udumlari, rasm-rusumlarini saqlab, imon-e’tiqodiga sodiq qoldi va hamisha milliy istiqlol sari dadil harakatlanishda davom etdi.

Qariyb 130 yillik mustamlakachilik yillarida turli sohalarda qilingan juda ham yomon ishlar va hodisalar turli shakllarda yuz bergan. Qatag'onlar, mahv etishlar, otib tashlashlar xalq ruhiyatini sindirdi. Odamlar bu mislsiz qirg'inlar natijasida bir umr tahlika va qo'rquv bilan yashadi. Ana shu hadiksirash millat hayotini zaharladi. Turmush lazzatini, yashash zavqini zaqqumga aylantirdi. Qo'lga kiritilgan mustaqillik ana shunday iztiroblarga, qon yutishlar iskanjasida qolgan xalqimiz qalbiga nur, umidlariga qanot, dardlariga malham bo'ldi.

Butun borlig'idan, ma'naviy bisotidan judo qilingan xalq erkinlik tufayli katta tashnalik bilan o'z tarixini bilishga intilmoqda. Sho'ro hukumati davrida ongli ravishda madaniy boyliklarimiz yo'q qilingan.

Biz, milliy istiqlol davri kishilari jonajon yurtimiz ozodligi va mustaqilligi yo'lida kurashib, Stalincha qatag'on qurbonlari bo'lgan aziz insonlar xotirasini doimo qalbimizda saqlamog'imiz kerak. Bu har birimiz uchun farz-u qarzdir. Yurtboshimizning 2001-yil 1-maydagi farmoni bilan har yili 3-avgust kunini "Qatag'on qurbonlari" xotirasini nishonlash kuni deb e'lon qilinganligi g'oyatda quvonarlidir. Bu hozirgi avlodning shahid ketganlar xotirasi oldidagi ehtiromining umumxalq e'tirofidir.

Abdulla Qodiriy



Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkentda bog'bon oilasida tug'ilgan.

Otasi Qodirmuhammad Eski Jo'va mahallasi Xo'ja ko'chasida yashovchi Hojimuhammad boboning 1822-yilda tug'ilgan ikkinchi o'g'li edi. Hojimuhammadning Toshmuhammad hamda Xayriniso ismli o'g'il va qizi ham bo'lgan. Qodirmuhammad baquvvat, serg'ayrat, shijoatli va dunyo ko'rgan kishi bo'lib, yigitlik chog'larida xon va beklar qo'lida sarboz bo'lgan. U Eski Jo'va bozorida baqqollik do'koni ochib, ipak, idish-tovoq, choy kabi mollar bilan savdo qilgan. Tijorat vaji bilan uzoq shahar-mamlakatlarga safar qilgan. Qodirmuhammad 1870-yilgacha savdoda, keyin Samarqand darvoza Eshonguzar mahallasidan yer olib bog'bonlik bilan shug'ullangan. To'rt marta uylangan. Bunga farzandsizlik vaji sabab bo'lgan. Qodirmuhammad to'rtinchi bor 50 yoshlar atrofida 15-16 yashar Josiyat bibiga uylangan. Ular 1879-yilda o'g'il ko'rib Rahimberdi deb ism qo'yganlar. Ammo undan keyingi tug'ilgan o'n ikki farzand sababsiz nobud bo'lgan. Bu holdan irim qilgan Qodirmuhammad oilasi Eski Jo'vadagi hovlisini sotib Samarqand darvoza Eshonguzar mahallasidagi yeriga ko'chib o'tadi va o'sha yerda yashay boshlaydilar. Mana shu maskanda Abdulla Qodiriy dunyoga kelgan. Undan so'ng 1897-yilda Qodiriyning ukasi Qudratilla tug'ilgan. Qodirmuhammad uzoq umr ko'rib 1924-yil 5-aprelda 103 yoshda vafot etgan.

Akasi Rahimberdi Robiya ismli qiz bilan oila qurib oddiy hayot kechirgan. Rahimberdi duradgorlik kasbini egallagan. Abdulla Qodiriy akasidan toqi yo'nishni o'rgangan. U

1963-yilda vafot etgan. Ukasi Qudratilla 1897-yilda tugʻilgan. Abdulla Qodiriy yoshligida bolalarcha shoʻx boʻlgan. Uning bolaligi Eshonguzar mahallasida oʻtgan.

Maʼlumoti Qodirmuhammadning ilmi boʻlmasa-da, farzandlarining taʼlim olishiga katta eʼtibor bergan. U: “Oʻzimni xatim yoʻq-da, boʻlmasa hammangni barmogʻimda oʻynatardim”, degan soʻzlarni koʻp takrorlagan. Bogʻda mehnatning koʻpligiga qaramay oʻgʻli Abdullani maktabga bergan. Akasi Rahimberdining esa oʻqishga unchalar qiziqishi boʻlmagan. Abdulla Qodiriy dastlab 1904–1906-yillarda musulmon maktabda taʼlim olgan. Dastlabki savodini Zangi ota mahallasidagi mulla Olim va mulla Ziyo domlalaridan olgan. Qodirmuhammadning uch oʻgʻli ham shu domlalar qoʻlida oʻqigan. Qodiriy ushbu muallimlardan tashqari Mirlar mahallasidagi Yusufxon domla va Chorsuga yaqin joyda joylashgan mulla Gʻulom ismli muallimlardan taʼlim olgan. Soʻng 1908–1912-yillarda Abdulla Qodiriy rus-tuzem maktabida oʻqigan. Bu maktab Samarqand darvoza mahallasidagi Akrom savdogarning tashqi hovlisida joylashgan boʻlib, “7-son rusko-tuzemnaya shkola” deb atalgan. U Toshkent shahridagi Abulqosim shayx madrasasida 1916-1917-yillarda arab va fors tillaridan tahsil olib sarf va nahvni yaxshi oʻrgangan. Taʼlim bilan birga jadidchilik harakati namoyandalariga fikrdosh boʻlib, milliy matbuotda oʻz ijodi namunalarini nashr etgan. Ilmini oshirish va jahon adabiyoti bilan tanishish uchun 1924–1925-yillarda Toshkent Vaqf shoʻbasining koʻmagida Moskvadagi Valeriy Bryusov nomi bilan ochilgan adabiyot institutida oʻqigan.

Faoliyati Oiladagi iqtisodiy yetishmovchilik bois Abdulla Qodiriy 12 yoshidan bir boyning xizmatiga kirib ishlaydi. Rus-tuzem maktabini tamomlagach bir muddat ishsiz yurgan. U 17–18 yoshlarida Chorsu bozorida savdo bilan shugʻullanuvchi Rasulmuhammadboyga prikazchilikka yollanib, uch-toʻrt yil ishlagan. Prikazchilikda 1915-yilga qadar ishlagandan soʻng, savdogarning ishi orqaga ketib uyga qaytishga majbur boʻladi. Bu vaqtda u akasi bilan toqichilik qilib, kunbay ishlarda hamda uyida bogʻbonlik bilan mashgʻul boʻlgan.

Rossiya imperiyasi tuzumi tugatilib, 1917-yil fevral va oktabr voqealaridan keyin uning hayotida ham, ijodida ham oʻzgarishlar roʻy berdi. Hukumatga ishga kirib Toshkent eski shahar ozuqa qoʻmitasining sarkotibi (1918), “Oziq ishlari” gazetasining muharriri (1919), Kasabalar shoʻrosining sarkotibi (1920) va boshqa sovet idoralarida ishladi. “Ishtirokiyun” va “Qizil bayroq” gazetalarida adabiy xodim boʻlib faoliyat yuritdi. “Mushtum” jurnali tashkilotchilaridan va tahrir hayʼati aʼzosi (1923-26) boʻlim ushbu jurnal va gazetalarda oʻz maqolalarini nashr ettiradi.

Ilmiy-adabiy merosi Abdulla Qodiriy ijodi 1913-1914-yillarda boshlandi. U shu yillari barcha ilgʻor fikrli yoshlar qatori jadidchilik harakatiga qoʻshilgan va oʻzining ilk asarlarida maʼrifat, millat taraqqiyoti va hurligi gʻoyalarini targʻib eta boshlagan. Qodiriy dastlab maʼrifiy sheʼrlar yozdi. 1914-yilda “Ahvolimiz”, “Millatimiz”, “Toʻy” kabi sheʼrlari jadid matbuotida eʼlon qilinadi. 1915-yili u Behbudiyning “Padarkush” fojiasi taʼsirida “Baxtsiz kuyov” pyesasini yozadi. Soʻng oʻzi “milliy roʻmon” deb atagan “Juvonboz” hikoyasini yaratadi. Bu asarlar ham avvalo maʼrifatparvarlik qarashlari mahsuli boʻlib, jamiyatdagi chirkin illatlar va qoloq urf-odatlarini keskin tanqid qilishga

yo'naltirilgan. Abdulla Qodiriy — Alimov, Julqunboy, Shoshiy, Boyqush, Dumbulboy, Dumbulboy jiyani, Dumbuldevona, Dumbulnisa, Dumbulboy o'g'li, J-boy, Jarqinboy, Jiyan, Jiyaningiz Mushtum, Indamas So'fi, Yo'lovchi, Kalvak mahzum jiyani, Kalvak mahzum shoshiy, Kampir, Karnaychi, Kolxozchi, Lakalang mahzum, Mavlonkufir, Mulla Julqunboy, Mushtum, Ovsar, Saniyxudo, Chin do'st, Chirmandabotir, Chi chora, Shapaloqmahzum, Shilg'ay, A.Q, U-boy kabi o'ttizdan ortiq taxalluslar bilan ijod qilgan. 1919-1920-yillarda "O'tgan kunlar" romanini yozib tugallab, 1926-yilda to'la nashrini e'lon qiladi. Bu to'laqonli realistik ilk o'zbek romani bo'lib, Qodiriyning jadidona siyosiy qarashlari yuksak badiiy ifodasini topgan asar edi. 1928-yili yozuvchi "Mehrobdan chayon" romanini e'lon qildi. 1934-yilda esa "Obid ketmon" qissasini yozadi.

Uning ko'plab she'r, maqola va hikoyalari "Sadoyi Turkiston", "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Turkiston" gazetalari, "Oyna", "Inqilob", "Mushtum" jurnallarida nashr etilgan. Tarjimonlik sohasi 1925-yilda tatar fizik olimi Abdulla Shunosiyning "Fizika", 1935-yilda N. V. Gogolning "Uylanish", 1936-yilda A. P. Chexovning "Olchazor" asarlarini o'zbekchaga tarjima qildi.

Oilasi Abdulla Qodiriy 1914-yil Rahbarnisa Rasulmuhammadboy qiziga uylanadi. Ulardan Nazifa (1916), Habibulla (1918), Adiba (1924), Mas'ud (1926) hamda Anisa (1928) ismli farzandlar dunyoga keladi. Abdulla Qodiriyning ayoli Rahbarnisa 1943-yil 6-martda vafot etgan.

Qizi Nazifa Eski Jo'va Tinchob mahallasida yashovchi Muhammad Aminbek ismli kishi bilan turmush qurgan. Farzona ismli qizlari bo'lgan.

O'g'li Habibulla 1919-yili tug'ilgan. 1945-yil 29-mayda qamoqqa olinib 10-yil muddatga hukm qilingan. U 1955-yilda qamoqdan chiqqan. So'ng o'qishini tiklab 1962-yilda Toshkent davlat tibbiyot institutini tamomlagan. Shifokor bo'lib xizmat qilgan. Adabiy faoliyatini 1958-yildan boshlagan. "Nilufar" hikoyalar to'plami (1964), "Afrikaga sayohat" (1966), "Yaman-Misr taassurotlari" (1967) safar ocherklari, "Otam haqida" xotira kitobi (1974), "Qora arab" hikoyalar to'plami (1978) chop etilgan. Habibullo Qodiriy 1987-yili vafot etgan.

Ikkinchi o'g'li Mas'ud Abdullayev ham Toshkent davlat tibbiyot institutida o'qigan. Shifokor bo'lib ishlagan. O'zbekiston Mustaqilligini ko'rib 1996-yilda vafot etgan.

Qodirmuhammad otadan Abdulla Qodiriyga qolgan Samarqand darvozadagi hovli bog' shiyponi 1945-yili Arpapoya ko'chasidagi 1-sonli bolalar uyi tasarrufiga o'tkazilgan. 1949-yilda esa yilqichilik arteliga berilgan. Hovli bog' shiyponi 1958-yildagina Abdulla Qodiriy avlodlariga qaytarilgan. Bugungi kunda Habibulla Qodiriyning katta o'g'li Xondamir Qodiriy (1957-yil tug'ilgan) tomonida ushbu uy hovli va muzey faoliyati olib borilmoqda.

Qatag'on Abdulla Qodiriy 1926-yilda "Mushtum"da bosilgan "Yig'indi gaplar" maqolasi tufayli qisqa muddat qamalgan. Uni "O'rta Osiyo "Davlat siyosiy boshqarmasi" (DSB)ning xodimi Kurmanov tomonidan 1926-yil 8-martda hibsga olingan. Abdulla

Qodiriyning uyida 1926-yil 8-martdagi DSBning 32-orderiga asosan tintuv o'tkazilib, tintuv o'tkazishda Shotursun Shosaidov, Muhamedov, Teregulov hamda Abdulla Qodiriyning o'zi ishtirok etgan.

BDSBga olib ketish uchun Abdulla Qodiriy uyidan quyidagi hujjatlar musodara qilindi: Musulmon tilidagi har xil yozishmalar bir yuz qirq ikki (142) varaq, Uch kitob: "Baxtsiz kuyov", "Juvonboz" (Abdulla Qodiriyning o'zbek tilidagi asarlari), Yusuf Oqchurinning turk tilidagi "Yevropada ijtimoiy-siyosiy qarashlar" asari.

Shundan so'ng tergov organlari ish boshladi. Sud organlari tomonidan Abdulla Qodiriy shaxsi sinchiklab o'rganila bordi. Qamoqqa olinganiga qaramay tergovga chaqirilmay qamoqxonada yotadi. Shu bois Abdulla Qodiriy 1926-yilning 22- martida DSB komendantiga ariza bilan murojaat qiladi. Unda: "Shu yilning 8 martida hibsga olindim va hanuzgacha nazorat ostida qamoqda saqlanib kelinmoqdaman. Haligacha so'roqqa chaqirilganim yo'q. Umuman, ne gunohlarim uchun ayblanayotganligim men uchun qorong'u. Zarracha bo'lsa-da, o'zimni qora sezayotganim yo'q, shunday bo'lsa-da, mening ishim kimda ekanligini aniqlab, zudlik bilan tergovga chaqirishlaringizni so'rayman. Aks holda, o'zimni qurbon qilsam-da, 24-martdan boshlab ochlik e'lon qilaman", deb yozgan edi.

Qodiriyning arizasi inobatga olinib, so'roqqa chaqiriladi. Tergovda u o'zi haqidagi bor haqiqatni aytadi. So'rov 1926-yilning 24-martida DSBning maxsus bo'limi vakili Agidullin tomonidan olib borilgan. Qodiriyga tergov jarayonidan anglashila boradiki, unga qarshi qo'zg'alayotgan aybnomaga asos bo'lgan ashyoviy dalil "Mushtum" jurnalida e'lon qilingan "Yig'indi gaplar" maqolasi edi. Ish shu tariqa jiddiy tus ola boradi. Tergovchilar har bir mayda "material"larigacha ahamiyat berib sinchkovlik bilan aybnomalarni to'ldirib borib, ishga doir hujjatlar kundan-kun ko'payib borgan.

Dastlab uning aybnomasiga "Abdulla Qodirov "Mushtum" jurnalining muharrir yordamchisi lavozimida ishlagan paytda, o'z vazifasidan foydalangani holda muharrirning qat'iy taqiqiga qaramay jurnalning 27-sonida "Yig'indi gaplar" maqolasini bostirgan. Mohiyati jihatidan mazkur maqola ochiqdan-ochiq O'zbekiston hukumati va Kompartiyasining rahbarlarini obro'sizlantirish hamda shu bilan birga Kommunistik partiyaning muhim tadbirlarini tanqid qilish va masxara qilish ruhi bilan yozilgan. Muallif shubhasiz bu maqolani aksilinqilobiy maqsadlarda foydalanish uchun keng yoyishga uringan" deb yoziladi.

Ushbu qo'yilgan ayb uchun O'zbekiston SSR Jinoyat protsessual kodeksining 72 va 105-moddasining 1-bandiga bo'yicha ish ko'riladi. Bu protokolni DSBning tergovchilari Agidullin va Belskiylar tomonidan tuzilgan edi. A.Qodiriyga ushbu aybnoma 1926-yilning 24-martida tanishtiriladi. Ammo Abdulla Qodiriy qo'yilgan ayblarga javoban "O'zimni aybdor deb tan olmayman" deya imzo chekkan.

Qodiriy ishi ustidan qo'shimcha dalillar to'planib 1926-yil 3-aprelda O'zSSR Jinoyat kodeksining 116-moddasiga binoan 128, 129, 142-moddalarga amal qilingan holda ishi

ko‘rib chiqish ko‘zda tutiladi. Bu gal ham Qodiriy aybdor emasligini bildirgan holda aybnomaga imzo chekib bergan.

Onasi Josiya bibining 1926-yil 2-aprelda yozgan o‘g‘li bilan ko‘rishish va kafillikka olishga ruxsat so‘rab qilgan iltimosnomasi shu yilning 13-aprelidagina ko‘riladi. Biroq Toshkent viloyat sudining keyingi majlisdagi xulosasidagina javob berilishi ma‘lum qilinadi.

O‘zbekiston Davlat prokurori Nazarovning buyrug‘iga binoan mahbus Abdulla Qodirov 8-iyunda soqchi nazorati ostida Samarqandga keltirilgan. Nihoyat, ham ruhan, ham jisman horigan adibni tergov qilish tugay boradi. Sabr kosasi to‘lgan Qodiriy o‘ziga qo‘yilgan aybnomalarni bo‘yniga olar ekan, bu holni shaxsiy adovatdan boshqa narsa emasligini bildiradi.

Abdulla Qodiriyning 1926-yil 8-martda qamoqqa olinishi bilan bog‘liq sud ishining yakuni uch kun (15-17-iyun) davom etadi. O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi maxsus majlis chaqirib Markaziy ijroiya qo‘mitasining Samarqand shahrida 1926-yil 17-iyundagi yig‘ilishida rayosat a‘zolari Oxunboboyev, Bikson, G‘oziyev, Volik, Ikromov, Ivanov, Qosimxo‘jayev, Rahimiy, Mavlonbekov, Strogonov, Cheloguzov ishtirok etadi. Shu bilan birga, muassasalardan: Oliy sud Qosimov, rais: Qosimxo‘jayev, kotib: Rahimiy qatnashdilar.

Unda “O‘zbekiston SSR Oliy sudi 1926-yil 15-16-iyunda sud qilinib, ikki yilga ozodlikdan mahrum etilgan Abdulla Qodiriyning qamoq muddatini o‘tamasdan ozod qilib yuborilishini so‘raydi” deb qaror qilinadi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston SSR Oliy sudining iltimosi qondirilib, Ikki yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan Abdulla Qodiriy qamoq muddatini o‘tamasdan ozod qilinadi. Oliy sud raisi Qodiriy qamoqdan ozod qilish haqida buyruq tayyorlaydi. O‘zSSR Oliy sudi, sud kollegiyasining 1926-yil 17-iyundagi 1895-raqamli shoshilinch buyrug‘i chiqarilgan.

O‘zSSR MIK Prezidiumi afvi bilan 1926-yilning 16 iyunida sudlangan mahbus Abdulla Qodiriy 17 iyun soat 15.00 da ozod etilgan.

Abdulla Qodiriy ikkinchi bor 1937-yilning 31-dekabrida “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olinib, 1938-yil 4-oktabrda Toshkent shahrida otib tashlangan. Uning asarlari ham qatag‘onidan keyin qattiq ta‘qibga olindi. “Obid ketmon” qissasi bolshevik mafkurachilariga ma‘qul kelmaydi, keskin tanqidga uchraydi; “g‘oyaviy buzuvchiliklar va xatolar”ga to‘la, “siyosiy tuturiqsiz” asar sifatida baholandi. Yozuvchining tarixiy romanlari esa asosiy ma‘nosi — millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg‘usi, mustaqilligi, shaxs erki, ijtimoiy adolat uchun kurash g‘oyalari bilan yo‘g‘rilganligi tufayli ham hukmron mafkuraga zid asarlar bo‘lib chiqdi. Millat ruhini yorqin aks ettirgan, kitobxonlarning sevimli asarlariga aylangan bu romanlar sho‘ro davri siyosati uchun zararli kitoblar sifatida keskin qoralandi. Hattoki uning asarlarini o‘qigan kishilar ham qatag‘on etildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Abdulla Qodiriy Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991), "Mustaqillik" ordeni bilan taqdirlandi (1994). Abdulla Qodiriy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta'sis etilgan. Toshkent madaniyat institutiga, Toshkentdagi madaniyat va istirohat bog'iga, katta ko'chalardan biriga, respublikamizdagi ko'plab madaniyat muassasalariga uning nomi berilgan. "O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari asosida kinofilmlar (1969, 1973, 1996,) va ko'p seriyali telefilmlar yaratilgan. Adib sharafiga 2018-yilda Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi va muzeyi ochildi.

Abdulla Qodiriy асарлари

„Mehrobdan chayon“ romani

Abdulla Qodiriy ikkinchi yirik asari „Mehrobdan chayon“ni 1928-yil fevralda yozib tugatdi. Roman 1929-yil Samarqandda bosilib chiqdi. Garchi bu roman mavzui ham XIX adabiyot hodisalari – „xon zamonlari“ davridagi o'zboshimchaliklarni ko'rsatishga qaratilgan bo'lsada, unda roman yozilgan davr ruhi kuchli. Asarni „Mehrobdan chayon“ deb atash, ziyoli ulamolarni qahramon qilib tanlashdan murod muqaddas dargoh – sajdagohdan chiqqan, o'sha dargohga nomunosib munofiq, qallob, tuban kimsalarga, hasadgo'y, e'tiqodsiz kishilarga ishoradir. Romanda Anvar bilan Ra'noning sevgi sarguzashti, qalb nazokati shoirona tarannum etilgan. Maktabdor Solih mahdumning yumoristik obrazi adabiyotshunoslikda yozuvchining jiddiy yutug'i, kashfiyoti sifatida e'tirof qilingan.

„O'tkan kunlar“ romanining ma'no mundarija doirasi

„O'tkan kunlar“ romanining ma'no mundarija doirasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdir, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviyishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Binobarin el-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi romanning asosini tashkil etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli, faravonligi, osoyishtaligi yo'liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilardir. „O'tkan kunlar“ bamisoli ulkan va tiniq ko'zgu, unda o'zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlar, ruhiy-ma'naviy dunyosi, bo'y-basti, qiyofasi keng ko'lamda aniq-ravshan gavdalanitirilgan. „O'tkan kunlar“, bir qarashda, an'anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi.

Abdulhamid Cho'lpon



Cho'lponning iqtidori noyob, iste'dodi o'tkir, ilhomli xayol singari edi. Biroq u o'z ijodiy imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqara olmagan. Shoir ko'zi ko'rgan, ko'ngli tuygan, iqtidori pishitgan durdona asarlarini qog'ozga ko'chirishga ulgurmay, armon bilan dunyodan o'tgan. Cho'lpon shaxsga sig'inish hukmronlik qilgan qaltis davrda, ayni kuchga to'lgan va ijodiy kamolotga yetgan chog'i qirq yoshida «xalq dushmani» sifatida qamoqqa olingan va 1938-yili qatl etilgan. 1956-yilda Cho'lpon

nomi oqlandi. Biroq bu holat uni ijodkor sifatida o'qisho'rganish imkonini bermadi. Faqat istiqloлга erishilganidan so'nggina uning ijodi o'zining asl bahosini oldi, qadrini topdi. Natijada, Cho'lponning «Yana oldim sozimni» (she'rlar), «Kecha va kunduz» (roman), «Yorqinoy» (pyesa) kabi bir qancha ajoyib asarlari qayta nashr etildi. Cho'lponning hayoti va ijodi haqida Ozod Sharafiddinov, Nairn Karimov, D. Quronov, Z. Eshonova, N. Yo'ldoshev kabi olimlarning bir qancha tadqiqotlari yaratildi.

Avvalo shuni qayd etish lozimki, Cho'lpon ijodi 20-yillardayoq ko'pchilikning diqqatini o'ziga jalb etgan. Cho'lpon she'riyatiga birinchi bo'lib o'z davrining taniqli munaqqidi Vadud Mahmud yuqori baho bergan. U shoirning «Buloqlar» to'plami haqidagi taqrizida: «Bu kun o'zbek adabiyotiga yana yangi bir to'n kiygizildi, Cho'lponning «Buloqlar» otliq yangi bir she'rlar to'plami bosilib chiqdi. Cho'lpon o'zbekning yangi shoiridir. Shuning uchun o'zbek elining bu kungi ruhi, holi, sevgisi «Buloqlar»da qaynaydir. O'zbek tili, o'zbek ohangi «Buloqlar»da sayraydir. O'zbekning ruhi to'lqunlari bunda ko'piradir, ko'klar tomon uchadir, ko'tariladir» («Turkiston» gazetasi, 1924-yil, 10-dekabr), — deb yozgan edi

Bolaligi Abdulhamid Cho'lpon 1897-yili Andijonning «Qatortarak» (hozirgi Navoiy shohko'chasi) mahallasida o'ziga to'q oilada dunyoga kelgan. Onasi Oysha aya o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotining jonli xazinasi edi. Abdulhamid ham barcha dahosan'atkorlar kabi so'z san'atiga muhabbatni onasi aytgan alla va ertaklardan olgan.

Oysha ayaning 14 farzandidan faqatgina, 4 tasi omon qolib, qolganlari go'daklik chog'idayoq vafot etgan. Abdulhamid to'ng'ich farzand bo'lgan, uning Komila (1902), Fozila (1905) va Foiqa (1908) ismli singillari bo'lgan.

Otasi Sulaymonqul Yunus o'g'li dehqonchilik, hunarmandchilik, keyinchalik bazzozlik bilan shug'ullangan ziyoli kishi bo'lib, Sharq mumtoz adabiyoti vakillari ijodidan bahra olgan, o'zi ham tasavvufona she'rlar yozgan. U o'sha davr adabiy muhitida «Rasvo» taxallusi bilan taniqli bo'lib, devon tartib etgan ijodkordir. Sulaymonqul asli O'sh shahri yaqinidagi Yorqishloqdan bo'lib, qishloqda ko'tarilgan to'polondan keyin Andijonga qochib kelgan va bu yerda yashab qolgan.

Ma'lumoti Abdulhamid xat-savodini chiqargach, Andijon va Toshkent madrasalarida qisqa vaqt tahsil ko'rgan. U Qur'oni Karimni, shariat qonunlarini o'rganish bilan birga arab, fors, turk tillarini o'rgangan. U keyinchalik ayrim she'rlarini usmonli turk tilida yozgan bo'lib, bu Cho'lpon iste'dodini namoyon etuvchi qirralardan biri sifatida diqqatga molikdir.

Ma'lumki, Cho'lponning talabalik yillari Turkistonda muhim ijtimoiy-siyosiy voqealarning boshlanish davriga to'g'ri kelgan. Bu davrda Rossiya turkiy xalqlarga o'z ta'sirini o'tkazgan, yerli aholi o'rtasida rus tilini o'rganishga qiziqish tobora kuchaya borayotgan edi. Davr oqimini his qilgan yosh Abdulhamid fikrlarida ham o'zgarishlar paydo bo'lgan. U taqvodor mudarris bo'lishning o'zi yetarli emasligini tushungan. Madrasada o'qib yurgan vaqtida tasodifan bir kishi bilan hamsuhbat bo'lgan. Asli

Istanbuldagi panturkistlar markazidan bo'lgan bu kishi yosh Abdulhamid fikrlarini o'zgartirib yuborgan.

1933-yili Cho'lpon ana shu inson haqidagi xotiralarini rus yozuvchisi V.Yanga so'zlab bergan, u esa bu suhbatini yozib olgan. Adabiyotshunos Naim Karimov "Cho'lpon" risolasida shu xotiradan parcha keltiradi: "U Istanbuldagi panturkistlar markazidan panturkistlar va panislomistlar ta'limotini tarqatish uchun to'xtagan bir guruh edi. U meni turli-tuman muammolar bilan birinchi marta tanishtirib, menda siyosiy va adabiy ishga qizg'in havas uyg'otgan. Men Qur'onni yodlashdan iborat saboqlardan so'ng hamma narsani unutib, ko'chaga yugurar va yangi ro'znomalarni sotib olar edim. Ammo mudarrislik qilish o'rniga men milliy o'zbek yozuvchisi bo'lishga ahd qildim...". Shundan keyin u Andijondagi rus-tuzem maktabida o'qishni davom ettirgan, dunyoviy fanlar bilan tanishgan.

XX asr boshlarida Turkistonda tarqalgan rōznomalar bu davr yoshlarining ijtimoiy-ma'naviy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, 1905-yilgi birinchi rus inqilobi, qolaversa, Eron va Turkiyada amalga oshgan inqilobiy to'ntarishlar uyqudagi mazlum Turkistonga ham yetib kelgan. Shuningdek, 1905-yili Turkiyada yuz bergan voqealar ta'siri sezilarli bo'lgan. O'rta Osiyo deb atalayotgan mintaqaning turli nuqtalarida jadidchilik harakati boshlanib ketgan. Bu harakatning Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori kabi faollarining da'vatlari hayotni yangicha qiyofalarda ko'rishga ishtiyoqmand yoshlarni o'ziga tortgan.

Cho'lpon bu haqda shunday deydi: "O'shanda biz, yosh o'zbek yozuvchilarining hammasi Fitrat ta'sirida edik, u o'zbek she'r tuzilishining islohotchisi sifatida eski arabiy-forsiy shakllar va shablonlardan xoli bo'lib, jonli, real xalq tilida yoza boshlagan edi".

Fitratning Istanbulda tahsil olganligi va uning turk inqilobchilari bilan aloqasi mustahkam bo'lganligini hisobga olsak, uning panturkizm (turkiyparastlik) g'oyalarini yoshlarga singdirganligini payqash unchalik qiyin bo'lmaydi. Bu, eng avvalo, badiiy ijodda yangicha she'riy shakllarga intilishda sezilgan. Qolaversa, milliy istiqlol tuyg'ularini aks ettirish g'oyalari ham sekin-asta sezilarli tus ola boshlagan.

Mehnat faoliyati Cho'lpon o'z ijodiy faoliyatini 1912-1913-yillardan boshlagan. Uning ilk asarlari "Turkiston viloyatining gazetasi", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" ro'znomalari hamda "Sho'ro", "Oyina" oynomalarida chop etilgan bo'lib, bularda, asosan, ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'ib etilgan, shu bilan birga, ikki tomonlama ezilayotgan xalqni aniq va haqqoniy tasvirlarda ifodalashga harakat qilingan.

Cho'lpon ijodi davr bilan hamnafas bo'lgan. Ayniqsa, 1916-yili keyin u yaratgan publitsistik maqola, she'r va nasriy asarlarda ijtimoiy-siyosiy mavzular yetakchilik qilgan. Uning Fitrat muharrirlik qilgan "Hurriyat" (1917) ro'znomasida chop etilgan maqolalari hozirjavob mavzuga bag'ishlanganligi bilan ajralib turgan.

Cho'lpon 1917–1919-yillar oralig'ida Ubaydullaxo'ja, Mirmuhsin Fikriy va Abdulhamid Orif o'g'li bilan birga Orenburg shahriga borgan. U Boshqirdiston hukumati

raisining kotibi vazifasida ishlash bilan birga adabiy hayotda ham faol ishtirok etgan. U yerda nashr etiladigan “Sho‘ro” oynomasida turkiy xalqlarning ertangi kuni haqidagi publitsistik maqolalari chop etilgan. Cho‘lponning millat haqidagi fikrlari o‘sha davr boshqird ziyolilari diqqatini tortgan.

1918-yili Mannon Uyg‘ur boshliq teatr truppasi Toshkentdan Orenburg shahriga gastrolga borgan. Cho‘lpon Uyg‘ur, Abror Hidoyatovga o‘xshash teatr arboblari bilan uchrashgan, ular bilan ijodiy muloqotda bo‘lgan. Bu uchrashuv Cho‘lpon faoliyatida yangi sahifa ochgan. U o‘z hayotini teatr bilan chambarchas bog‘lagan.

Cho‘lpon 1919–1920-yillari Orenburg safaridai qaytib, Toshkentda yashay boshlagan. U bu davrda “Ishtirokiyun” ro‘znomasining faollaridan biri sifatida bir qator maqola, she‘r va ocherklari bilan qatnashgan.

Uning jurnalistik faoliyati ham mana shu yillarga to‘g‘ri keladi. 1919-yili Nazir To‘raqulov taklifi bilan Farg‘ona viloyatida chiqayotgan “Yangi Sharq” ro‘znomasiga ishga kelgan.

1921-yili Cho‘lpon Fitrat taklifi bilan “Axbori Buxoro” ro‘znomasiga xizmatga borgan. U ro‘znoma muharriri sifatida Fayzulla Xo‘jayev va Fitratning ilm, madaniyat, ijtimoiy-siyosiy hayot sohasidagi qarashlarini tashviq qilishda alohida jonbozlik ko‘rsatgan. Buxoro inqilobi bayroqdorlariga qarshi kurash avj olgach, Fitrat Moskvaga, Cho‘lpon esa Toshkentga ketishga majbur bo‘lganlar.

1923-yili u Andijonga kelgan va “Darxon” ro‘znomasida ishlay boshlagan. 1924-yili u yana Toshkentga ko‘chib kelib, teatr ishlari bilan shug‘ullangan. Shu yili teatr truppalarning 24 a‘zosi Moskvaga o‘z bilimlarini chuqurlashtirish uchun yuboriladi. Ular safida Cho‘lpon ham bor edi. U tarjimon va adabiy emakdosh sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

Ilmiy-adabiy merosi Shu yillarda o‘zbek aktyorlari tomonidan qo‘yilgan “Revizor” hamda “Malikayi Turandot” asarlarining tarjimoni Cho‘lpon bo‘lgan.

U Moskvada hammaslamlari Fitrat va Abdulhay Tojiyev bilan ko‘rishgan. Ularning iltimoslariga binoan bir qator asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Badiiy ijod bilan shug‘ullanish barobarida nemis tilini ham o‘rgana boshlagan. Uning bu tilni o‘rganishidan maqsadi Olmoniyada oliy bilim egasi bo‘lib qaytgan vatandoshlari bilan nemis tilida gaplashish bo‘lgan. Afsuski, xorijda tahsil ko‘rganlarning ko‘pchiligi josus sifatida gumon qilinib yo‘qotib yuborilganligi sababli, u o‘zining bu niyatiga yeta olmagan.

XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmiga kelib ziyolilarni taftish qilish, ularga siyosiy ayblar qo‘yish hollari kuchaygan. Ayniqsa, o‘z asarlarida Vatan va millat istiqboli haqida fikr yuritgan ijodkorlarga “millatchi”, “panturkist” va “panislamist” degan yorliqlar yopishtirila boshlangan.


Bunday tazyiq va ma’naviy kamsitishlar Cho‘lpon iste’dodini so‘ndira olmagan. U keyinroq 1935–1937-yillar ichida qilgan ishlari haqida gapirib, bunday degan: “Moskvadan kelganimga ikki yil bo‘ldi... Mana, ikki yil orasida men nima ish qildim?

“Ona”ning ikkinchi bo‘limini tarjima qildim. Bu to‘g‘rida hammadan maqtov eshitaman. Bu ham birinchi bo‘limcha keladi. Katta narsa. Undan keyin Gorkiyning “Yegor Bulichev”ini, A.S.Pushkinning “Dubrovskiy”, “Boris Godunov”ini tarjima qildim. “Jo‘r” degan she‘rlar to‘plamini topshirdim. Lohutiyning “Ovrupo safari”ni tarjima qildim. Undan tashqari, Eski shaharda chiqa turgan “Teatru” gazetasiga qatnashaman, undan keyin “Mushtum”da ishlayman, agar sizlar shuni ham kam desangiz, meni xalturaga tortgan bo‘lasiz”.

1931-yilga kelib Cho‘lpon ijodiga nisbatan ta‘qiblar kuchayib borgan. U Fayzulla Xo‘jayevning maslahati bilan 1932-yili Moskvaga ketgan. Oradan ikki yil o‘tgach, u yana Toshkentga qaytgan. Bu davrda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tashkil bo‘lgan, bir qator ijodkorlar uning safini to‘ldira borayotgan edi. Cho‘lpon ham shu uyushmaga kirish uchun ariza bergan. Lekin ariza e‘tiborsiz qoldirilgan. Cho‘lponga qarshi kurashayotgan yovuz kuchlar bu bilangina kifoyalanib qolmay, uning asarlarini chop etishga ham to‘g‘onoq bo‘lganlar. U shu munosabat bilan Akmal Ikromovga murojaat qilgan. Tayinli natija bo‘lmagan. Shundan keyin “zamonsozlikka” o‘tishni afzal ko‘rgan, kunning muhim masalalariga bag‘ishlangan tashviqiy ruh aniq sezilib turadigan she‘rlar yozgan. Lekin Cho‘lponning bu she‘rlari ham matbuot yuzini ko‘rmagan.

Cho‘lpon millatning peshqadam vakillari ustiga bostirib kelayotgan zo‘ravonlik mashinasi changalidan omon chiqa olmasligini tushunib yetgan. Andijondagi uyida saqlanayotgan qo‘lyozmalarini, o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ashyolarni Toshkentga olib ketgan. Oradan hech vaqt o‘tmay u NKVD xodimlari tomonidan qo‘lga olingan. 1938-yilning 4-oktabrida g‘ayriqonuniy ravishda qatl etilgan.

Abdurauf Fitrat



Abdurauf Fitrat 1886-yili Buxoro shahrida savdogar Abdurahimboy oilasida tug‘ilgan. Abdurahimboy zamonining o‘qimishli, dunyoning baland-pastidan xabardor kishisi bo‘lib, savdo ishlari bilan Turkiya, Eron, Koshg‘arga tez-tez borib turgan. Onasining ismi Bibijon (to‘liq ismi Nastarin Bibi) bo‘lib, taxminan 1866-yili tug‘ilgan. Oilada Abduraufdan tashqari yana ikki farzand – ukasi Abdurahmon va singlisi Mahbuba bor edi. 1920-yillarning faollaridan bo‘lgan, goho she‘r ham mashq qiladigan Mahbuba Rahim qizining nomi o‘quvchilarga bir qadar tanish. Abdurahmon esa 1910-yillarda Kogon bosmaxonasida harf teruvchi bo‘lib ishlagan.

Dastlab eski maktabda, so‘ng oliy ta‘lim olish uchun Mir Arab madrasasida o‘qigan. “Tarbiyai atfol” jamiyatining moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlashi bilan 1909–1913-yillarda Istanbulda tahsil olgan. Sadriddin Ayniy Fitrat hayotining ana shu davri to‘g‘risida shunday ma‘lumot beradi: “...*Bu davrning ochiq fikrli yoshlaridan biri Abdurauf Fitrat edi. Bu shaxs Buxoro talabalari ichida eng qobiliyatli va fozillaridan biri hisoblanar edi. Mirzo Abdulvohidning maktabiga ko‘p bormagan bo‘lsa-da, mudarris Abdulqodir*

mahdum vositasida “Siroj ul-mustaqim” jurnalini mutolaa qilishi natijasida fikri ancha ochilgan edi. U Istanbul shahariga (o‘qishga borish uchun) tayyorgarlik ko‘radi. Bir bahona bilan Buxoro (amirligi) viloyatlariga sayohat qilib, ko‘p narsalarni to‘pladi va Istanbul safariga tayyor bo‘ldi”. Istanbul dorulfununida tahsil olayotgan Abdurauf Fitrat va uning safdoshlari Turkiyada o‘qiyotgan vatandosh o‘quvchi-talabalarga ham iqtisodiy, ham ma‘naviy yordam ko‘rsatish, Buxoro va Turkistondan talabalar kelishini ko‘paytirish va muntazamlashtirish maqsadida jamiyat tuzadi va uning mukammal Nizomnomasini ishlab chiqadi. Bu hujjat 1909-yilda Istanbulning Vazirxon ko‘chasida joylashgan “Matin” tipografiyasida nashr qilingan. Istanbulda o‘qiyotgan talabalar, ayniqsa, Fitrat tahsil olish bilan birga Turkiyada chiqadigan “Hikmat”, “Ta‘rifi muslimin”, mashhur turk shoiri Mehmet Akif muharrirligidagi “Sirot ul-mustaqim” (“To‘g‘ri yo‘l”) kabi gazeta va jurnallarini Buxoroga jo‘natib turadilar va bu nashrlar tez orada o‘z muxlislariga ega bo‘lgan. Inqilobiy Turkiya “Ittihad va taraqqiy” partiyasi bilan yaqinlashuv, usmonli turklarning inqilobiy-demokratik tafakkurida muhim zamin bo‘lib xizmat qilgan islomchilik, turkchilik, usmonchilik g‘oyalari Fitratning ham ijodkor, ham siyosiy arbob sifatida shakllanishiga ma‘lum ta‘sir ko‘rsatdi. U tahsil olgan Istanbul dorilfununida Turkiya adabiyotidagi islomchilikning 1910-yillardagi eng mashhur vakili “Sirot ul-mustaqim” jurnalining muharriri Mehmed Akif turk adabiyotidan dars berardi. Mehmed Akif 1921-yilda Turkiya milliy madhiyasi matni uchun konkurs o‘tkazilganida “Istiqlol marshi” she‘ri bilan 724 shoir orasidan birinchi o‘rinni olgan. “Ittihad va taraqqiy”ning nashri afkori “Yangi majmua”ning bosh muharriri, turkchilik g‘oyasining bayroqdori shoir Ziyo Go‘k Alp ijtimoiyotdan kirardi. 1898-yilda “Turkcha she‘rlar”i bilan barmoqda she‘r yozishni boshlab bergan Mehmed Aminga ergashish avjga chiqqan, “Turk yurdu” (1911), “Ganch qalamlar” (1911) kabi jurnallar maydonga kelib, tilni arabiy va forsiy unsurlardan tozalash boshlangan yillar edi.

Buxoroga qaytgach, 1912-1916-yillarda Buxoro, Qarshi shaharlarida jadid maktablari ochish va muallimlik qilish bilan shug‘ullangan Fitrat 1917-yildan “Yosh buxoroliklar” firqasining mafkurachisi va g‘oyaviy rahbarlaridan biriga aylangan. Biroq Buxoro amiri Olimxon tazyiqi o‘laroq shu yilning aprel oyi o‘rtalarida jadidlar Buxorodan chiqib ketishga majbur bo‘ladilar. Fitrat Samarqandga ko‘chib borib, “Hurriyat” gazetasiga muharrirlik qilgan (1917-1918). Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, Fitrat shu yillarda “Ittihodi taraqqiy” tashkiloti Eski Buxoro bo‘limining raisi ham bo‘lgan. 1918-yil martda Turkiston xalq komissarlari kengashi raisi F.Kolesovning Buxoro amirligiga bosqini davrida Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi jadidlarning bosqinchilar tomonida turganidan g‘azablangan amir Olimxon ikkinchi bor ularni jismonan yo‘q qilishga kirishadi. Natijada jadidlar Toshkentga ko‘chib o‘tadilar. Fitrat 1918–1919-yillarda Xadradagi maktabda dars bergan. 1919–1920-yillarda esa Afg‘onistonning Toshkentdagi elchixonasida tarjimonlik vazifasida rasmiy xizmatda bo‘lgan. Fitratning Toshkentdagi asosiy xizmatlaridan biri “Chig‘atoy gurungi”ni yo‘lga qo‘yganligidir. 1919–1921-yillarda faoliyat ko‘rsatgan ushbu madaniy-ma‘rifiy va ilmiy-

adabiy tuzilma turkiy xalqlar madaniyati, san'ati, adabiyoti, tarixi, tili va imlosi kabi sohalarni jiddiy o'rganishga kirishgan. Uning "Til va imlo to'dasi", "Adabiyot to'dasi", "San'at va teatr to'dasi" va boshqa bo'limlari bo'lgan. "Til va imlo to'dasi"ga dastlab Cho'lpon, so'ngra Elbek rahbarlik qilgan. "Chig'atoy gurungi" faoliyatida Fitratdan tashqari Qayum Ramazon, Cho'lpon, Elbek, G'ozim Olim Yunusov, Mannon Uyg'ur, Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zunnun, Akmal Ikromov kabilar muhim o'rin tutganlar.

"Chig'atoy gurungi" tomonidan 1919-yilda arab alifbosini isloh qilgan holda yangi alifbo yaratilgan. 1921-yil yanvarda Toshkentda bevosita "Chig'atoy gurungi" tashkilotchiligidagi Til va imlo qurultoyi bo'lib o'tgan. "Chig'atoy gurungi" milliy tarixni o'rganishga ham alohida e'tibor qaratib, ishni aholi qo'lida saqlanayotgan nodir manbalarni yig'ishdan boshlagan. 1919-yili Turkiston ASSR va Turkiston o'lkasi Musulmon byurosi "Milliy madaniy merosni to'plash va o'rganish haqida" Qaror qabul qilgan va bu ishni amalga oshirish uchun Abdurauf Fitrat, Nazir To'raqulov va Laziz Azizzodadan iborat hay'at tuzilgan. Gurung a'zolaridan Po'lat Soliyev, O'ktam va Abdurauf Fitrat Farg'ona vodiysi, Buxoro va Samarqandga ilmiy safarlar uyushtirib, Buxorodan Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asari qo'lyozmasi, Amir Temurdan boshlab Zahriddin Muhammad Boburning nabirasi Akbarshohga qadar o'tgan temuriylar suratlarini topib, Toshkentga olib kelganlar. Fitratning Buxoro Respublikasida Maorif noziri bo'lib ishlagan davrida uning talabi asosida chop etilgan Sayyid Muhammad Nosirning "Tadqiqoti arki Buxoro" ("Buxoro arki tarixi", 1921), Sadriddin Ayniyning "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" (1926) va Po'lat Soliyevning "O'rta Osiyo tarixi" (1926) kabi asarlar "Chig'atoy gurungi" dasturi asosida rejalashtirilgan edi. Milliy o'zlikni anglash yo'lida tuzilgan mazkur gurung faoliyati 1921-yil 10-yanvarda Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi tomonidan to'xtatilgan. Keyinchalik Fitrat va uning shogirdlari qamoqqa olingach, ularga qo'yilgan eng katta ayblardan biri ushbu gurungda qatnashganliklari bo'lgan. BXSRTashkil topgandan so'ng Fitrat Buxoroga kelgan va 1921-yili Maorif xalq noziri, 1922-yili Tashqi ishlar xalq noziri, Xalq xo'jaligi kengashi raisi,

Butun Buxoro markaziy ijroiya qo'mitasi va Xalq nozirlar sho'rosi raisining o'rinbosari va boshqa mas'ul lavozimlarda xizmat qildi.

Buxoro Respublikasiga 1922-yil 18-mayda maxsus topshiriq bilan kelgan S.Orjonikidze kengash o'tkazib: *"Biz Buxoro hukumatini nafaqat aksilinqilobiy kuchlardan, balki qarindoshchilik aloqalaridan tozalashimiz kerak... E'tiroz qilmayman: Xalq Nozirlari kengashining raisi buxorolik, Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi buxorolik bo'lsin, lekin partiya MK kotibi mahalliy millatga aloqador bo'lmasligi kerak. Xuddi shu kabi Nozirlar kengashi ham millatni rad etmog'i lozim. Nozirlar millatdan tashqari bo'lishi lozim. Nozir buxoroli bo'lsa, yaxshi albatta, lekin uning rus yoki gruzin bo'lgani yana ham yaxshi"*, deydi. Bunday "milliy masalani hal qilishga yordam berish" siyosati tez orada natijasini ko'rsata boshlaydi.

1923-yil 12-iyunda “Buxoro masalasiga doir” qabul qilingan qarorni amalga oshirish uchun Buxoroga kelgan RKP(b) MK kotibi Ya.E.Rudzutakning talabi bilan Fitrat Maorif xalq noziri lavozimidan olib tashlanib, Buxorodan badarg‘a qilindi. Abdurauf Fitratga mahalliy millatga aloqador bo‘lganligidan tashqari, “maorif ishlari bilan shug‘ullanish o‘rniga tosh yo‘l qurish bilan shug‘ullanganlik”, mansabini suiste‘mol qilganlik, poraxo‘rlik” ayblari qo‘yilgan. Fitrat bilan birgalikda Otaulla Xo‘jayev, Sattor Xo‘jayev, Muinjon Aminov, Qori Yo‘ldosh Po‘latov, Abdurahim Yusufzoda, Hoji Hamro Yo‘ldoshyev, Naim Yoqubzoda, Muxtorjon Saidjonov, Muzaxar Maxsum (Muzaxar Burxonov) kabi arboblardan ham ishdan olindi.

Moskvalik “rahbarlarning” asl maqsadini ilg‘ash qiyinmas: Fitrat va u kabi bilimdon va millatsevar, o‘z so‘ziga ega, mustaqil fikrlovchi shaxslar ularga kerak emasdi. Fitrat 1923-1926-yillarda Moskvaga borib, Sharqshunoslik institutida faoliyat ko‘rsatadi va 1926-yili unga professorlik unvoni beriladi. 1927-1937-yillarda Samarqand va Toshkentda yashab, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullangan. 1931-yildan to qamoqqa olingan 1937-yilgacha O‘zbekiston Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot institutida bo‘lim boshlig‘i va professor lavozimida ishlagan.

Ijtimoiy va siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki hamda o‘qituvchilik qilishdan tashqari, Fitrat samarali ilmiy-badiiy ijod bilan shug‘ullangan, kelajak avlodga boy ma‘naviy meros qoldirgan. Xalqning mustamlakachilik kishanlarini parchalab, istiqlol uchun kurashga da‘vat etuvchi she‘rlar va asarlar yozgan. “Yurt qayg‘usi” she‘ri va sochmalari hurriyat uchun kurash g‘oyasini baralla kuyladi. Mazkur sochmalarda Turkistonni xo‘rlangan Ona obrazida tasvirlab, bu jabrdiydani zulm asoratidan xalos etish uchun Amir Temur singari jahongirlar ruhiga murojaat etdi, xalqni erk va hurriyat uchun kurash maydoniga da‘vat etgan. U shu yillarda “Mirrix yulduziga”, “Sharq”, “Shoir” singari she‘rlarini yaratib, ularda Turkistonni mustamlakaga aylantira boshlagan bolsheviklarga va ular barpo etayotgan tuzumga nafrat tuyg‘usini ifodalagan.

Abdurauf Fitrat “Sayha”, “Munozara”, “Hind sayyohi qissasi” kabi asarlarida Turkiston jamiyatidagi qoloqlik, ilm-fanga bo‘lgan e‘tiborning susayishi, islom diniga kirib qolgan xurofotlarni keskin tanqid qilgan. Fitrat 1916-yildan boshlab yaratgan “Begijon”, “Qon”, “Abu Muslim”, “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘uzxon” kabi dramalarida tarixga murojaat etganiga qaramay,

bolsheviklarning Turkistonda olib borgan g‘ayrimilliy siyosatiga faol munosabat bildirib, zulm va zo‘ravonlikka asoslangan “yangi tuzum”ni keskin qoralagan. Mufakkir bolsheviklar tuzumiga qarshi istiqlol uchun kurash g‘oyasini “Chin sevisi” (1920) va “Hind ixtilolchilari” (1923) asarlarida yorqin ifodalagan. U Turkistonda sovet hokimiyati yillarida sodir bo‘layotgan fojiali voqealarni Angliyaning mustamlakasi bo‘lgan Hindistonga ko‘chirib, ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashayotgan hind ixtilochi (istiqlolchi)lari siymosida, ma‘lum ma‘noda, o‘z vatandoshlari timsolini yaratdi.

Fitrat 1914-1916-yillarda “Rahbari najot” (“Najot yo‘li”), “Oila” va “Mavludi sharif yoki Mur‘oti xayr ulbashar”, 1917-1920-yillarda “O‘quv”, “Sharq

siyosati” va “Yig‘la, Islom”, 1925-yilda esa “Muxtasar islom tarixi” asarlarini yaratgan. Fitrat bu asarlar orqali jamiyatda ro‘y berayotgan iyosiy-ijtimoiy masalalarga munosabat bildirib, islom olami uchun o‘z hamiyatini yo‘qotmaydigan ma’naviy va ma’rifiy qadriyatlarni tushuntirib bergan.

Fors tilida yozilgan “Rahbari najot” asarida tafsir, hadis, fiqh, kalom, shuningdek, lisoniy, falsafiy, dunyoviy ilmlar to‘g‘risida aniq tasavvur bergan. “Oila” kitobida esa oilaning muqaddas ekanligini asoslab berib, jamiyat va inson hayotidagi o‘rmini oshirishga qaratilgan fikr va mulohazalarini taqdim etgan.

Fitrat o‘zbek tilining grammatikasini o‘rganish ishini boshlab bergan. U 1918-yilda Q. Ramazon va Sh. Rahimiy bilan hamkorlikda “Ona tili” darsligini, shuningdek, “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba: «Sarf» (1925), “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba: «Nahv» (1926) darsliklarini yaratgan va bu darsliklar 1930-yilga qadar bir necha marta nashr etilgan. Olim o‘zbek tili morfologiyasi va sintaksisiga bag‘ishlangan bu asarlari bilan o‘zbek tili grammatikasini ilmiy asosda o‘rganish ishiga tamal toshini qo‘ygan. Fitratning tilshunoslik sohasidagi katta xizmatlaridan yana biri uning 20-yillarda qadimiy turkiy til, jonli xalq tili va shevalarga tayangan holda, ilmiy-madaniy muomalaga kirib kelayotgan yangi tushuncha hamda hodisalarni ifodalash uchun o‘zbek tilining lug‘ati jamg‘armasiga yangi so‘zlar va atamalarni olib kirganligidadir.

Olim “Eng eski turk adabiyoti namunalari” (1927), “O‘zbek adabiyoti namunalari” (1928) tazkiralarni tuzib, milliy adabiy merosimizning eng qadimgi davrdan so‘nggi davrlarga qadar yaratilgan namunalarni to‘plab, muayyan tizimga solgan. Abdurauf Fitrat 1069-yili Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan “Qutadg‘u bilig” sarining milliy ziyolilar tomonidan topilgan 3 ta nusxasining hammasini o‘rganib, kitobning uchinchi nusxasi haqida 1925-yilda “Qutadg‘u bilig” nomli maqolasini yozgan va kitobning tarixan, til jihatdan juda muhim ekanligini aytib, “...bor nusxalari bilan solishtirib, buning kamchiliklarini to‘ldirmoq, uzilg‘an tartibini tuzatmak, onglashilmayturg‘an so‘zlarini izoh qilib, oz bir miqdorda bostirmoq” xayrli vazifalardan ekanligini ta’kidlagan.

O‘zbek adabiyoti yirik namoyandalari ijodini ilk bor o‘rganib, “Bedil” (1923), “Navoiyning forsiy shoirli va uning forsiy devoni to‘g‘risida”, “Ahmad Yassaviy” (1927), “Yassaviy maktabi shoiri to‘g‘risida tekshirishlar”, “Hibbat ul-haqoyiq”, “O‘zbek shoiri Turdi” (1928), “XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotiga umumiy bir qarash”, “Muhammad Solih”, “Fors shoiri Umar Xayyom” (1929), “Mashrab”,

“Farhod-u Shirin” dostoni to‘g‘risida” 1930) kabi katta ilmiy qiymatga ega asarlar yozgan. “She‘r va shoirlik” (1919), “Adabiyot qoidalari” (1926), “Aruz haqida” (1936) asarlari bilan adabiyot nazariyasi faniga asos solgan.

Qomusiy ilm egasi Fitrat sharqshunoslik sohasida ham tadqiqot olib borib, 1921-yilda Po‘lat Soliyev va B. Sergeyev bilan birgalikda amirga tegishli nodir qo‘lyozmalar, vaqf hujjatlarini yig‘ish, ularga tartib va tavsif berishda ishtirok etdi. B. Sergeyev bilan birgalikda V. Vyatkin arxivida saqlanayotgan qozilarga oid hujjatlarni o‘rganib, rus tilida “Kaziyskie dokumenti XVI veka” (1937) kitobini nashr ettirgan. Tarixchi

sifatida Buxoroning so‘nggi amiri haqida “Amir Olimxonning hukmronlik davri” (1930) asarini yozgan.

Fitrat musiqa sohasi bilimdoni sifatida 1921-yili Buxoro shahrida Sharq musiqa maktabini ochib, bu sohaga qiziquvchi, iste’dodli o‘g‘il va qiz bolalarga alohida sinf xonalarida musiqadan ta’lim bergan. Maktabga mumtoz musiqa bilimdonlari hamda V. Uspenskiy singari musiqashunos olimlarni taklif etgan. Shu vaqtdan boshlab “Shashmaqom” kuylarini to‘plash va notaga yozib olish ishlariga rahbarlik qilgan. Fitrat tashabbusi bilan V. Uspenskiy tomonidan Ota Jalol va Ota G‘iyosiddin kuylagan Buxoro shashmaqomi ilk bor notaga solinib, nashr etilgan. Fitrat “Shashmaqom”, “O‘zbek musiqasi to‘g‘risida” maqolalari va “O‘zbek klassik musiqasi ham uning tarixi” (1927) risolasi bilan XX asr o‘zbek musiqashunoslik fanini boshlab bergan.

Abdurauf Fitratning birinchi turmush o‘rtog‘i Mutal Burxonovning ammasi Fotimaxon Burxonova bo‘lgan. Ayrim sabablarga ko‘ra, u bilan ajrashib Hikmatoy Fitratovaga uylangan va o‘gay qizi Sevaraxon Fitratovalar bilan yashagan.

O‘zbekning ulug‘i 1937-yil 24-aprel kuni qamoqqa olingan va salkam bir yarim yilga cho‘zilgan tergov va qiynoqlardan so‘ng Fitrat “aksilinqilobiy millatchilik jadidchilikning asoschilaridan, rahbarlaridan biri”, “sovet hokimiyatining birinchi kunlaridan tortib, so‘nggi kunlargaacha partiya va sovet hukumatiga qarshi millatchi panturkchi aksilinqilobiy harakatni faol uyushtirib kelgan” kishi sifatida, shuningdek, Fayzulla Xo‘jaev ko‘rsatmasiga suyanib, sovet hukumatini kuch bilan ag‘darib tashlash maqsadida Angliyaning Afg‘oniston va Erondagi vakillari bilan yashirin harbiy-siyosiy shartnomalar tuzganlik, bosmachilikni tashkil qilganlik, Turkiyadan Anvar Poshoni boshlab kelganlik, fashistlar Germaniyasining josuslik tashkilotlari, chet ellarga ketgan muhojirlar bilan loqa o‘rnatganlikda ayblangan.

SSSR Oliy sudi harbiy hay‘ati Fitrat “ishi”ni 1938-yil 4-oktyabrda ko‘chma sessiyada ko‘rib chiqqan va u shu kuniyoq Toshkent atrofida otib tashlangan. Sud qarori 1938-yil 5-oktyabrda rasmiylashtirilgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, 1991-yil 25-sentyabrda Fitratga Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berilgan. 1996-yili Fitratning 110 yillik yubileyi keng nishonlangan. Buxoro shahrida Fitrat bog‘i va uy-muzeyi tashkil etilgan va haykal o‘rnatilgan. Alloma Fitratning besh tomlik “Tanlangan asarlar” (Toshkent, 2000-2010) kitobi va turli asarlari nashr qilingan. Fitrat hayoti va ijodi haqida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan.



Mahmudxoja Behbudiy

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li Ahmad Yassaviyning avlodlaridan bo‘lib, imom-xatiblik qilgan. Ona tomonidan bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, Buxoro amiri Shohmurod davrida (1785–1800)

Samarqandga kelib qolgan. Otasi vafotidan so'ng Mahmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiq tarbiyasi va qaramog'ida o'sib voyaga yetgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy kichik tog'asi Mulla Odildan arab tili grammatikasini o'rgangan. Buxoro madrasalarida tahsil olib yurgan paytlarida dastlab onasi (1893), so'ng otasi (1894) vafot etgach, moddiy qiyinchiliklar sabab o'qishni nihoyasiga yetkazolmaydi.

Samarqandga qaytib, Muhammad Siddiq qozixonasida mirzolik qila boshlaydi. Tez orada shariat qonunlarini mukammal darajada o'zlashtirib, qozilikdan mufti darajasigacha ko'tariladi.

Bu paytda Turkistonda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmi kuchayib, unga qarshi tez-tez xalq qo'zg'olonlari bo'lib turardi. Dukchi eshon boshchiligida 1898-yili yuz bergan Andijon qo'zg'oloni milliy ozodlik harakatining eng yiriklaridan bo'lib, chor hukumati tomonidan shafqatsizlarcha bostiriladi. Qo'zg'olonning oqibati shu yurtning ziyolisi sifatida Mahmudxo'jani chuqur qayg'uga botiradi. U jarayonni har tomonlama tahlil etib, tish-tirnog'igacha qurollangan mustamlakachilar tomonidan o'ttiz yil davomida ham ma'nan, ham moddiy jihatdan qulga aylantirilgan avom bilan ozodlikka chiqish mumkin emasligini anglab yetadi.

1899–1900-yillarda Mahmudxo'ja Behbudiy haj ziyoratiga o'tlanadi. Sakkiz oylik sayohati davrida ozodlik uchun kurash yo'llarini qidiradi. Jahonda bo'layotgan voqea-hodisalar, jumladan, milliy ozodlik harakatlari va ularning sabablari, mohiyatini millat manfaati nuqtai nazaridan tafakkur chig'irig'idan o'tkazadi. Sharqning Yevropa davlatlari mustamlakasi ostida bo'lgan boshqa mamlakatlari ahvoli haqida xabar to'plab, ularning hurriyat yo'lidagi harakatlarini o'rganadi.

Vataniga qaytgan Mahmudxo'ja Behbudiy tariximizning tanazzul bosqichlari, sabablarini taftish qiladi, bu masalalar borasida maslakdoshlari Hoji Baqo, Ho'qandboy Abduxoliq o'g'li, Badriddin singari dunyoqarashi keng insonlar bilan munozaralar o'tkazadi. Ana shu bahslar, fikr almashuvlar natijasida xulosalar chiqarib, Turkistonning mustamlakaga tushib qolishi sabablarini ko'rsatadi va yurti ozod qilish bo'yicha rejalarini ishlab chiqadi. Ammo ularni amalga oshirish yo'lida bir-biridan kuchli to'siqlar bor edi. Ularning eng og'iri xalq ommasining parokandaligi, ijtimoiy va huquqiy ongining tubanligi edi. Shuning uchun ham Mahmudxo'ja Behbudiy va uning safdoshlari hurriyat uchun kurashning dastlabki va zaruriy bosqichi – millatni ma'rifat bilan "qurollantirish"ni tanlaydilar.

1903-yili alloma tashabbusi bilan shogirdlari Siddiqiy Ajziy Halvoyi, Abduqodir Shakuriy Rajabamin qishlog'ida, Hoji Muin Xo'ja Nisbatdor mahallasida jadid maktablarini ochadilar.

Behbudiy 1908-yili "Qiroatxonayi Behbudiya" (keyinchalik "Behbudiya" nomi bilan mashhur bo'lgan) kutubxonasini ochadi. Ushbu kutubxona ikki navbatda – soat 9.00 dan 17.00 gacha va soat 18.00 dan tungi 24.00 gacha ishlab, 60–110 atrofida kitobxonga xizmat

ko'rsatgan. Alloma "Samarqand kutubxona islomiyasi" maqolasida kutubxonada 600 ta kitob va risola, gazeta va jurnallar esa undan ham ko'p bo'lganini yozadi.

1914-yilgi sayohati davomida Kavkaz, Qrim, Turkiya, Yunoniston, Bulg'oriston, Avstriya va Germaniyaning turli shaharlarida bo'lib, u yerlardan o'z kutubxonasi uchun juda ko'p kitob va risolalar olib keladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1913-yildan matbuot ishlarini yo'lga qo'yadi va shu yilning aprelidan "Samarqand" gazetasi hamda avgust oyidan "Oyina" jurnali chiqa boshlaydi. "Samarqand" gazetasi o'zbek va tojik tillarida, haftada ikki marta, dastlab ikki, so'ng to'rt sahifada chop etilgan. 1913-yil 17-sentabrda gazetaning 45-soni chiqqan bo'lib, bir tomondan, mustamlakachilar senzurasini, ikkinchi tomondan, yetarli mablag' bo'lmagani sabab to'xtatiladi.

"Oyina" haftalik jurnal bo'lib, o'zbek va tojik tilidagi maqolalar berib borilgan. Uning obunachilari nafaqat Turkiston, balki Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyada ham bor edilar. 1915-yilgacha nashr qilingan jurnalda Turkiston aholisining haq-huquqi, tarixi, til-adabiyot masalalariga bag'ishlangan g'oyat muhim maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalasi muharrirning hamisha diqqat markazida turgan. Mahmudxo'ja Behbudiy millat taraqqiyoti uchun bir necha tilni bilishlikni shart deb hisoblagan.

Mutafakkirning adabiy tanqidga oid maqolalari ham jurnal sahifalarida o'rin olgan bo'lib, Alisher Navoiydan keyingi bir necha asrlik sukunatdan so'ng, "Tanqid saralamoqdur" maqolasida bu sohaning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlab, adabiyotda teng huquqlilik masalasini o'rta qo'yadi. Millat o'zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarni boshqalar bilan teng muhokama eta oladi, degan fikrni ilgari suradi. Umri davomida yuzlab maqolalar yozadi. Ularda millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi qarashlarini ifoda etadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy millat ziyolilaridan Abdurauf Fitrat, Siddiqiy, Hoji Muin, Akobir Shomansur, Muhammad Said, Saidrizo Alizoda, Saidahmad Vasliy, Tavallo, Sadridin Ayniy, Hakim Buxoriy, Niyoziy Rajabzodaning maqolalari va she'rlarini "Oyina" sahifalarida chop etib boradi. Nashr yosh qalamkashlar, bo'lg'usi adib va ma'rifatparvarlar uchun tajriba maydoni vazifasini ham o'taganini ma'lum.

"Oyina" jurnali tahririyatining faoliyati mustamlakachilar tomonidan doimiy nazoratda bo'lgan. O'zbekiston Milliy arxivida Turkiston harbiy okrugining shtab boshlig'i imzosi bilan Samarqand viloyat harbiy gubernatoriga 1914-yil 19-avgust kuni 100-xat yuborilgan bo'lib, unda birinchi jahon urushi davrida "mahalliy matbuotda Rossiya manfaatiga zid maqolalar paydo bo'lishi mumkinligi bois"

Turkiston harbiy senzurasini Samarqanddagi nashrlarni nazorat qilib turishni shtab-kapitan Otayevga topshiradi. "Oyina" jurnali to'g'rilama-qoralamasidan ko'chirma jurnal bosmadan chiqishiga ikki kun qolguncha senzura yuborilishi bosh muharrir zimmasiga yuklatiladi. Mahmudxo'ja Behbudiy harbiy okrugga chaqirtirilib, ushbu "o'ta maxfiy

xat” ostiga “o‘qdim va ma’lumot uchun qabul qildim”, deya imzo chektiriladi. Shu bilan birga, Turkiston general-gubernatorligi nashri “Turkiston viloyatining gazetisi”da milliy jurnalda chop etilgan fikrlarga qarshi chiqishlar ko‘paytiriladi. “Oyina” bosh muharriri esa ularga munosib javob berib boradi. Ammo jurnal faoliyatini cheklash uchun olib borilgan uzluksiz harakatlar o‘z samarasini beradi va 1915-yilga kelib jurnal faoliyati butunlay to‘xtatiladi.

Alloma jamiyat hayotidagi illatlar, nuqsonlar va ilmsizlikni sahnada ko‘rsatish orqali xalqni taraqqiyparvarlikka da’vat etish maqsadida 1914-yili milliy teatr asos soladi. Teatr sahnasida ijro etish uchun “Padarkush” dramasini yozadi. Kitob jildiga “Borodino jangi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi” degan yozuv bilan Tiflis senzurasidan ruxsat olgach, 1913-yili uni chop ettiradi. Muallif “Milliy fojea” deb atagan, 3 parda 4 manzarali bu drama hajman ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va tushunarli bo‘lib, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasining o‘ldirgani, nodonlik va jaholat haqida edi. “Padarkush” dastlab 1914-yil 15-yanvarda Samarqandda, 1914-yilning 27-fevralda Toshkentda sahnaga qo‘yilgan. Abdulla Avloniyni “Turon” guruhi Kolizeyda (hozirgi savdo birjasi binosi) o‘z faoliyatini mana shu “Padarkush” bilan boshlagan edi. Spektakl boshlanishi oldidan Munavvarqori Abdurashidxonov teatrning jamiyat hayotida tutgan o‘rni haqida nutq so‘zlaydi. “Turon” guruhi 1914–1916-yillarda bu spektakl bilan butun Farg‘ona vodiysini aylanib chiqadi. Ushbu sahna asari Turkistonni junbushga keltirgan qirg‘inbarot yillarda ham sahnadan tushmaydi. Bu bir tomondan millatni ma’rifat va taraqqiyot sari undagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan rosmi o‘zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotiga xizmat qiladi.

1917-yil fevralda Rossiya markazidan yuz bergan keskin o‘zgarishlar, xususan, imperator Nikolay II taxtdan ag‘darilib, Muvaqqat hukumat tuzilgani sharoitida metropoliya siyosatchilarini birlashtirgan partiyalar hokimiyat uchun kurashga kirishadilar. Turkiston jadidlari ushbu tarixiy lahzalarni hurriyat shabadalari sifatida qabul qiladilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy ham yeng shimarib, ishga kirishadi. “Xudoyi taolo bizga hurriyat berdi. Diniy va milliy islohot va taraqqiyimiz uchun harakat va say’ etmoqqa yo‘l ochiqdur” deb, bu jarayonlardan unumli foydalanish zarurligini ta’kidlaydi va birlashib harakat qilishga da’vat etadi.

1917-yil mart oyida Toshkentda Turkiston musulmonlari qurultoyi o‘tkazilib, Turkiston musulmonlari sho‘rosi milliy markazi saylanadi. Unga mintaqaning hamma bo‘laklaridan vakillar, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Nosirxon To‘ra, Muhammad Tinishboyev, O‘roz Sardor ham kiritiladilar.

1917-yilning 16-23-aprelida Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan qurultoyida Mahmudxo‘ja Behbudiy nutq so‘zlab, millatni o‘zaro ixtiloflardan voz kechish, buyuk maqsad yo‘lida birlashish,

ittifoq bo‘lishga chaqiradi. “Ixtilofimiz sababli mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar”, deb ochiq aytadi.

1917-yil yozida Rossiya o'z muammolari bilan ovora bo'lib turgan davrda Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston xalqlari kelajagini o'ylab, "Biz istaymizki, butun Rusiya musulmonlari muxtoriyat usuli yuzasidan tirikchilik qilsunlar... Turkiston musulmonlari bundagi rusiy, yahudiy va boshqalar qo'shilgan holda... Turkiston hukumati ta'sis etsak, o'zimizni majlisi mushovaratimiz (parlamentarizm) bo'lsun", deb yangi takliflar beradi.

Bu taklifga birinchi bo'lib chorizmdan qolgan "burjuachilar" emas, "morozovchilar", ya'ni bo'lg'usi bolsheviklar qarshi chiqadilar. Ular Mahmudxo'ja Behbudiyning adolatli yondashuvlaridan xato topa olmaydilar. Biroq uning takliflarini "shoshqaloqlarcha" berilgan, deya e'tiroz bildiradilar. Shuningdek, o'zlarining har jihatdan ustunliklarini ko'rsatib, "Musulmonlar o'zlarini boshqarishda hali ruslardan ko'p o'rganishlari kerak. Dumada ishbilarmon, uddaburon, mehnatsevar kishilar o'tirsa, unda turli jamiyat va siyosiy guruh talablarini yoqlaydigan kishilar bo'lsa, shaharda ishlar yaxshi ketadi. Bunday guruhlar ruslarda ko'p bo'ladi, musulmonlarda esa bo'lmaydi... Fikrimizcha, agar musulmonlar va mahalliy yahudiylar saylovchilarning yarmini yuborib, ikkinchi qismini mahalliy bo'lmaganlarga qo'yib bersalar, ish ravnaqi uchun foyda va haqqoniylik buzilmagan bo'ladi", deb xulosa yasaydilar.

1917-yil oktabrda hokimiyatni to'liq egallagan bolsheviklar yeng shimarib mustamlakachilik siyosatini kuchaytirishga kirishadilar. Millat oydinlari yangi hukumatdan muxtoriyat talab qila boshlaydilar. 1917-yil 26-noyabr kuni Qo'qon shahrida o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi chaqiriladi va Turkiston muxtoriyati tashkil etilgani e'lon qilinadi. Yangi Turkiston asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy bo'lib, millat fidoyisining ozodlikka bo'lgan intilishi, uni intiqib kutgani "Hurriyat" gazetasining 1917-yil 22-dekabr sonidagi "Turkiston muxtoriyati" sarlavhali maqolasidagi quyidagi fikrlaridan bilib olishimiz mumkin: "27-noyabrda Ho'qandda Turkiston muxtoriyati Umumiy musulmon se'zida e'lon qilindi. Muborak va xayrli bo'lsun! Kamina ham majlisda bo'lganim uchun iftixor etaman. Yashasun, Turkiston muxtoriyati! ...Shuni bilmoq kerakki, butun Turkiston xalqi ittifoq etsa, qon to'kilmas. Yer va amlak ham taqsim bo'lmay qolur. Din ham rivoj topur. Ming karra dodu bedodlik ixtilof etmoq uchun ittifoq etganmiz va ixtilofimiz sababi ila badbaxtliqg'a duchor bo'lurmiz. Butun Turkiston ittifoq etsa, 15 millionlik bir quvvat ummong'a kelurki, shunga yer titraydur. Agar so'zumni fahmlata olgan bo'lsam, o'zimni baxtli hisoblardim".

Turkistondagi mustamlakalaridan mahrum bo'lishni istamagan bolsheviklar Muxtoriyatga qarshi chiqadilar va 1918-yilning fevralda uning markazi – Qo'qon shahriga hujum uyushtiradilar. Shahar qonga botiriladi. Mustaqil davlat tuzishga harakat qilgan hukumat bor-yo'g'i 72 kun yashagan.

Mahmudxo'ja Behbudiy Qo'qondagi voqealardan tushkunlikka tushmagan, millat manfaati yo'lida xizmat qilishda davom etib, so'nggi nafasigacha ozodlik uchun kurashgan. U ayrim yurtdoshlari singari "qizil" bosqinchilar safiga qo'shilgan emas, balki 1917-yildayoq bolsheviklarga qarshi tuzilgan, yashirin faoliyat olib borgan

“Ittihodi taraqqiy” jamiyatiga kirgan. Jamiyat o‘z faoliyatini tashkillashtirishda Turkiyadagi “Ittihad va taraqqiy” tashkilotidan yordam so‘raydi va ikki marta maxsus vakillarini Turkiyaga yuboradi. Ammo har ikkala vakillik ham maqsadiga erisha olmagan. Birinchi vakillar Sadirxon va Sa‘idnosir Mirjalilovlar 1918-yil Istanbulga borganlarida, Yosh turklar hukumati mag‘lubiyatga uchragan va tashkilot a‘zolari muhojirlikka ketgan edi. Shuning uchun ular belgilangan kishilar bilan uchrasha olmay Toshkentga qaytadilar.

Ikkinchi hay‘atning borishi 1919 yili rejalashtirilgan bo‘lib, uning tarkibiga Toshkentdan Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev va Sa‘idnosir Mirjalilov, Samarqanddan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Mardonqul va Muhammadqul kirgan edilar. Ularning Turkistondan chiqib ketishlaridan sovet hokimiyatining Favqulodda komissiyasi (ChK) – maxsus xizmati xodimlari xabar topadilar. Ushbu sharotida Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev Moskvada, Sa‘idnosir Mirjalilov Tiflisda yashirinishga majbur bo‘ladilar.

Behbudiy “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Risolai jug‘rofiyoyi Rusiy” (1905), “Kitobat ul-atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi darslik va qo‘llanmalar yozgan. Bundan tashqari, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Tujjor”, “Samarqand” gazetalari va “Oyina” jurnalida ko‘plab maqolalari chop etilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning to‘rt o‘g‘li va bir qizi bo‘lgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘ldirilgach, bolalarga Qozi Haydarbek, Akobir va Abduvohid afandilar vasiylik qilganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiyning to‘ng‘ich o‘g‘li Ma’sudxon 1897-yili tug‘ilgan va 2 yoshida vafot etgan. Geografiya ilmiga iqtidorli va qobiliyatli bo‘lgan Maqsudxon (1910–1931) erta vafot etgan. 1914-yili tug‘ilgan o‘g‘li Matlubxon Ikkinchi jahon urushida bedarak yo‘qolgan. Qizi Parvin (Surayyo) (1902–1984) 82 yoshda vafot etgan. 1919-yili tug‘ilgan o‘g‘li Shavkat 1990 yili vafot etgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1919-yili Favqulodda komissiya ayg‘oqchilari yordamida Shahrisabz bekligida qo‘lga olingan. Oradan taxminan ikki oy o‘tgach, Qarshiga keltirib zindonga tashlangan. Bir necha kundan so‘ng Qarshi begi Tog‘aybekning buyrug‘i bilan yordamchisi Nuriddinxo‘ja Og‘aliq Ahmadxo‘ja o‘g‘li tomonidan zindon yaqinidagi “podsholik chorbog‘i”da o‘ldirilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning qatl qilingani Samarqandda bir yildan keyin ma‘lum bo‘lgn. Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Sadriddin Ayniy va boshqa shoirlar allomaga atab marsiyalar yozganlar.

Keyinchalik Mahmudxo‘ja Behbudiyning Samarqandda faoliyat yuritayotgan shogirdlari, safdosh va maslakdoshlari uning qabrini izlab topish, qotillarni aniqlash harakatiga tushadilar. Ular “Samarqand komissiyasi”sini tuzib, Qarshiga kelganlarida bu paytda ushr-soliq nazorati idorasining boshlig‘i bo‘lib olgan Nuriddin Og‘aliq ularning faoliyatiga yo‘l qo‘ymaydi. Qarshi shahridagi hukumat a‘zolari esa uning xohish-irodasiga qarshi chiqolmaganlar.

Amirlik davrida yuqori mansabda ishlagan Nuriddin Og‘alining sovet hukumatida ham o‘z mavqeyini saqlab qolishining sababi bolsheviklar bilan hamkorlikda

Mahmudxo‘ja Behbudiyni yo‘q qilib yuborgani bilan bog‘liqligini hech kim inkor etolmaydi, albatta.

Ammo 1923-yilning kuzida BXSr hukumati taftish komissiyasi Qarshi viloyati soliq idorasi faoliyatini tekshiruvdan o‘tkazadi. Komissiya Nuriddin Og‘aliq hamda uning safdoshlari katta qonunbuzarlik va jinoyatga qo‘l urganlarini aniqlaydi. Chunonchi, Nuriddin Og‘aliq hukumatning 42 ming pud bug‘doyi va 20 ming oltin quymasini talon-taroj qilganlikda, mehnatkashlarning 1000-2000 tasini yarim och, yarim to‘q holatda o‘z yerlarida ishlatganlikda ayblanadi. Bundan tashqari, buyuk mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudi hayotiga zomin bo‘lgani bilan bog‘liq jinoyati ham qo‘shilib, sud Nuriddin Og‘alini otishga qaror qiladi.

Hukm 1923-yil 19-sentabrda Registon maydonida 5000 aholi ishtirokida amalga oshiriladi. “Buxoro axbori” gazetasida “Behbudi va rafiqlarining o‘ldirilishiga sabab bo‘lg‘on fuqaro hukumatining molig‘a xiyonat qilgan mazkur Og‘aliq 19-sentabrda (1923-yil) otildi, demak, Behbudi va rafiqlarining o‘chlari olindi”, deb xabar beradi.

Buxoro hukumati Qarshi viloyati ijroqo‘mi raisi Jo‘ra Zokiriy hamda Qarshi viloyat firqo‘mi Nazarov zimmasiga Mahmudxo‘ja Behbudi qabrini qidirib topib, uning haykalini o‘rnatish vazifasini yuklaydi. Lekin bu mutasaddi shaxslar o‘zlariga yuklangan vazifani uddalay olmaganlar. “Ozod Buxoro” gazetasining 1923-yil 19-oktabrdagi sonida “Turkistonning mashhur jamoat xodimlaridan Behbudiyning ismini umrbod (abadiy) qoldirmoq uchun Buxoro Respublikasi qurultoyi Qarshi viloyatini Behbudi viloyati deb ismlamakka qaror berdi”, deb xabar beradi.

Qarshi viloyati 1937-yilga qadar Behbudi viloyati deb atalgan bo‘lib, 1937-yili boshlangan qatag‘onlar oqibatida viloyatdan alloma nomi olib tashlanadi. O‘zbekning barcha ziyolilari singari Mahmudxo‘ja Behbudi ham millat ozodligi va taraqqiyoti uchun kurashgani uchun sovetlarning qora ro‘yxatidan o‘rin oladi.



O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, barcha jadid bobolarimiz singari Mahmudxo‘ja Behbudiyning ham muborak nomi qayta tiklandi. Tarixchi va tilshunos olimlar tomonidan uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda ilmiy merosini o‘rganish boshlandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev XX asr boshlarida Turkistonda zamonaviy ta‘lim tizimiga asos solgan, millat ozodligi, xalq farovonligi uchun kurashgan barcha jaddilarga, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiya ehtirom ko‘rsatib, yoshlarga o‘rnak qilib ko‘rsatish hamda ma‘naviy merosini chuqur o‘rganish bo‘yicha oqilona va adolatli ishlar qilayotgani yaxshi ma‘lum. 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada milliy yetakchimiz “2020 yili xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma‘rifat mash‘alasini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi. Umuman, biz jaddichilik harakati, ma‘rifatparvar

bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa,

yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi", degan ta'kidlari buyuk allomaning millatimiz va davlatimiz oldidagi tengsiz xizmatlarining e'tirofidir, albatta.

Prezidentimiz 2020-yil 30-sentabr kuni "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan ziyolilarga qilgan murojaatida jadidchilik harakati va uning yirik namoyandalari haqida to'xtalib, "...mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi... Bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar" dedi hamda uch jadid: Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovni istiqbol, ozodlik, erkinlik uchun qilgan fidokorligi, "milliy ta'lim va tarbiya tizimi"ni yaratishdagi hissasi uchun "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlanganini bildirdi. O'z davridayoq "Turkiston jadidchilik harakati otasi" deb e'tirof etilgan Mahmudxo'ja Behbudiyning qilgan xizmatlari e'tirof etilib, davlatimiz rahbari tomonidan munosib taqdirlandi. Mustaqillik yo'lida fido bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning umri millat va Vatan umri qadar boqiydir.



Usmon Nosir hayoti va ijodi



O'zbek adabiyotining yorqin va zabardast shoirlaridan biri, shubhasiz, Usmon Nosirdir. Usmon Nosir - o'zbek Lermontovi, o'zbek adabiyotining chaqmoq shoiri. Shoir atigi 32-yil umr ko'rgan bo'lsada, o'zbek she'riyatiga ulkan meros qoldirishga ulgurdi.

Shoirning hayot yo'li

Usmon Nosir 1912-yilning 13-noyabrida Namanganning Chuqurko'cha dahasida dunyoga keladi. Shoir to'rt yoshligida otasi vafot etadi. Onasi Xolambibi Nosirhoji ismli insonga turmushga chiqadi va oila Qo'qonga ko'chib o'tadi. Shunda Nosirhoji yosh Usmonni bolalar uyiga topshiradi.

Usmon Nosir maxsus internatda ta'lim oladi.

1929-1930 yillarda atigi bir yil Usmon Nosir Moskva Kinematografiya institutining ssenariy fakultetida o'qiydi, biroq o'qishini tugallamaydi. 1930-1933 yillarda Qo'qondagi qisqa muddatli ta'lim va tarbiya kurslarida o'qituvchi, ilmiy bo'lim mudiri va shahar teatrida adabiy emakdosh bo'lib ishlaydi.

1930-1933 yillarda Usmon Nosir Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Pedagogika akademiyasi (hozirgi Samarqand Davlat universiteti)ning til va adabiyot fakultetida bir muddat tahsil oladi. 1934-yil Toshkentga ko'chib keladi va "Yosh Leninchi" gazetasida ishlaydi.

Bo'lajak shoirning ilk she'ri "Haqiqat qalami" bo'lib, 1927-yilda "Yangi yo'l" gazetasida bosib chiqiladi. 1931-yilda fuqarolar urushi mavzuyiga bag'ishlangan "Norbo'ta" nomli dostonini yaratadi. Doston "Yangi Farg'ona" gazetasida e'lon qilinadi. Shoirning ilk she'riy to'plamlari "Quyosh bilan suhbat" va "Safarbar satrlar" 1932-yilda nashr etiladi. Shundan so'ng "Naxshon", "Nil va Rim" dostonlarini, 1934-yilda "Traktorobod", 1935-yil "Yurak" va 1936-yilda "Mehrim" nomli she'riy kitoblari nashr etiladi.

Shoir ijodi

She'rim

Sen yuragimning chashma suvi sen,

Sen ko'zlarimning gavhar nurlari.

Sening bahongni kim so'rasa, de:

"Bahom umringning bahosiga teng!"

Usmon Nosir she'riyati hech kimnikiga o'xshamagani, adabiyot o'ziga yaratib olgan andozalar va qoliplarga sig'magani bilan o'ziga xosdir. She'rlarda shoirning tirik, otashin, isonkor ruhi sezilib turadi. Masalan, "Yurak" she'rida Itoat et!

Agar sendan

Vatan rozi emas bo'lsa,

Yoril, chaqmoqqa aylan sen,

Yoril! Mayli, tamom o'lsam!..

deya xitob qiladi.

Zamonasining yirik shoirlaridan biri Turob To'la Usmon Nosir she'riyati haqida shunday deydi: "U shunday to'polon va to'lqin bilan keldiki, uncha-muncha she'riy

uslub va ijodni to's-to's qilib yubordi. Uni o'zimizda "O'zbekning Lermontovi", Moskva gazetalarida "Sharqda Pushkin paydo bo'ldi", deb yozishdi".

Darhaqiqat, Usmon Nosir she'riyati avvalo, hayotiyligi, jozibadorligi va shunday bo'lsada, nihoyatda sodda va ravon bo'lgani uchun ham xalq qalbiga yaqin.

Yana she'rimga

(Sonet)

She'rim! Yana o'zing yaxshisan,
Boqqa kirsang, gullar sharmanda.
Bir men emas, hayot shaxsisan,
Jonim kabi yashaysan manda.
Yuragimning dardi — naqshisan,
Qilolmayman seni hech kanda!
O't bo'lurmi ishq yo'q tanda?
Dardimsanki, she'rim yaxshisan.
Sen orada ko'prik bo'lding-da,
Geyne bilan o'rtoq tutindim.
Lermontovdan ko'mak o'tindim.
Butun umrim sening bo'yiningda.
Saharda qon tupursam, mayli.
Men — Majnunman, she'rim, sen — Layli!

Dengizga

Oq dengiz, yaxshi qol! Yaxshi qol, Shimol!
Ko'nglimda ishqingni olib qaytaman.
Sochimni o'ynaydi muzdek sho'x shamol,
Men unga dardimni qanday aytaman?
Kechqurun qirg'oqda aylanib tanho
Sevdim, sevib qoldim to'lqinlaringni.
Oyni cho'miltirgan tinch tunlaringni
Tushimda ko'rganda ne qilarman, o?
O'ynagil so'ng marta, chayqal, erkalan!
Armonim qolmasin ketar oldimda.
Bag'ringda baliqday yuzgan oq yelkan
Bir umr sayr etgay mening yodimda...

Yaxshi qol, erkin suv! Yaxshi qol, dengiz!

To'liqlar, qo'ynimga qizday kirdingiz...

Usmon Nosir o'zini nafaqat iste'dodli shoir balki, dramaturg sifatida ham namoyon etadi. 18 yoshida "Nazirjon Xalilov" dramasini yaratadi. Uning "Dushman" (1931), "So'nggi kun" (1932), "Atlas" (1935) pyesalari Qo'qon teatrida sahnalashtirilgan.

Nasimaga deganim

Yo'q, hali hammasi o'tganmas,

Ko'p hali hayotdan nasibam.

Silligim bezarar, hech gapmas,

Borini ko'raman, Nasimam,

Yo'q, hali hammasi o'tganmas!

Oldimda kutadir imtihon –

Men og'ir janglarda bo'larman.

Nasima! Bu kungi issiq qon,

O, balki to'kilur... o'larman...

Oldimda kutadir imtihon!

O'ylanib ko'zingga qarasam,

Ikkita dengizday ko'rinur...

Nasima! Ichaman rost qasam,

Olovdek lovullab dil yonur,

Baxtliman janglarga yarasam!

Usmon Nosir betakror she'rlari, sahna asarlaridan tashqari adabiy tarjima bilan ham shug'ullangan. Xususan, Aleksandr Pushkinning "Bog'chasaroy fontani", Mixail Lermontovning "Iblis" dostonlarini o'zbek tiliga mahorat bilan o'girdi. Bundan tashqari, Nikolay Dobrolyubovning "Haqiqiy kun qachon keladi?" yirik asari hamda jahon adabiyotining yirik shoirlaridan bo'lmish Geyne, Gote, Bayron she'rlaridan ham tarjimalar qildi.

Qatag'on yillari

1937 yilning 27-yanvar kuni Usmon Nosir adabiy faoliyatining 10-yillik yubileyi keng nishonlanadi. Biroq bayramdan yarim yil o'tib Yozuvchilar uyushmasida yosh shoirning "xulq-atvori" muhokama qilingan majlis bo'lib o'tadi. Yig'ilishdan ikki kun o'tib, 14-iyul kuni endi Yozuvchilar uyushmasidan chiqarilgan 24 yoshli Usmon Nosir hibsga olinadi. Shoirning kitoblari, suratlari, qo'lozmali musodara qilinadi. Dastlab shoirning qayerda ekanligi qarindoshlar bilmaydi. Va nihoyat bir kuni shoirning singlisi Rohatoy nomiga Toshkent qamoqxonasidan xat keladi. Unda: "Singlim Rohatxon!

Uyg'unlikiga borib narsalarimni ol. Madamin Davronning uyida paltom bor. Ibrohim Nazirnikida etigim ham. Shularni olib kelib, menga kirgizib yubor. Ketadiganga o'xshayman..." deb yozilgan edi. Faqatgina bir marta shoirning singlisi va otasiga Usmon Nosir uchun kiyim-bosh, yegulik kiritib berishga ruxsat berishadi, boshqa bunday imkoniyat bo'lmaydi...

Shoirlar O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 60-moddasi 1-qismi bilan "muntazam ravishda millatchilik va aksilinqilobiy tashviqot olib borani va Sovet hukumati haqida ommaviy ravishda odobsiz shaklda so'zlagani" ayblovi qo'yiladi.

SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor majlisi Usmon Nosirni "terrorchilar bilan aloqasi borligi, shuningdek, uning "O'zbekistonning nufuzli yozuvchi va shoirlaridan biri bo'lib, yoshlarni millatchilik, rus klassiklari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda ataylab buzib ko'rsatib aksilinqilobiy ruhda tarbiyalaganini"da aybli deb topadi va 10-yilga axloq tuzatish lageriga jo'natish haqida hukm chiqaradi.

"Xalq dushmani" tamg'asi bilan hali 25 yoshga to'lmagan shoir Zlatousk, Vladivostok, Magadan, Mariinsk qamoqxona bo'ladi. 1943-yili Kemerovo viloyatida joylashgan Sibir lageriga jo'natiladi.

Bo'lmoq istab, she'riyat uzra darg'a,

Itardilar meni chuqur bir jarg'a.

Menga ayon, bulbulning oshiyonig'a,

Qo'nmag'ay urinish bilan qarg'a

Ushbu satrni shoir 1937-yili sentabrida zindonda yozgan. Shubhasiz, she'rdagi shoirga hasad qilganlar, uni xalq dushmani deya chaqib tuhmat qilganlar tilga olingan.

1940 yilning 20-avgust kuni Usmon Nosir Magadandan I.V.Stalin nomiga xat yozadi. Maktubda shoir "ish"ini qayta ko'rib chiqishlarini so'raydi. Shuningdek, qamoqxonada turib ham "she'riy roman, uchta sahna asari va bir qator she'rlar yozgani" haqida xabar beradi. Maktubda: "Men hali yoshman va g'ayratga to'laman. Men xalq uchun ijod qilishim kerak! Menda ayb yo'q!" degan so'zlar ham bo'ladi.

Ajablanarlisi, minglab shunday maktublar orasidan Usmon Nosirning xati e'tiborga tushadi va O'zbekiston hukumati Kremldan shoir ishini qayta ko'rib chiqish haqida buyruq oladi.

1944 yilning so'ngida professor Borovkov, shoir Maqsud Shayxzoda, va "Qizil O'zbekiston" gazetasi bosh muharriridan tarkib topgan komissiya Usmon Nosirni aybsiz deb topadi. Biroq, bunday xulosaga endi juda kech edi. Shoir 1944-yilning 9-mart kuni vafot etadi. Uni mahalliy aholilardan bo'lgan Anatoliy Mitrofanovich Sirota ismli inson dafn etadi.

Unutmas meni bog'im

Shoirning singlisi Rohatxonning qizi Nodira Rashidova tog'asining qabrini topish uchun bir qancha sa'y-harakatlar qiladi. Tog'asi haqida ma'lumot so'rab Kemerovaga xat yozadi. Tayinli ma'lumot o'lmagach, Kemerovaga o'zi tashrif buyuradi. Unga Usmon Nosirning o'limi haqida tibbiy xulosasining nusxasi beriladi. Hujjatda shoirning

“o‘pka kasalidan vafot etgani” to‘g‘risida yozilgan edi. Shoirning jiyani qiyinchiliklar bilan tog‘asining qabrini topishga muvaffaq bo‘ladi. Xotira yodgorligi o‘rnatadi.

Keyinchalik Usmon Nosirning avaxtada yozilgan 18 qator she‘ri ya‘ni 8 satr, ikki to‘rtlik va bitta ikkilikdan iborat “Yurak tug‘oni” nomli she‘r qo‘lozmasi topiladi. Ajablanarlisi, qo‘lozmani adabiyotshunos olimga o‘sha payti Usmon Nosirning tergovida qatnashgan va xizmat vazifasiga xilof bo‘lsada, “xavfli she‘rlarini” turmadan olib chiqqan tergovchi topshirgan.

Otashqalb shoir Usmon Nosir xotirasi nafaqat u tug‘ilib o‘sgan yurtda, balki Kemeroxada ham yodga olinadi. Kemeroxada har yili shoir she‘riyatiga bag‘ishlangan adabiy kechalar o‘tkaziladi. Bundan tashqari u yerda Usmon Nosir muzeyi ham bor. Usmon Nosir she‘rlari Kuzbass shoirlari tomonidan rus tiliga tarjima qilingan.

Shoir bir she‘rida shunday bashorat qilgan edi:

*Ming yillardan keyin ham
Unutmas meni bog‘im.
She‘rlarim yangrab qolur...
Bir umrga o‘lmayman.*

2021 yil sentabrida prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyev namanganlik saylovchilar bilan uchrashuvda 2022-yilda Usmon Nosir tavalludining 110-yilligi munosib nishonlanishini ma‘lum qilgandi.

“Usmon Nosir ayni ijodiy kuch-quvvatga to‘lgan 25 yoshida qamalib, qatag‘on qilindi. Chunki mustabid tuzum bunday millatparvar, vatanparvar insonlarni o‘zining eng ashaddiy dushmani, deb hisoblar edi. Shuning uchun ham, shoir umrini qamoqxonalarda azob-uqubatda o‘tkazib, 1944-yili 32 yoshida vafot etadi. Kelgusi yili yurtimizda Usmon Nosir tavalludining 110-yilligi munosib nishonlanadi”, - degan edi Mirziyoyev.

2022 yil 10-fevral kuni “Otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi prezident qarori qabul qilindi.

Qarorga ko‘ra Usmon Nosir hayoti va faoliyatini, xususan, uning qatag‘on davrida kechgan yillarini o‘rganish, hozirga qadar noma‘lum bo‘lib kelayotgan qo‘lozma asarlarining taqdiri haqida ma‘lumotlar to‘plash maqsadida ishchi gyruh tuzilib, uning Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, shuningdek, Rossiyadagi tegishli arxiv materiallari bilan tanishishi uchun sharoit yaratiladi.

Namangan shahrida Usmon Nosir haykali o‘rnatiladi. Toshkent va Namangan shaharlaridagi ko‘chalarga Usmon Nosir nomi beriladi.

Munavvar qori Abdurashidxonov



Munavvar qori Abdurashidxonov 1878-yili Toshkent shahar Shayx Xovandi Tahur dahasi “Darxon” mahallasida ziyoli oilada dunyoga keldi. Otasi Abdurashidxon Sotiboldixon Olimxon o‘g‘lidir. (Ayrim manbalarda va xalq og‘zida Abdulmajidxon o‘g‘li, vafoti 1885-yil) U o‘zi yashab turgan mahalladagi Eshonquli dodxoh madrasasida va o‘z hovlisida maktab ochib, 40 nafar o‘quvchiga dars bergan. Onasi Toshkentning mashhur ziyolilaridan Xonxo‘ja Shorahimxo‘jayevning qizi (1841–1941) Xosiyat otin (1845–1931) ham o‘qituchi bo‘lib, o‘z hovlisida mahalladagi xotin-qizlarni o‘qitgan.

Munavvarqorining bolaligi, yoshligi murakkab davrga to‘g‘ri keldi. 1892-yil 24-iyunda boshlangan “Vabo qo‘zg‘oloni” paytida Munavvarqori 14 yashar bola edi.

Abdurashidxon va Xosiyat otin uch o‘g‘il ko‘rishgan. Kattalari A‘zamxon (1872–1919), o‘rtanchasi Muslimxon (1875–1954), kichigi Munavvarxon edi. A‘zamxon domla mahalla maktabida bolalarni o‘qitgan. Uning 1910-yili Sirdaryo viloyat o‘quv yurtlari inspektoriga usuli jadid maktabini ochish uchun ruxsat berilishini so‘rab yozgan arizasi va o‘quv dasturi saqlangan.

Ariza va dasturga qaraganda, u bolalarga to‘rt sinf darajasida saboq bergan. O‘quv dasturini Munavvarqori tuzgan.

Adibning ikkinchi akasi Muslimxon domlaning taqdiri o‘zgacharoq kechgan. U sho‘ro hukumatining barcha zulm va tazyiqini totdi. U akasi va ukasi kabi dastlab sakkiz yil mobaynida muallimlik bilan shug‘ullangan bo‘lsa-da, keyingi to‘qqiz yil mobaynida mahalladagi Mirza Abdullaboy masjidiga imomlik qiladi, masjidlar yopilgandan so‘ng esa “XVIII partsyezd” artelida qorovul bo‘lib ishladi. 1942-yil 27-yanvarda davlat sirlarini oshkor qilishda ayblanib qamoqqa olinadi. Tergovchilar uni otishga hukm qilishni taklif qilib maxsus majlis hukmiga yuboradi. Lekin uning jinoyatini tasdiqlovchi dalillar bo‘lmagani uchun, qamoqda o‘tirgan kunlari jazoga hisob qilinib, 1942-yil 28-noyabrda ozod qilinadi. Turli joylarda oddiy ishchi bo‘lib yurib, 69 yoshida vafot etadi.

Ma‘lumoti 1885-yili Munavvarxon 7 yoshligida otasi Abdurashidxon vafot etadi. Shunda Munavvarxon dastlabki ta‘lim-tarbiyani onasi Xosiyatxon otindan oladi. Xat-savodi chiqqach, o‘sha davrda dovrug‘i chiqqan Usmon domladan saboq oldi. Akalari ta‘sirida voyaga yeta bordi. Qur‘oni karimni xatm qilib, “qori” unvonini olgach, hali ilmga yaxshi kirib bora olmaganini fahmladi. “Yunusxon podsho” madrasasida bir necha yil tahsil ko‘rdi, biroq olgan ilmidan qoniqmadi. 1898-yili Buxoroga borib hadis, fiqh, ilmi tafsir va boshqa sohalar bo‘yicha tahsilni davom ettirdi. Biroq Buxoro madrasalarining imperiya hukumati siyosiy vakilining nazoratida ekanligi va u yerda Munavvarqori orzu qilgan ilmning yo‘qligi ham uni Buxoroni tark etishga majbur qilgan.

Mehnat faoliyati Munavvarqori 1901-yili Toshkent shahrida ilk usuli savtiya maktabini ochadi. Maktabda darslarni tashkillashtirish uchun Munavvarqori dastlab Qrim va Tataristondagi o'qituvchilar tuzgan dastur va adabiyotlardan foydalanadi. 1907-yilga kelib esa o'zi "Adibi avval" darsligini tuzadi. O'zbek tilining deyarli ilk alifbolaridan bo'lgan bu kitob Saidrasul Aziziyning darsligi bilan oldinma-keyin bosilib chiqdi. U tez orada Turkistondagi barcha maktab o'qituvchilari tomonidan yaxshi kutib olindi va amaliyotga tatbiq qilindi. Arxiv hujjatlariga qaraganda Munavvarqorining bu kitobi S. Aziziyning "Ustodi avval" kitobi bilan barobar rus-tuzem maktablarida ham o'qitilgan. Munavvarqorining "Adibi avval" kitobi Mahmudxo'ja Behbudiyning tojik bolalari uchun mo'ljallangan (1906) "Alifboi maktabi islomiya" va "Salim-ul-avval" kitoblaridan har jihatdan farq qilar edi. Shu bois uning darsligidan rus-tuzem maktablarida foydalanish uchun ruxsat beriladi. U 1907-yilning oxirida ikkinchi darsligi – "Adibus-soniy"ni nashr ettiradi. 1910 – 1911-yillardan boshlab usuli jadid maktabini ochgan A'zamxon, Muslimxon (Munavvarqorining akalari), Hasan qori Xoniy, Eshonxo'ja Xoniy, Nizomiddin Husainov, Rustambek Yusufbekov, Sa'dulla qori Abdullayev va boshqa ko'pgina toshkentlik, qo'qonlik, namanganlik, farg'onalik domlalar A.Ibodov, A.Shukurov asarlari bilan bir qatorda "Adibus-soniy"ni ham darsda qo'llay boshladilar. Ko'pgina maktablarda Munavvarqorining 1–4-sinflar uchun tuzgan dasturi joriy qilingan edi. Maktab o'quv tizimini chuqur o'rgana boshlagan Munavvarqori bular bilan cheklanmay, dasturni tobora takomillashtirib boradi. 1912-yilga kelib, o'quvchilarga husnixat, jug'rofiya, islom tarixi, turk qavmlari tarixi fanlarini oshkora o'qita boshlaydi, maktab ostonasiga qorovul qo'yib, ijtimoiy sohalardan saboq beradi.

U mahalliy o'qituvchilar orasida birinchi bo'lib "Namuna" maktabini tashkil qiladi hamda rus tilini o'qitish masalasini hukumat oldiga ko'ndalang qo'yadi. Bu taklifni mustamlaka hukumati rad etadi. Lekin Munavvarqori ham hujumni susaytirmadi va o'z maktabida rus tili o'qitilishiga erishdi.

Munavvarqori maktab maorif islohoti, tom ma'nodagi milliy maktab yaratish niyatidan sira qaytmadi. Maktabda rus tilini o'qitish masalasini ijobiy hal qildi, o'quv dasturlarini tobora takomillashtira bordi. 1914 – 1916-yillarga kelib Turkistondagi ko'pgina maktablar Munavvarqori tuzgan dastur asosida ishlar edi. 1917-yili Munavvarqori Toshkent shahar dumasiga a'zo etib saylanadi. Ammo bir yil oldin u aynan maktab masalasida shahar ma'murlari bilan jiqqamusht bo'ladi. Kuropatkin huzuriga bolalarni boshlab borib, usuli jadid maktablariga keng yo'l berishini so'raydi. Yosh shoir, Munavvarqorining shogirdi To'g'ru'l (B. Haydariy) gubernator ostonasida turib, ustozining niyatini ma'qullab A. N. Kuropatkin sha'niga she'r o'qiydi. Bu ish uchun Munavvarqorini hibsga oladilar. Ammo ko'p o'tmay ozod qilingan Munavvarqori 1917-yil 6-sentabrda shahar boshlig'i N.G.Mallitskiy oldiga masalani boshqacha qo'yib, o'lkada mavjud bo'lgan rus-tuzem maktablarini "milliy maktab" nomi ostida milliy musulmon maktabiga aylantirishni taklif etdi. Munavvarqori bu maktablarda olti yillik o'quv dasturini joriy etish loyihasini ham taqdim qiladi.

Munavvarqori “milliy maktab” asoschisi bo‘lib qolish bilan birga chet elga bolalarni o‘qishga yuborish masalasini ham yechishga intildi. Misol uchun, 1917-yil 24-sentabr kuni Munavvarqorining uyida toshkentlik ziyoli va boylardan 50-60 kishi yig‘iladi. Majlisda ishtirok etgan barcha boylar va ziyolilar baholi qudrat yoshlarni chetga o‘qishga yuborish uchun o‘rtaga pul tashlaydilar. Xazinachi Murodxo‘ja domla Solihov pulni yig‘ib oladi. Ushbu voqea ishtirokchisi Shokirjon Rahimiy aytishicha, Munavvarqori bu bilangina kifoyalanmay, “Nashri maorif” uyushmasi tomonidan ham talabalarga yordam ko‘rsatadi. Hokimiyat tepasiga sho‘rolar kelgan paytda esa bevosita Munavvarqori ishtirokida “Ko‘mak” uyushmasi tuziladi. Ammo uyushmaning mablag‘i talabalarga to‘lash uchun yetmas edi. Shu sababli har bir o‘quvchi bir ministrlikka biriktiriladi.

Adib ilmiy-pedagogik ishlar bilangina cheklanmaydi. O‘ziga o‘xshash ochiq niyatli, tiniq fikrli yoshlar Ubaydulla Xo‘jayev, Abdulla Avloniy, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Karim Norbekov va boshqalar bilan hamkorlikda 1909-yili toshkentlik Orifxo‘jaboy Hojinov raisligida “Jamiyati xayriya” ochadi. Biroq bu jamiyat iqtisodiy jihatdan bir necha boylarning yordamiga suyangani uchun erkin ish olib bora olmaydi. Lekin rais o‘rinbosari bo‘lgan Munavvar qorining tinib-tinchimasligi tufayli jamiyat taraqqiyparvar yoshlar qo‘liga o‘tadi.

Munavvarqori maktab islohoti, yangi shakldagi o‘rta va oliy o‘quv yurtini tashkil etishning barcha masalalari bilan jiddiy shug‘ullandi. 1917-yilgi davlat to‘ntarishidan keyin hokimiyat tepasiga kelgan bir hovuch shovinistlar maorif-madaniyat rivojini asosan o‘z xalqlari xizmatiga qo‘yadilar. Ana shunday tadbirlardan biri – Turkiston harbiy shtabi qoshida Sharq fakultetini tashkil etish, so‘ng uni Xalq dorilfununiga aylantirib, konservatoriya ochish bo‘ldi. Tatar va o‘zbek ziyolilari birlashib, Xalq dorilfununi ochish uchun muzokara o‘tkazadilar.

Muzokarada “Turon”, “Muallimlar jamiyati”, “Guliston” va boshqa jamiyatlar yig‘ilishib bu masala ko‘rib chiqiladi. 9-aprelda “Munavvarqori Abdurashidxonov hovlisida, – deb xabar beradi “Ulug‘ Turkiston” gazetasi 1918-yil 11-aprel sonida, – musulmon tashkilotlarining umumiy ijtimoi‘i (yig‘ilishi) bo‘ldi. Ijtimoi‘ Toshkentda ochilajak Xalq dorilfununiga musulmon sho‘basi ochuv haqqida edi”. Majlis o‘rtaga qo‘yilgan masalani to‘g‘ri topib, qaror qabul qiladi. Bu ishni bevosita amalga oshirish uchun komissiya tuziladi. Tashkilotlar komissiyasining raisi etib Munavvarqori Abdurashidxonov saylanadi. Dorilfunun maktablariga muallimlarni imtihon qilish Munavvarqori bilan Burhon Habibga topshiriladi. Munavvarqori komissiya ishlari, dastur tayyorlashdan tashqari, bevosita muallimlar tayyorlovchi kurs ochish bilan ham shug‘ullanadi va 31-mayda o‘qituvchilar seminariyasi binosida “Dorilmuallimin” nomi bilan 8 oylik kurs ochiladi. Munavvarqorining maktab sohasidagi xatti-harakatlari ushbu hodisa bilan yakun topgani yo‘q. U maktab va dorilfunun dasturlarini tuzdi, darsliklar yozdi. Uning Shorasul Zunnun, Qayum Ramazon bilan hamkorlikda yozgan to‘rt qismdan iborat “O‘zbekcha til saboqlig‘i” kitobi o‘zbek tili grammatikasining asoslaridan biri hisoblanadi.

O'zbek milliy matbuotining paydo bo'lishini ham Munavvarqori faoliyatisiz tasavvur qilish mumkin emas. 1906-yildan "O'rta Osiyoning umrguzorligi, taraqqiy", "Taraqqiy" gazetalarida adabiy xodim. Shu yili noshir va muharrir sifatida "Xurshid" gazetani tashkil etgan. "Shuhrat" (1907), "Tujjor" (1907), "Osiyo" (1908) gazetalarini g'oyaviy boshqargan va adabiy xodim vazifasini bajargan.

El ko'zini ochishda matbuotni buyuk omil deb bilgan Munavvarqori uning vositasida millatni uyg'otish bilan kifoyalanmay, xalqni jipslashtirishga, uning milliy e'tiqodini yuksaltirishga ham harakat qiladi. "Xurshid" gazetasi ana shu intilishlar natijasi o'laroq dunyoga keladi. Bu gazeta ijtimoiy ruhi va yo'nalishi bilan chor hukumati ma'muriyatini anchagina talvasaga soladi. Shu bois tezda yopib qo'yiladi. Oxrankaning Munavvarqori yozgan har bir kitob, va'z, maqolani tahlil etib borishdan o'zga chorasi qolmaydi.

Nikolay Ostroumov 1908-yilning fevral oyida Turkiston general-gubernatoriga maxfiy xat yo'llab, "Shuhrat" gazetasiga chalasavod mulla Abdulla Avloniy muharrirlik qiladi; unda sobiq "Xurshid" gazetasining noshiri chalasavod olim Munavvarxon Abdurashidxonov xodim bo'lib ishlaydi. Ularga rus, hatto fransuz tilini biladigan noma'lum tatar yordam beradi", deb chaqimchilik qiladi. Qarangki, u "chalasavod" deb, Munavvarqorini yerga urmoqchi bo'lsa-da, uning olimligini tan olgan. U yana "Munavvarxon o'z uslubida turkcha, tatarcha ifoda va so'zlarni qo'llaydi, xususan, turkcha "afandi" iborasini ishlatadi, deb mustamlaka hukumatga "Shuhrat" gazetasini yopish kerak", deya maslahat ham beradi.

"Xurshid", "Shuhrat", "Osiyo" va boshqa gazetalar yopilsa-da, Munavvarqori matbuot sohasidagi faoliyatini aslo susaytirmaydi. 1909-yili u tashkilotchilikka teng huquqli bo'lgan fikrdoshlari bilan birga "Xayriya" jamiyatini tashkil etadi. Ubaydulla Xo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov kabi huquqshunos do'stlari bilan bir qatorda jamiyatning nizomini ishlab chiqadi. Maslakdoshi Ubaydulla Xo'jayev bilan birga "Sadoyi Turkiston" gazetasini tashkil etadi.

Ubaydulla Xo'jayev rus tilida benazir bo'lsa-da, o'zbekchasi bir oz sust edi. Shu bois asosiy ish Munavvarqorining zimmasiga tushgan. 1914–1915-yillari chiqqan "Sadoyi Turkiston" gazetasida do'stlari Ubaydulla Xo'jayev (noshir va bosh muharrir), Abdulla Avloniy (muharrir), To'lagan Xo'jamiyrov – Tavallo (muharrir), Abdulhamid Sulaymon – Cho'lpon (avval xat tashuvchi, keyin Andijon bo'yicha muxbir), Abdurauf Muzaffarzoda (sayyor muxbir), Mirmuhsin Shermuhamedov (muxbir), Shokirjon Rahimiy (muxbir), No'shiravon Yovushev (sayyor muxbir) bilan birga gazetaning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy jihatdan yuksak cho'qqiga olib chiqdi.

Munavvarqori gazetada ishlash bilan cheklanmaydi. U 1915-yil mart oyidan boshlab Toshkentda nashr etila boshlagan "Al-isloh" jurnaliga asos soladi, ayrim sabablarga ko'ra, jurnalning rasmiy hujjatlarini faqat Abdurahmon Sayyoh Sodiqov nomiga rasmiylashtiradi. Bir qarashda faqat shar'iy savollarga javob berishga mo'ljallangandek tuyuladigan bu diniy jurnal hadis va oyatlar vositasida istiqloq g'oyalarini targ'ib etgan.

Munavvarqori bu bilan kifoyalanmaydi. 1917-yil Fevral inqilobidan keyin “Turkiston viloyatining gazetasi”ni Ostroumov changalidan tortib oladi. Munavvarqori Turkiston viloyatining gazetasi”ni “Najot” deb o‘zgartirdi. Ushbu gazeta faoliyatida xalqning e’tiborini ijtimoiy xorijiy voqealarga qaratgan bo‘lsa, keyinchalik shu gazeta zaminida tashkil etilgan va Turkiston muxtoriyatini tayyorlashda muhim vazifani bajargan “Kengash” gazetasida Zaki Validiy bilan oldinma-keyin muharrirlik qildi.

Munavvarqori – “Turon” jamiyati hamda “Turon” (qisqa muddat “Turkiston” deb ham atalgan) truppasining tashkilotchilaridan. Bu jamiyat va truppa rasman 1914-yili hukumat ro‘yxatidan o‘tib, tasdiklangan bo‘lsa-da, aslida o‘z faoliyatini 1913-yili boshlagan edi. 1913-yil iyun-iyul oylarida “Turon” truppasi o‘zining norasmiy spektaklini ko‘rsatadi. Truppaning tashkiliy va targ‘ibot ishlariga Munavvarqori faol aralashadi. 1914-yil 27-fevralda Toshkentdagi Kolizey teatri binosida ilk o‘zbek asarlarini sahnalashtirgan o‘zbek milliy teatrining birinchi mavsumi rasmiy ravishda ochildi. Mavsumni rasmiy ochish Munavvarqori Abdurashidxonovga topshirilgan edi. Munavvarqori teatr san’ati xususiyatlarini, dramaturgiyani chuqur bilgan olimdir. Shu bois bu sohada Hamza Hakimzoda Niyoziyga ustozlik qildi.

1917-yilgi davlat to‘ntarilishidan so‘ng, Munavvarqori boshchiligida “Sho‘royi islomiya” siyosiy tashkiloti tuziladi. Keyinchalik uning faoliyatini kengaytirish maqsadida nomini “Turkiston Sho‘royi islomiya jamiyati” deb o‘zgartirishadi. Unga Ubaydulla Xo‘jayev rais, Munavvarqori Abdurashidxonov muavin etib saylandilar. U.Xo‘jayev ko‘p vaqtini safarda o‘tkazgani uchun asosiy ishni Munavvarqori Abdurashidxonovning o‘zi bajarar edi. Bu bilan kifoyalanmay, “Alash”, Markaziy Rossiya tatar-boshqird jamiyatlari, ikkinchi tomondan Turkiston va Buxoro jamiyatlari bilan, uchinchi tomondan mahalliy “Ixtiyot soyuzi” (qozoqlar uyushmasi), “Ittifoq” (tatarlarning uyushmasi) jamiyatlari bilan aloqa o‘rnatgan edi. Xo‘jandda Abdulla Rahimboyev tomonidan tashkil etilgan “Turon” partiyasini ham umumiy ishga jalb eta oldi. Munavvarqori Qo‘qonda tashkil etilgan Turkiston Muxtor Respublikasining tuzilishida qatnashib, hay‘at a‘zosi etib saylandi, Toshkentda 1917-yil dekabrda o‘tgan mitingda muxtoriyatni qo‘llab-quvvatladi.

Muxtoriyat tugatilgach, 20-yillarda o‘zbek yurtining mustaqilligi uchun kurash vazifasini o‘z oldiga qo‘ygan “Milliy ittihad” va “Milliy istiqlol” yashirin tashkilotlariga rahbarlik qildi. Adibning o‘zi va uning talaygina safdoshlari “Milliy ittihad” Markaziy Qo‘mitasining ruxsati bilan Rossiya federatsiyasi tarkibidagi Turkiston avtonom respublikasi idoralariga ishga kirdilar. Munavvarqori maorif komissarligida ish boshqaruvchi lavozimida faoliyat olib bordi. 1920-yili esa Eski Shahar Maorif bo‘limida inspektor lavozimida ishlaydi. Lekin Munavvarqori komissarlikdan majburan ketkaziladi. Endi u Maorif xalq komissarligi qoshidagi Vaqf ishlari bo‘limi mudiri sifatida faoliyat ko‘rsatarkan, o‘lkaning barcha shaharlari va yirik qishloqlarida bo‘lib, maxfiy tashkilot ishini yo‘lga qo‘yadi. Shu bois Bokuda o‘tadigan Sharq xalqlari qurultoyiga Turkistonning deyarli barcha shaharlaridan vakillar borishiga erishildi. Boku qurultoyi 1920-yil 1-sentabrda ochildi. Bu qurultoyda Munavvarqori hay‘at a‘zosi sifatida ishtirok etgan edi.

Munavvarqori va milliy ittihadchilarning orzu-umidi 1924-yili Rossiyaning navbatdagi siyosiy nayrangi – “milliy chegaralanish” o‘tkazilishi bilan barbod bo‘ldi. Katta siyosiy kurash, kuchli harbiy-iqtisodiy kuchga ega bo‘lmagan tashkilot tajribali, harbiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan ustun kuchga qarshi turishga ojiz edi. Bu ojizlik tashkilotni parokandalikka, so‘ng o‘z-o‘zidan tarqalishga olib keldi.

Munavvarqori Abdurashidxonov mustamlakachilarga qarshi kurashning yangi vositasini topadi. Bunda unga maslakdoshlari Saidnosir Mirjalilov, Ubaydulla Xo‘jayev, Tolibjon Musaboyev va boshqalar faol yordam beradilar. “Milliy ittihad” tarqatilgach, mustamlakachilarning faoliyatini xorij matbuoti orqali fosh qilishga o‘tiladi. Bu sohada ular Maskovdagi eski tanishlardan foydalanib, Parijda yashayotgan Mustafo Cho‘qayevga mahalliy rus va o‘zbek matbuoti yuborib turadilar, hatto Angliyaga maxsus odam yuborib ayrim muammolarni hal etishga urinadilar. Maxfiy manba 1925-yil 18-iyulda GPUga quyidagicha ma‘lumot beradi: “Shayx Xovandi Tohur daha Rais ko‘cha mahallasida yashovchi Abdulsamad Abdulvohidov, Maqsud Toshmuhamedov Angliyaga odam yuborish uchun o‘ziga to‘q odamlardan 2500 so‘m pul to‘plashdi. Pul shu ikki shaxsda, ular G‘uljadan Umarqorining kelishini poylashyapti. U kelishi bilan vakil jo‘natiladi. Munavvarqori Abdurashidov sayohatdan qaytib keldi, hozir uyida yashayapti”.

Adibning shu yillardagi hayoti iztiroblar va larzalar bilan to‘la o‘tdi. Sho‘ro davlati va uning siyosiy idorasi Munavvarqoriga nafaqat istiqlool yo‘lida, balki xalq ommasini ma‘rifatli qilish yo‘lida ham ishlash imkonini bermadi. Uning har bir nafasi hushyor ko‘zlarning nazorati ostida kechdi. Kuni kecha uni izzat-hurmat qilgan kishilar yo yuqori amallarga erishganlaridan keyin, yo GPUning tazyiqi ostida undan yuz o‘gira boshladilar. Unga ishlash imkoniyati berilmadi. Natijada Munavvarqori Toshkentdan Maskovga ketib, o‘sha yerda ishlashni ko‘ngliga tugadi. Shu bois hovli-joyini sotib, pulning bir qismini rafiqasiga, yana bir qismini bir tanishiga qoldirib yo‘lga tushadi.

Maskovda Turor Risqulov, Nazir To‘raqulov hamda bir turkman yigit yordamida “Sharq xalqlarini o‘rganish qo‘mitasi”ga kirib ishlashni va o‘qishni niyat qiladi. O‘sha paytda Maskovda bo‘lgan Akmal Ikromov unga yordam berishni va‘da qilib, Toshkentga qaytaradi. Lekin yurtiga qaytgan allomaga hech kim yordam qo‘lini uzatmaydi. U 1927-yili muallimlik bilan shug‘ullanadi.

Yil oxiriga yaqin eski xavf va gumon bilan uni o‘qituvchilikdan bo‘shatishadi.

Ilmiy-adabiy merosi Munavvarqori bir qancha darslik muallifidir. Uning “Adibi avval” (1907), “Adib us-soniy” (1907), “Usuli hisob”, “Tarixi qavm turk”, “Tajvid” (1911), “Havoyiji diniya”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islomiya” (1912), “Yer yuzi” (1916 – 17), 4 qismdan iborat “O‘zbekcha til saboqligi” (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga, 1925–26, 4-qismi musodara qilingan) darsliklari bir necha marta chop etilgan. 1914-yili taraqqiyparvar o‘zbek shoirlarining she‘rlarini jamlab, “Sabzavor” nomi bilan nashr etgan.

Munavvarqori ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shug‘ullangan. Uning birinchi hikoyasi “Sadoyi Turkiston” gazetasida “Kichkina

felyeton” ruknida chop etilgan bo‘lib, “Bizda hamiyat” deb ataladi. U negadir “Muharram” taxallusini qo‘ygan. Shuningdek, uning “Bizda hamiyat”, “Tug‘ishganlik sevgisi”, “Devpechak”, “Qullikka qanday tushdi?” kabi hikoyalari “O‘zi ham tor edi”, “Yalqovlik yovimizdir”, “Har kim ekkanini o‘rar”, “Himmatli faqir” kabi she‘rlari ham matbuotda e‘lon qilingan.

Oilasi Munavvarqori o‘z xotiralarida oilasi haqida xotini va bir qizi bo‘lganligi haqida xabar bergan. U 1926-yili qizi va nevarasi bevaqt vafot etib, O‘zbekiston SSRdan Moskvaga ketar chog‘ida xotinidan ajralgan. Manbalarda xotini va qizining ismi tilga olinmagan. Shuningdek, adib akasi Muslimxoning Muhammad ismli o‘g‘lini asrab olgani to‘g‘risida ham ma‘lumot mavjud.

O‘limi Muallimlikdan chetlatilgach, Munavvarqori qo‘lqop tikib sotish bilan ro‘zg‘or tebratadi. Kun kechirish nihoyatda qiyin bo‘lgani uchun nafaqaga chiqishga harakat qiladi. Maorif komissarligida va ijtimoiy ta‘minot idoralarida o‘tirgan shaxslar uni ovora-yu sarson qiladilar. 1929-yil sentabrda u nafaqaga ilinadi. Ammo uning bir so‘m pul olgani noma‘lum. 1929-yil 6-noyabrda qamoqqa olinadi. Uyida tintuv o‘tkazilib, barcha hujjatlari, kitoblari hovlisida yoqib tashlanadi. Dastlabki uch oy mobaynida o‘tkazilgan tergovda Munavvarqori ham, sheriklari ham o‘zlarini aybsiz hisoblab, so‘roq varaqasiga imzo chekmaydilar. Ammo davlat siyosiy boshqarmasi sharq bo‘limining boshlig‘i K. Belskiyning shaxsan o‘zi va Agidullin nomli xodimi adibga jismoniy tazyiq o‘tkaza boshlaydilar. 18–20 raqamli azobxonalarda konveyer usulida olib borilgan so‘roqlar, uzlatxonada saqlashlar, oddiy insoniy zarurlatlardan mahrum qilishlar mahbuslarning irodasini sindirib, so‘roq varaqasiga imzo chekishga majbur qiladi.

Millat fidoyisi bo‘lgan bu siymo nihoyatda g‘ayriinsoniy sharoitda saqlandi. Uning 1930-yil 30-oktyabrda birlashgan davlat siyosiy boshqarmasiga (OGPU) yozgan arizasida: “Hozir qattiq betobman, oyog‘im shishib ketganidan yurolmayman, boshqalarning yordamiga muhtojman. Shu sababli meni umumiy kameraga ko‘chirishingizni yoki shifoxonaga yotqizishingizni so‘rayman”, deb murojaat qiladi. Biroq murojaati javobsiz qoldirilib, yetti oy nur ko‘rmasdan, yolgiz ozi (“odinochka” degan uzlatda) saqlanib, 1931-yil 23-aprelida otiladi.

FAYZULLA XO‘JAYEV



Mamlakatimizda XX asrning boshida millatimiz ravnaqi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va rolini o‘rganish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Aynan Buxoro shahridagi tarixiy maskan – Xo‘ja Gulrez ko‘chasida joylashgan Hovli Poyon majmuasida “Jadidlar merosi davlat muzeyi” tashkil etilishi bejiz emas. Bundan

ko‘zlangan asosiy maqsad “Jadidlar merosi davlat muzeyi”ni tashkil qilish orqali o‘zbek yoshlariga ma’rifatparvar jadid ota-bobolarimizning boy merosini o‘rgatib, Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o‘rni va ahamiyatini, milliy istiqlolimizning ma’naviy asoslarini yaratishdagi hissasi va fidoyiliklarini haqqoniy yoritish hamda xalqimizga keng targ‘ib qilishdir.

Shu nuqtayi nazardan jadidlik harakati vakillari hayoti va faoliyatini arxiv manbalaridagi yangi ma’lumotlar asosida o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Turkiston, Xorazm qatori Buxoro hududlarida shakllangan jadidlik harakati vakillaridan bir qator davlat arboblari yetishib chiqdi. “Bu ko‘hna yurtda tug‘ilib ijod qilgan Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Sadridin Ayniy singari ko‘plab ma’rifat fidoyilarining ibratli hayoti bugungi kunda ham yurtimizda yangi jamiyat barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalash, ma’naviyatimizni yuksaltirishda bizga beqiyos kuch bag‘ishlab kelmoqda”.

Sobiq sovet ittifoqi davrida bir qator o‘zbek ma’rifatparvarlari va taraqqiyparvarlari milliy davlatchilikni barpo etish yo‘lidagi xatti-harakatlari uchun qatag‘on qurboniga aylandi. Ular qatorida 13 yil O‘zbekiston SSR hukumatini boshqargan Fayzulla Xo‘jayev ham millat taraqqiyoti yo‘lidagi harakatlari sabab tazyiqqa uchradi. “Xalq dushmani” tamg‘asini olgan bu kabi fidoyilarning nafaqat o‘zi, balki oilasi, farzandlari ham azob-uqubatga giriftor qilingan, qora otliqqa, aybsiz aybdorga chiqarilgan.

Fayzulla Xo‘jayev otasidan qolgan boylikni yangi usul maktablari ochish va “Yosh buxoroliklar” partiyasining siyosiy faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlashga sarfladi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil qilinganidan so‘ng barcha sohalarda o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Qisqa muddat ichida Buxoroda demokratik islohotlar joriy qilindi. Hukumat siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lgan aholi maishiy turmushini yaxshilash bilan bog‘liq ishlar shaharsozlik madaniyatining rivojlanishiga ham turtki bo‘ldi. Hukumat Buxoro ko‘chalariga tosh yotqizish, transport yo‘llarini tartibga keltirish borasida bir qator tadbirlarni amalga oshirdi.

Fayzulla Xo‘jayevning yangi usul maktablari ochish uchun qilgan ishlari uning ma’rifatparvarlik va ilm-fan taraqqiyotiga qaratilgan asosiy faoliyatlaridan biridir.

O‘sha davrning jadidlik harakati tarafdorlari sifatida Xo‘jayev va uning hamfikrlari an’anaviy ta’lim tizimini zamon bilan hamnafas etish, yosh avlodni yangi ilmiy va madaniy bilimlar bilan qurollantirish maqsadida jiddiy ishlar olib bordi.

Buxoro ijtimoiy infratuzilmasini yo‘lga qo‘yish maqsadida Berlin va Moskva shaharlaridan tibbiy jihozlar keltirilib, shifoxonada rentgen qiluvchi, ko‘z kasalliklarini davolovchi va boshqa yangi tibbiy xonalar tashkil qilinadi. Fayzulla Xo‘jayev asos solgan yangi maktablar an’anaviy madrasalar bilan ta’lim metodlari va yo‘nalishlari jihatidan farqlanar edi. Jumladan, ularda zamonaviy fanlar, xorijiy tillar hamda fanlarni o‘qitishning yangi pedagogik usullari joriy etilgandi.

Fayzulla Xo‘jayevning ushbu faoliyati nafaqat ta’lim sohasiga yangilik kiritish, balki milliy uyg‘onish va siyosiy mustaqillikni qo‘llab-quvvatlashga ham xizmat qilgan. U o‘z faoliyati orqali O‘zbekistonning ijtimoiy-madaniy hayotidagi muhim o‘zgarishlarga turtki berib, bu boradagi tashabbuslari bilan yanada taniladi. Yangi maktablarning tashkil etilishi nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar va ma’rifatchilar uchun ham zamonaviy bilim olish, o‘z sohasida malaka oshirish imkoniyatlarini yaratdi. Ayni ta’lim islohotlarida Abdurauf Fitratning ham hissasi katta edi. Fayzulla Xo‘jayevning taklifi bilan Toshkentda pedagogik va ijodiy faoliyat bilan qizg‘in shug‘ullanayotgan Abdurauf Fitrat Buxoroga keladi. Buxoro xalq dorilfununi ochilishi to‘g‘risida tarixiy qaror qabul qilindi.

Ma’lumki, mamlakat uchun oliy ma’lumotli mutaxassislar zarur edi. Yangi ochilgan Toshkentdagi Turkiston davlat universitetidan esa Munavvar qori Abdurashidxonov boshchiligidagi o‘zbek o‘qituvchilari siqib chiqarilgan, mahalliy yoshlar uchun turli-tuman to‘siqlar avjiga chiqmoqda edi. Shunday tahdidli davrda ma’rifatparvarlar birlashib, Toshkentdagi “Ko‘mak”, Buxoro Xalq jumhuriyati homiyligida ellikdan ortiq, iqtidorli yoshlarni Germaniyaga o‘qishga yubordilar. Bu ezgu tashabbusning boshida Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, ayniqsa, Fayzulla Xo‘jayev jonbozlik ko‘rsatgan edi.

Fayzulla Xo‘jayev taqdiri o‘ziga fikrdosh ziyolilar bilan bir xil kechdi. 1937-yil qamoqqa olingach, u “hokimiyatga qarshi aksilsovet o‘ng trotskiychi blok faoliyatiga qo‘shilgan”lik hamda “Milliy ittihad” yashirin tashkiloti faoliyatiga rahbarlik qilganlik, “bosmachilik” harakati va qo‘rboshilarni qo‘llab-quvvatlaganlik, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va boshqa o‘zbek ziyolilariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatganlikda ayblandi.

Yirik siyosatchi va davlat arbobi nomini abadiylashtirish uchun u istiqomat qilgan uyga Vazirlar Mahkamasining “2017-2027-yillarda qayta tashkil etiladigan davlat muzeylari to‘g‘risida”gi qarori asosida bu go‘sha “Boy savdogar xonadoni uy-muzeyi” nomi bilan faoliyat yurita boshladi. Keyinchalik hukumatning tegishli qaroriga muvofiq, majmua “Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeyi” deb qayta nomlandi. Ayni paytda u yerda besh yuzdan ziyod eksponat bor. Ta’kidlash joizki, Fayzulla Xo‘jayevning siyosiy va ma’rifatparvarlik faoliyati o‘tgan asrning boshlarida O‘zbekistonning siyosiy maydonida sodir bo‘lgan murakkab va keskin o‘zgarishlar davriga to‘g‘ri keladi. U iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni hal etishda O‘zbekiston manfaatlarini imkon qadar himoya etish uchun barcha kuchini safarbar qilgan edi.

Ma’rifatparvar – ma’rifat uchun kurashuvchi; ilm, bilim chirog‘ini yoquvchi; ma’rifat homiysi va tarafdori demakdir. Fayzulla Xo‘jayev g‘oyat og‘ir sharoitlarda ishlab, millatning ma’naviyatini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini e‘zozlash borasida katta ishlarni amalga oshirgan edi.

Bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida Fayzulla Xo‘jayev kabi insonlarning tarixiy xizmatlarini yodga olish har jihatdan foydali bo‘ladi. Jadidlarning bizga meros bo‘lib qolgan ilm-u ma’rifatga undovchi asarlari va g‘oyalari hozirgi davr manfaatlariga

hamohang bo'lsa, ularning hayoti va ijodi bilan chuqurroq tanishish yosh avlodning millatparvar bo'lib ulg'ayishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Hayot QODIROV,
Nizomiy nomidagi TDPU O'quv ishlari
bo'yicha prorektori

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY



Hamza 1889-yil 6-martda Qo'qonda ziyoli oilada – tabib Ibn Yamin Niyoz o'g'li oilasida tug'ildi. Ibn Yamin o'zbek, arab, fors tillarida ancha savodli bo'lib, Qo'qon ulamosi orasida katta e'tiborga loyiq tabib edi.

Ma'lumoti Hamza dastlab mahalla maktabida, 1899-1906-yillarda Qo'qon madrasalarida o'qidi, birmuncha vaqt rus-tuzem maktabida rus tilini o'rgandi.

XX asr boshlarida sodir bo'layotgan muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalar Hamza hayotiga, uning ijodkor sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi, 1905-yil inqilobiy harakatlar Rusiyaning chekka o'lkalari xalqlarida ma'rifat, ozodlik, istiq-lol sari intilishlariga turtki bo'ldi. Uning badiiy ijodga, nafis san'atga bo'lgan qiziqishi 1900-yillardan boshlandi. 1908-yilda Namanganda o'qib yurgan kezlari Hamza tatar maorifchisi Abdulla To'qmullin bilan tanishadi: "Ul menim qo'limda o'z qalamim bilan yuz sahifadan ortig'roq eski usuldagi yozishmalarimi ko'rib, tarbiyag'a kirishdi", – deb yozadi Hamza tarjimai holida. 1909-yilda Hamza Buxoroning ulug' taraqqiyparvar mudarrislaridan, usuli jadid maktablari tarafdorlaridan bo'lmish Muhammad Ikrom ibn Abdusalom qo'lida arab tilini o'rganish uchun Buxoroga boradi, ammo u yerda yuz bergan shia va sunniy janjali bunga imkon bermaydi.

Uning ijodiga, ayniqsa Ismoilbek Gaspralining "Tarjimon", Fotih Karimiyning "Vaqt" gazetalari, Rizo Faxriddinning "Sho'ro" jurnali, shu bilan birga, o'zbek tilida Toshkentda chiqqan boshlagan Ismoil Obidiyning "Taraqqiy", Munavvarqori Abdurashidxon o'g'lining "Xurshid", Abdulla Avloniyning "Shuhrat" gazetalari kuchli ta'sir ko'rsatdi, ular bilan aloqa o'rnatdi. Hamzaning ilk she'rlari va maqolalari mana shu gazeta va jurnallarda bosildi. "Tarjimon" gazetasini muntazam kuzatib borgan Hamza G'aspiralining 1906-1907 yillarda shu gazeta sahifalarida bosilgan, butun turk olamining, shu jumladan, Turkiston o'lkasining mus-tamlaka asorati botqog'iga tushib qolishi sabablari haqida bahs yurituvchi "Mukolamai salotin" asari bilan tanish bo'lgan.

Mehnat faoliyati Hamza 1910-yilda Toshkent shahrida amaliy faoliyatga kirishib, Qashqar mahallasida birinchi marta usuli jadid maktabi ochadi. Bu davrda u Toshkentda Turkiston jadidchilik harakatining rahbari Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li va uning atrofidagi shogirdlari usuli jadid muallimlari aka-uka Shokirjon va Sobirjon Rahimiylar, Sami'qori bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Mana, Hamza arxividagi hujjatlardan biri:

“Pirlardan: muhtaram ustoz oliy muallim Munavvarqori... Adreslari: Eski Toshkand, usuli savtiya maktabida, mahalla Mehrobodda. Muloqotimiz 1908-milodiy 11-dekabrda”.

1911-yilda Qo‘qon shahrida u shunday maktab ochadi. Bu maktablar chor ma’murlarining ta‘qibi bilan yopiladi. U 1911-yilda haj safariga o‘tlanadi: Afg‘oniston, Hindiston, Turkiya, Arabiston mamlakatlarining markaziy shaharlarida bo‘ladi. Hamza qayerda bo‘lmasin, u yerning ta‘lim-tarbiya, o‘quv muassasalari bilan tanishadi.

Haj safaridan qaytgach, pedagogik faoliyat bilan bir qatorda, adabiy-badiiy ijodga beriladi. 1914-yilda dastlab Marg‘ilonda, keyin Qo‘qonda usuli jadid maktabi ochadi. Bu haqda “Tarjimai holi”da quyidagilarni yozgan edi: “1914-yilning oxirlarida Marg‘ilonda maktab ochdim. Sakkizinchi oygacha bormay, Andreev ismindag‘i Skobel maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi... Undan yana Xo‘qand kelib, yo‘qsil bolalar uchun pulsiz o‘qish maktabi ochdim... o‘zim 4 oyga davom ettirgandan keyin uyezd nachayligi Medinskiy tomonidan tintuv bo‘lib yopildi. Lekin hech bir qanday qog‘ozlarim qo‘liga tushmagani uchun qamalmay qutuldim”.

Ilmiy-adabiy merosi Hamza bu davrda yangi maktablar uchun “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” kabi darsliklar yaratdi. 1915-yilda qo‘qonlik ma‘rifatchilar bilan hamkorlikda usuli jadid maktablari uchun darsliklar nashr qilish, o‘quvchilarni Toshkent va boshqa shaharlarda bosmadan chiqqan darsliklar bilan ta‘minlash maqsadida “G‘ayrat” kitobxonasi tashkil etadi. Bu kitobxonada Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy”, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniylarning darsliklari ham ko‘p nusxalarda bo‘lgan.

Hamza o‘z ijodini an‘naviy lirik she‘rlar yozishdan boshladi. U “Nihoniy” (yashirin, maxfiy ma‘nolarini bildiradi) taxallusida ijod qildi va 1905-1914-yillarda ushbu taxallusda yaratgan she‘rlarini to‘plab, “Devoni Nihoniy”ni tuzdi. Devonga shoirning 177 she‘ri kiritilgan bo‘lib, ulardan 150 tasi g‘azal, qolganlari masnaviy, murabba‘, muxammas, musaddas va 1 maktubdan tashkil topgan; bulardan 165 ta she‘r o‘zbek tilida, 10 ta she‘r fors-tojik tilida, 2 ta she‘r o‘zbek va rus tilida shiru-shakar janrida yozilgan.

Shoir ijodida muhim o‘rinni ajoyib she‘riy guldastalari – “Milliy ashulalar uchun milliy she‘rlar majmuasi” egallaydi. Bu umumiy nom ostidagi 7 she‘riy to‘plamga 1915-1917-yillarda yaratgan she‘rlari kiritilgan. Bu she‘riy to‘plamlar: “Atir gul”, “Oq gul”, “Qizil gul”, “Pushti gul”, “Sariq gul”, “Yashil gul”, “Safsar gul”.

Ularda xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini uyg‘otish, ilm-ma‘rifatga da‘vat etish g‘oyasi yetakchi edi.

Hamzaning “Milliy ashulalar uchun milliy she‘rlar majmuasi”dagi mazkur 7 to‘plamga kirgan she‘rlari, matbuotda e‘lon qilgan she‘r va publitsistik maqolalari, yaratgan dramalari, “milliy romanlari” uning jadidchilik harakatining badiiy adabiyotdagi yirik namoyandalaridan biriga aylanganligini ko‘rsatadi. Abdulla Avloniy kabi Hamza “Quloq notalari ila eshitilib kelmish milliy tabarruk ashulalarimizning o‘rni yo‘qolmasun uchun

ba'zi qabih she'rlar o'rniga" milliy ruh, millatning istiqloq haqidagi orzu-intilishlarini ifodalovchi so'zlar bilan bu xalq kuylarini muzayyan qilish, bu bilan millatni uyg'otish vazifasini o'z oldiga qo'ydi. Hamza milliy istiqloq g'oyalarining musiqa, xalq kuylari vositasida, qo'shiqlar shaklida xalq qalbiga tezroq va ta'sirliroq kirib borishi mumkinligini yaxshi tushungan. O'zbek adabiyotida sharqiyalarning yaratilishi ham ko'proq Hamza va Abdulla Avloniyilar faoliyati bilan bog'lanadi. Hamza Hakimzoda musiqa sohasida ham katta qobiliyat sohibi edi. Shu ma'noda, Hamzaning ushbu to'plamlari A. Avloniyning "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plamlariga hamohangdir. Xorazm xalq kuylari ohangida bitilgan "Yaxshi holin yo'qotgan oqibatsiz Turkiston" misrasi bilan boshlanuvchi she'rida shoir mustamlaka o'lkaning iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy tutqun ahvolini buyuk dard bilan qalamga olgan.

Umuman, Hamzaning "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi"ga kirgan she'riy to'plamlar nafaqat o'quvchilar, hatto san'atkor-hofizlar o'rtasida ham katta shuhrat qozongan. Bu haqda Hamza ijodining dastlabki tadqiqotchilaridan Sotti Husayn shunday yozgan edi: "U tor doiradagi o'quvchilar o'rtasidagina emas, ashulachilar o'rtasida ham tarqala boshlagan. Shuning bilan baravar bu ashulalar to'shtami... reaktion kuchlarning, ruhoniylarning qattiq g'azabiga uchragan".

Ko'pgina o'zbek ijodkorlari qatori Hamza dunyoqarashining takomilila jadidchilik harakatining buyuk rahnamosi Ismoilbek G'aspirali va uning "Tarjimon" gazetasining roli katta bo'lgan. 1914-yil 11-sentyabrda G'aspirali vafoti munosabati bilan hamma o'zbek jadid ijodkorlari singari Hamza ham o'z hamdardligini bildirib, "Yavmul-vafot" (Sadoyi Farg'ona, 1914-yil 24-sentyabr) maqolasini va "Marsiya" (Sadoyi Farg'ona, 1914-yil 28-sentyabr) she'rini e'lon qildi.

Hamzaning "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi"ga mansub "Safsar gul" to'plamiga mardikorlikka olingan o'zbekning yurtidan uzoqdagi xoru zorliqda kechgan hayotini tasvirlovchi she'rlari kirgan.

1918-1920-yillarda mustamlakachilarga qarata aytilgan bu so'zlar haqiqiy jasorat edi.

"Iydi qurbon", "E'tizor" kabi maqolalari "Sadoyi Turkiston" – "Sadoyi Farg'ona" gazetalarda bosildi. Ushbu maqolalarda millatni yaramas illatlardan, faqirlikdan, xurofotdan qut-qaruvchi birdan-bir yo'l ilm-ma'rifatdir, degan g'oya ilgari su-riladi va boyu kambag'al, ziyoliyu din peshvolari – hammalarining qo'lni-qo'lga berib, yangi usuli jadid maktablariga ko'maklashuvlari lozimligi ta'kidlanadi.

Hamza milliy ayirmalarga, sinfiy tabaqalanishlarga keskin qarshi chiqadi, uningcha, faqat birlik bilangina millatni jaholat botqog'idan, qoloqlikdan, turg'unlikdan, istibdod qulligidan qutqarish mumkin. Bu haqda "Maktabi dorul-aytom" maqolasida muallif yozadi: "Demak, bu "Dorul-aytom"da Xo'qandning har tarafidan o'lsun faqir bolalarni, shubhasiz, qabul qilinadur. Faqat daftar, qalamdan boshqa kitoblarga'acha, hatto maktabdan beriladur. Yuqoridagi iona qiluvchi afandilarimizg'a qiyosan faqir va yetim bolalarg'a rahm va shafqatlari bori Xudo va Rasuldan va millatning rizolig'i birlan dunyo va oxirat saodatlarig'a havaskordan qarindoshlarimizg'a bu to'g'rida naqadar iona va muruvvat

ko'rguzmoqlarini rijo va niyoz qilurmiz. Hamda har oydag'i ehsonlarni jamlab, xoh oz, xoh ko'p bu yetim bolalarin maktab mudiriga bersalar, naqadar bolalarni ilmu ma'rifatg'a yetishmoqig'a eng birinchi shafqatlu ota-onalaridan bo'lur edilar... Diyonatlik ba'zi ahboblarimiz har oyning oxirida yuboradurg'on aqchalarini yozdurub qoldurg'onlarig'a manda alarg'a chin qalbim ila tashakkurimni gazeta orqali e'lon qilub, va'dalarinida yozib o'tuvni munosib ko'raman".

Gazeta va jurnallarda maqolalar yozib, qalami ancha charxlangan, turk, tatar hamda rus adabiyotidan ancha xabardor Hamza o'zbek adabiyoti uchun nisbatan yangi tur nasrga qo'l urdi, "Milliy ro'mon" deb nomlagan "Yangi saodat" asarini 1915-yilda toshbosmada "Madora" kutubxonasi noshirligida bosmadan chiqardi.

Hamza 1915-yildan faoliyat ko'rsatgan Qo'qon teatr truppasi uchun sahna asarlari – dramalar yozdi. 1915-yilda yozgan "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasi Hamzaning bu sohadagi birinchi qadami bo'ldi. Ushbu dramadan keyin u "O'ch", "Muxtoriyat yoki avtonomiya" (1917), "Kim to'g'ri?", "Boy ila xizmatchi" (1918) kabi sahna asarlarini yaratdi.

"Zaharli hayot..." dramasi bevosita jadid ma'rifatparvarligi ruhida yozilgan bo'lib, unda ham "Yangi saodat" "milliy roman"idagi g'oya yetakchilik qiladi. "Yangi saodat"da ilmsizlik, jaholat tufayli parokanda bo'lgan Abdulqahhor oilasini yosh Olimjon ilm-ma'rifat orqali saodatli qiladi. Dramada esa jaholat, qoloqlik, mutaassiblik ilm-ma'rifat, taraqqiyot fidoyilari Mahmudxon va Maryamxonlarni fojiaga olib keladi. Ushbu 4 pardali tragediya 1915-yilda yozilib, 1916-yilda Toshkentda "Matbaai G'ulomiya"da mashhur ma'rifatchilardan, Hamzaning yaqin do'sti, savdogar boy Saidnosir Mirjalolov (1884-1938) noshirligida bosmadan chiqqan. Muallif asarning janrini "Turkiston maishatidan qiz va kuyov fojiasi" deb belgilaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Hamzani (boshqa mutafakkirlarni ham) ba'zan shariatdin peshvolarining ayrim nojo'ya harakatlarini fosh etgani uchun dinsiz, ateist sifatida baholab keldilar. Aslida u dinni emas, mutaassiblikni, mutaassiblarni fosh etadi. Bunga uning "Zaharli hayot..." dramasi dalil. Undagi shariat, islomiyat haqidagi gap-so'zlarga e'tibor bering: "Shariat zolim emas, xoin emas... Shariat har kimni baxtiyor qilgan. Shariatda hurriyat bor, musovot bor, adolat bor.

Shariatda jabr – harom. Nikoh tarafaynning ijob qabuli bilan halol bo'lur. Man qabul qilmasam, nikohfosid, nikohharom. Ohshari-at! Essiz islomiyat! Shariat bitdimi? Yo Rabbii!"

Hamza o'zi ta'kidlaganidek, "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" pesasi fojia janriga mansubdir. Unda fojia (tragediya)ga xos pafos ufurib turadi. Fojia-tragediyaning xos xususiyatlari haqida Abdurauf Fitrat quyidagilarni yozgan edi: "Asar qahramo-nining tilak yo'lidagi qarashlari dramadagidan kuchli bo'lsa, halokatlarga, qonli fojialarga borib taqalsa, tragediya (fojia) bo'ladur".

Asarning ikki yosh qahramoni Maryam va Mahmud zamonasining hal qiluvchi kuchlari mutaassiblarga (asar yozilgan davrda ular hal qiluvchi kuch edi) qarshi kurashadilar. Tomonlar o'rtasidagi kurash eng yuqori nuqtaga ko'tariladi: ularning istiqbol haqidagi yuksak orzulari chilparchin bo'ladi. Natijada, ilojsiz qolgan yoshlar mavjud tuzumga, feodal tartiblarga, jaholatga, mutaassiblarga qarshi isyon sifatida o'z hayotlariga qasd qiladilar.

Uzoq vaqt Hamzaning hamma asarlaridan sinfiylikni qidirish va har bir asar voqeasiga va qahramonlariga sinfiylik nuqtai nazaridan yondashish hukmronlik qildi. Bu hol "Zaharli hayot..." dramasini baholashga o'z ta'sirini o'tkazgan. To'g'ri, Mahmudxon boylar toifasiga mansub, Maryamxon o'ta faqir xonadondan chiqqan. Bu ikki yosh qaysi sinfga mansubligidan qat'i nazar, millat istiqboli uchun kurashadilar. Ularni ulug' maqsadlar birlashtiradi. Shuning uchun ham Hamza asar qahramonlarini, ularning insoniy fazilatlariga qarab baholaydi.

"Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" fojiasi kitobxon yoki tomoshabinlar qalbida Mahmudxon va Maryamxonlarga nisbatan muhabbat, rahm-shafqat, ularni fojiaga olib kelgan mutaassiblik, jaholatga qarshi nafrat tuyg'ularini mavj urdirishi kerak edi. Buning uchun dramaturg fojia janri imkoniyatlaridan, so'z san'atining jozibasidan mohirona foydalandi. Bu hol ko'proq Maryamning faol harakatlarida, Mahmudxonning monologlarida namoyon bo'ladi. Mahmudxon monologlarida sentimental ruh shu darajada kuchliki, tinglovchi qalbini larzaga soladi. Mahmudxonning o'lim oldidagi monologi fojining asl mohiyatini yanada to'laroq ochishga xizmat qiladi: "Maryam, Maryamxonim, man dunyoda yashamam!.. Kecha oqshom Maryamxon muhabbat qurboni edi, biz bugun insoniyat, milliyat qurboni! Mundog' jaholat, mundog' ilmsizlik. Vahshatlik! Bunday zolim xalq orasida yashamoqdan o'lim lazzat, lazzat! Bu xil rahmsizlik, shafqatsizlik! Bir vaqtda shariatdan ko'z yumib, islomiyatni qo'yib, dunyo yo'liga qadam bosuvchi diyonatsiz qora xalq orasida tiriklikdan, albatta, o'lim yaxshi! O'lim!.. Oh, ruhi Maryam! Oh, jaholat! Voh, ismigina qolmish islomiyat!..".

Hamzaning siyosiy qarashlarini, uning Turkiston muxtoriyatiga munosabatini aniq tasavvur qilishda Turkiston muxtoriyati g'oyasining paydo bo'lishi munosabati bilan 1917-yilda yozilgan "Muxtoriyat yoki avtonomiya" hajviy dramasi muhim ahamiyatga ega. 1917-yil Fevral inqilobi, Romanovlar sulolasining barbod bo'lishi butun jadid mutafakkirlari qatorida Hamzaning ham istiklol haqidagi intilishlariga qanot bog'ladi.

Jadidchilik harakatining rahbarlari Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li va Abdulla Avloniy tomonidan 1917-yil mart oyida "Sho'royi islom" jamiyati tuzildi. Bu jamiyatning "Markaziy sho'ro"si tarkibida Mahmudxo'ja Behbudiy, Mustafo Cho'qayev, Ubaydulla Xo'jayev kabi siyosiy arboblardan bor edi. Shu yilning yozidan bolsheviklarning faolligi kuchaydi va mutaassib din peshvolari "Ulamo" nomi bilan "Sho'royi islom"dan ajralib chiqdi. Bu ajralish keyinchalik bolsheviklar uchun qo'l keldi, "Ulamo" jamiyati mustaqillik uchun kurash olib borgan sho'royi islomchilarni barbod qilishda mustamlakachilarga yordam berdi. "Sho'royi islom" va "Ulamo" jamiyatlarining sho'balari o'lkaning turli shaharlarida ham tashkil etildi. Fevral inqilobi natijasida

Turkistonda qanday davlat tuzish masalasi yuzasidan bu jamiyatlar o'rtasida keskin ixtiloflar, ziddiyatlar vu-judga keldi. Hamza "Ulamo" jamiyatining Qo'qon shu'basi majlisini ushbu "Muxtoriyat yoki avtonomiya" dramasiga asos qilib oldi. Muallif dramaning qisqacha syujetini shunday bayon qiladi: "Turkistonda hurriyat bo'luvi munosabati ila yoshlar va ula-molar orasinda ixtilof o'laroq ulamolar ayrilib ketuvlari, ruhoniylar majlisin tasviridir".

Bu o'rinda yoshlar – "Sho'royi islom» jamiyati a'zolari, ya'ni jadidlar; ulamolar – mutaassib qadimchilar "Ulamo" jamiyati a'zolari ekanligi dramaning boshidan oxirigacha ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

Mustaqillikka qadar hamzashunoslar bu dramani Turkiston muxtoriyatining "rasvosini chiqargan", uning "reaksion mohiyati"ni fosh etgan asar sifatida baholab keldilar. Aslida Hamza Turkiston muxtoriyatini tuzishda faol ishtirok etgan jadidlarga qarshi buzg'unchilik, sotqinlik ishlarini olib borgan mutaassib "Ulamo" jamiyati a'zolarining naqadar nodonligini, kal-tafahmligini fosh etgan edi. Asarda qahramonlar ismining bosh harfi berilgan. Hamza ushbu asar tufayli "Ulamo" jamiyatining ta'qibiga uchradi va 1917-yil oktyabridan 1918-yilning 10-martiga qadar Turkiston shahrida do'sti Saidnosir Mirjalolov xo-nadonida yashirilib yashadi. Demak, 1917-yil 27-noyabr Turkiston muxtoriyati e'lon qilingan kunni Hamza Turkiston shahrida mamnuniyat bilan kutib oldi va "Turkiston muxtoriyatiga" she'rini yaratdi. She'r "Ulug' Turkiston" gazetasining 1918-yil 11-yanvar sonida e'lon qilindi. She'rda shoir musulmon millatini ulug' bayram bilan muborakbod qilar ekan, ularni bir sanjoq bayroq ostida birlashishga da'vat etadi.

Hamzaning 1917-yil oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan ijodidagi asosiy g'oya ma'rifatparvarlikdir, u bu davrda jadid adabiyotining yirik namoyandasi sifatida badiiy ijodning hamma imkoniyatlaridan, turlaridan foydalandi. Barcha jadid muta-fakkirlari kabi u 1917-yil fevral inqilobidan so'ng hamma ish o'rinladi, Turkiston xalqlari mustamlaka qulligidan ozod bo'ldi, deb o'yladi. 1917-yilda "Kengash", keyin "Hurriyat" jurnallarini nashrdan chiqardi. "Hurriyat" jurnalining birinchi sonida e'lon qilingan "Bugungi qadrlilik kunlar" bosh maqolasidagi ushbu so'zlarda Hamzaning bu tarixiy voqeaga munosabati yaqqol ko'zga tashlanadi: "Bu kun baxt falakidan chiqmish haqiqat qo'yoshi musovot, adolat kabi eng sof ziyolari bila eng qorong'uda yo'qolgan igna kabi nozik va muhim maqsadlarimizi ham yalturatub ko'rsatmakdadur.

Mana, bukun haqiqat, hurriyat vositasi bila eski xoin va zolim, mustabid hukumatni 50 yildan beri bo'yin, qo'l va oyog'imizg'a sezimsiz solub kelgan umrlik og'ur zanjirlarin ko'zga ko'rsatub yechdi, xalos qildi. Bu kun haqiqat, musovot vositasi bila, bir taraf, zolim amaldorlar, ikkinchi tarafdin rahmsiz, shafqatsiz talonchilar temir tir-nog'i ostida po'stlari butun sidirilib, yuraklari ezilib, cho'kub xonumonlaridan ajrab kelub turgan mazlum, nohaq faqiru bechora, yetim, g'ariblarning burgutlar panjai margidan raho qildi... Bu kun eng qadrlilik, eng g'animatlik kun! Bu kun Ostroumof, Ilminskiy kabilarning tarbiyasida yashagan va aning maslakiga xizmat etuvchi, vatandagi o'z oramizdan chiqqon din xoinlarini xiyonatlarin haqiqat maydoniga otur. Nohaqlarni sharmanda va sarnigun qilur».

Albatta, Hamzaning mustamlakachilarga qarata aytgan jasoratli soʻzlari Vaqtli hukumatga ham, uning oʻlkadagi hamtovoqlariga ham maʼqul boʻlmadi, ikkala jurnal birin-ketin yopildi. Hamza Oktyabr toʻntarishidan keyin shoʻrolar hokimiyatini qoʻllab-quvvatlovchi sheʼrlar, qoʻshiqlar bitdi, bolsheviklar hokimiyatining yangi shakddagi mustamlakachilik siyosatini koʻra olmadi. Baʼzan oʻz qobiliyatini badiiy ijodga emas, shoʻro huku-matining targʻibot-tashviqot ishlariga safarbar etdi. Uning 20-yillarning oʻrtalarida yaratgan “Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi” dramasi, “Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi” hajviy komediyasi oʻzbek dramaturgiyasi va teatr sanʼ-ati taraqqiyotiga kuchli taʼsir koʻrsatdi. Hamza 1926-yil 27-fevralda “Oʻzbekiston xachq yozuvchisi” faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Oʻlimi Hamza Hakimzoda Niyoziy 1928-yilning avgustida shoʻro hukumatining topshirigʻiga binoan Shohimardonga boradi, u yerda mavjud hukumat siyosatini barqaror qilishda, ruhoniylarga qarshi kurashda faol ishtirok etadi va 1929-yil 18-mart kuni shu kurashning qurboni boʻladi. Hamzaning bir guruh mutaassiblar tomonidan oʻldirilishi shoʻro mafkurasida uning ijodini sinfiylik-partiyaviylik tamoyillariga asoslanib baholash uchun mezon boʻldi. Uni maʼnaviy zamindan yulib olib, oʻzi mansub boʻlgan jadidchilik harakatiga, uning namoyandalariga qarshi qoʻydilar, oʻzbek shoʻro adabiyoti va sanʼatining yagona asoschisi sifatida talqin va taqdim etdilar. Bu gʻayriilmiylikning eng yuqori namunasi sifatida Hamzaga bagʻishlangan 17 seriyali “Olovli yoʻllar” filmini koʻrsatish mumkin. Uydirmalar asosiga qurilgan bunday asarlar Hamzaga nisbatan hurmat-ehtiromni oshirish oʻrniga unga boʻlgan ishonch va eʼtiqodga putur yetkazdi.

Hamza ijodi mustaqillik, istiqlol tufayligina haqiqiy bahosini olmoqda. U hech bir boʻrttirishsiz, qoʻshibchatishsiz ham XX asr oʻzbek adabiyotining atoqli vakili: novator shoir, hozirjavob nosir, isteʼdodli dramaturg, gʻayratli teatr arbobi, mohir pedagog sifatida zamondoshlari Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Choʻlponlar qatoridan munosib oʻrin olishga haqlidir.

ABDUQODIR SHAKURIY

(1875–1943)



Abduqodir Shakuriy 1875-yilda Samarqandning Rajabamin qishlogʻida bogʻbon oilasida tugʻilgan. Shakuriy eski usuldagi maktabni tamomlaganidan keyin Samarqand shahridagi madrasada oʻqigan.

Shakuriy rus gimnaziyasiga borib, uning ichki tartib qoidalari va oʻqitish usullari bilan tanishadi. Shundan keyin yosh muallimda oʻz xalqining bolalari uchun ham shu tartibdagi yangi maktab tashkil qilish orzusi paydo boʻladi.

Abduqodir Shakuriy Samarqand gimnaziyasida koʻrgan va oʻzi orzu qilgan yangi oʻqitish usullari Rossiyaning turli joylarida yashagan boshqa turkiy xalqlarda ham mavjudligini gazetalardan bilib oladi.

Shakuriy do'stlari yordamida Qo'qon shahriga boradi va u yerda yangi maktabdagi o'qitish usullari bilan tanishadi. Samarqandga qaytib kelgach, o'z qishlog'i Rajabaminda 1901-yilning kuzida birinchi yangi usuldagi maktabni tashkil qiladi. Shakuriy o'z xotiralarida tatar pedagogi Abdulxodiy Maqsudiyning "Muallimi avval", "Muallimi soniy" kabi darsliklaridan o'z vaqtida foydalanganligini ko'p martaba eslaydi.

Shakuriy maktabida tojik va o'zbek bolalari birga ta'lim olishgan. Bolaning savodi chiqqach, o'zbek va tojik tillarida yozilgan kitoblar, shu bilan bir qatorda, o'quvchilarni o'zaro boyjon va tatar adabiyoti namunalari bilan tanishtirish maqsadida shu tillarda yozilgan asarlardan parchalar o'qitilgan.

Shakuriy o'z o'quvchilari uchun bir yilda bir marta imtihon uyushtirgan. Imtihonda u ota-onalar oldida o'quvchilar bilimining natijalarini namoyish qildirgan, ota-onalar esa o'z bolalarining qisqa muddat ichida xat-savodli, hisob, geografiya va tibbiyotdan ma'lumotga ega bo'lganini ko'rib hayratlanganlar.

Shakuriy maktabining shuhrati keng tarqala boshladi, O'rta Osiyodagi boshqa ma'rifatparvar kishilarning diqqatini jalb etdi. Jumladan, o'zbek adabiyotining asoschisi, buyuk shoir, dramaturg va pedagog Hamza Hakimzoda Niyoziy Shakuriy ochgan maktab bilan juda qiziqqan. U 1909-yilda Shakuriy ochgan maktabini ko'rish, uning imtihonlarida qatnashish uchun Samarqandga keladi. Bu maktabdagi o'qish-o'qitish tartibi va imtihon natijalari Hamzada yaxshi taassurot qoldiradi. Hamza va Shakuriy bir-birlari bilan do'stlashib, ko'p yillar davomida xat yozishib turadilar.

Shakuriy dastlab qizlar uchun ham yangi usuldagi maktab tashkil qilgan. Unda o'zi rahbarligida rafiqasi muallimalik qilgan. Keyinchalik o'g'il va qiz bolalar guruhini birlashtirib o'qita boshlagan.

1921-yilda Samarqand shahridagi 13-maktabga mudir qilib tayinlanadi. U bolalarni tarbiyalash, o'qitishga katta g'ayrat bilan kirishdi, ko'p yillar davomida shu maktabning mudiri hamda ona tili va adabiyot o'qituvchisi vazifalarida ishladi.

Shakuriy birinchi bo'lib maktabda mehnat va musiqa darslarini joriy qildi. U bolalarni qishloq xo'jalik va bog'dorchilik ishlari bilan tanishtirishdan tashqari, ularga muqovasozlik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o'rgatdi.

1925-yilda Abduqodir Shakuriyning tashabbusi bilan qishloq aholisi o'z mablag'lari hisobiga to'rt sinfli yangi maktab qurib ishga tushirgan.

Shakuriy faqat o'qituvchilik qilish bilangina cheklanib qolmagan, u o'z maktabi uchun darsliklar yozib, ularni o'z mablag'lari hisobiga nashr qildirgan. "Rahnamoyi savod" ("Savod chiqarish qo'llanmasi") deb atalgan kitobi shu tariqa chop etilgan. Shakuriyning shogirdi, yozuvchi Rahim Hoshim bu kitobda so'zlar bo'g'inlarga ajratib ko'rsatilgani, kitob oxirida o'qish uchun kichik-kichik material berilganini qayd etadi. Shakuriy ko'p yillik pedagog faoliyati natijasida bolalarni o'qitishda "tovush-harf" metodi (har bir tovushni alohida harf bilan yozish)ning qulay va oson ekanligini aniqlagan. 1913-yili uning rahbarligida o'z shogirdlaridan Ismatulla Rahmatullaev tovush-harf usuli asosida yangi

alifbe tuzgan. Bu kitob Toshkent shahrida nashr qilingan. Kitobning kirish qismida tez va osonlik bilan savodli bo'lish masalasiga oid metodik maslahatlar berilgan. "Alifbe ta'limi" kitobi Ismatulla Rahmatullaevning va ustози Abduqodir Shakuriyning ko'p yillik amaliy faoliyatining natijasida yaratilgan. Alifbe 46 betdan iborat bo'lib, taxminan 90 ta dars uchun mo'ljallangan.

Shakuriy tomonidan 1907-yilda yozilgan ikkinchi kitob "Jome' ul hikoyat" ("Hikoyalar to'plami")dir. Kitob boshlang'ich maktabning ikkinchi sinfi uchun mo'ljallangan bo'lib, undagi o'quv materiallarining hammasi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qilgan. Shakuriy tomonidan tuzilgan va nashr qilingan yana bir kitob "Zubdat ul ash'or" ("She'rlar qaymog'i") to'plami bo'lib, unda ko'plab shoirlarning she'rlari berilgan.

Roziya ismli ziyoli ayolga uylangan. Shakuriy maktabida qiz bolalarga ta'lim bergan. Farzandlari haqida ma'lumot mavjud emas.

Abduqodir Shakuriy 1943-yili vafot etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Ibrohimov va boshqalar. Vatan tuyg'usi. Toshkent-O'zbekiston-1996-yil
2. Manba: "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2023-yil 31-avgust, 177-son
3. Ma'lumotlar internet manbalaridan olindi.